

DUNYO DINLARI TARIXI

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan
umumiyl o‘rtta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari
uchun darslik sifatida tasdiqlangan

Yangi nashr

TOSHKENT
“Toshkent islom universiteti”
2016

UO'K: ...

KBK: ...

Dunyo dirlari tarixi: 9-sinf uchun darslik. D.O.Rahimjonov, J.X.Najmuddinov, U.T.Jo'rayev, A.T.Zamonov. - Toshkent: ..., 2016. - 144 b.

N.K.Ismatovaning uslubiy tahriri va pedagogik qurilmalari asosida tayyorlangan.

ISBN UO'K:

KBK:

Mas'ul muharrirlar:

Tarix fanlari doktori, professor
S.S.Agzamxodjayev,
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent
O.O.Yusupov

Tahrir hay'ati:

Z.Islomov, fil.f.d., prof.
M.Is'hoqov, t.f.d., prof.
V.Qo'chqorov, s.f.d.
D.Kenjayev, t.f.n.
Z.Saidboboyev, t.f.n.
Z.Zamonov, RTM Bosh metodisti
N.Qudratova, Toshkent shahar 41-son maktabi tarix fani o'qituvchisi

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2016-yil 24.-oktyabrdagi 5461-raqamli tavsiyasi, Respublika ta'lim markazi qoshidagi "Tarix" fani Ilmiy-metodik kengashi va Toshkent islam universitetining 2016-yil 26-avgustdaggi qo'shma yig'ilish qaroriga hamda O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning 2016-yil 2-avgustdaggi 139-sonli xulosasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

- T.: 2016, - 144 b.

ISBN

© "...” 2016-yil.

© N.Ismatova, D.O.Rahimjonov

SO'ZBOSHI

Din inson va jamiyat ma'naviy hayotining bir qismi bo'lib, kishilarni doimo ezgulikka chorlab kelgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida "*Din odamzotni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o'tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo'lishga, harom yo'llardan uzoq yurishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi*" degan edi.

Bugungi kunda fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishda, din haqida xolis tushunchalarni shakllantirish, ushbu yo'l bilan yoshlар ongiga vatanparvarlik, millatparvarlik, daxldorlik tuyg'ularini chuqr singdirish, turli diniy mutaassib oqimlarning soxta da'volariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqa.

Mamlakatimizda qadim davrlardan boshlab turli millat va elatlar ahil-inoq bo'lib yashab kelmoqdalar. Vatanimizning bag'rikenglik borasida boshqa mamlakatlarga o'rnak bo'ladigan jihatlari juda ko'p.

Mustaqil respublikamizda turli dinlarning qadriyatları asrab-avaylanmoqda, barcha fuqarolarga vijdon erkinligi kafolatlanadi hamda uni amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratib berilgan. Dinalar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu Konstitutsiyamizda quyidagicha ifoda topgan: "*O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar*".

Tezlik bilan o'zgarib borayotgan dunyoda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

XXI asrda inson ongini egallashga qaratilgan g'arazli mafkuraviy va axborot xurujlari ko'zga tashlanmoqda. Bunday xurujlar turli ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, badiiy filmlar va boshqalar orqali amalga oshirilmoqda.

Turli nosog'lom kuch markazlari o'zlarining yovuz maqsadlari yo'lida «nishon» sifatida tanlangan mamlakatni qaram qilib olish uchun, avvalo, mazkur xalqni qadriyatları, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga e'tibor qaratmoqda. Bu haqda Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida ogohlantirib, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: "*Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni*

shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin".

Mana shunday mafkuraviy tahdidlarga qarshi turish uchun, Siz yoshlar o'z fikringizga va zaruriy bilimlarga ega bo'lishingiz kerak. Qo'lingizdagi mazkur darslik jahon dinlari va milliy dinlarning tarixi, mohiyati haqida bilim beradi.

Aziz o'quvchilar!

Mavzularni o'zlashtirishda bir dinni ikkinchisidan ustun qo'ymaslik, boshqalarning diniy his-tuyg'ularini hurmat qilish qoidalariga rioya etish zarurdir. Darslikdagi mavzular bo'limlarga ajratilgan. Ularni o'rganish jarayonida dinlar tarixi, ta'limotining mazmuni, marosimlari, urf-odatlari va an'analari haqida bilimga ega bo'lasiz. Ayni paytda buzg'unchi kuchlarning dindan, diniy his-tuyg'ulardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishga urinishlari qanday mudhish oqibatlarga olib kelayotgani haqida ham zarur ma'lumotlar bilan tanishasiz.

Darslikni tayyorlashda mavzularga oid ilmiy va diniy-ma'rifiy adabiyotlardan, davriy nashrlar, turli diniy konfessiyalarning aqidaviy qarashlari bayon etilgan doktrinal hujjat va muqaddas kitoblardan, internet tarmog'idagi rasmiy va xususiy saytlarda berilgan ma'lumotlardan, shuningdek, badiiy adabiyotlardan ham foydalanildi.

Darslikdan buyuk bobolarimizning islom dini rivojiga qo'shgan bebafo hissalari haqida ma'lumot olish orqali, islom dini ta'limotining aqidaparastlik, ekstremizm va terrorchilikka hech qanday aloqasi yo'qligiga ishonch hosil qilasiz. Buzg'unchi diniy oqimlarning tuzog'iga tushib qolib, ular safiga kirish – Vatanga, dinga va yaqin insonlarga xiyonat qilish ekanini anglab yetasiz. Zero, hech bir din buzg'unchilikka, vayronkorlikka da'vat etmaydi, aksincha, insonlarni o'z Vatanini sevishga, uning ravnaqi yo'lida unumli va samarali mehnat qilishga, namunali axloqi bilan boshqalarga o'rnak ko'rsatishga chaqiradi.

I. DINNING PAYDO BO'LISHI, UNING JAMIYATDAGI O'RNI

1-MAVZU

DIN VA UNING MOHIYATI



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

Quyi sinflarda olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering:

1. Din, diniy tasavvurlar deganda nimani tushunasiz?
2. Dirlarning kelib chiqishi tarixini bilish nima uchun zarur deb o'ylaysiz?
3. Mustaqillik yillarida dinga munosabat qay darajada o'zgardi?
4. Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?
5. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun haqida nimalarni bilasiz?

Din tushunchasi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng dinga yangicha qarash va munosabat bildirish imkoniyati tug'ilди. O'zbekiston rahbariyati mustaqillikning birinchi kunlaridanoq, buyuk ajodolarimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlarni qayta tiklash asosida aniq chora-tadbirlar ko'ra boshladi.

Davlatning dinga yangicha munosabati "Inson e'tiqodsiz yashay olmaydi", degan tamoyil asosida belgilandi. Bu tamoyil hozirgi kunda "Alloh qalbimizda, yuragimizda" so'zlarida o'z ifodasini topmoqda.

Dinlar kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan. Ota-bobolarimizning muqaddas e'tiqodi bo'lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma'naviyatini, merosini, o'zligini omon saqlab kelgan.



Halol-pokiza kishi doima xotirjam-u tinchlik-dadir, birovga xiyonat-u yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir.

Zamaxshariy



Men iymoni baquvvat odam deganda, avvalo, vijdonli, halol bilan haromning farqiga boradigan, birovning haqidan hazar qiladigan, birovga nohaq ozor bermaydigan insonlarni ko'z oldimga keltiraman.

Islom KARIMOV



Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan denga e'tiqod qilish yoki hech qaysi denga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, 31-modda

Din-arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida ishonch, e'tiqod qilish ma'nolarini anglatadi.

Dunyo xaritasida mavjud mamlakat borki, unda yashovchi xalqlarning o'z dini, urf-odatlari va an'analari mavjud. Dunyo xalqlari tarixini o'rganishda ularning diniy qarashlari, e'tiqodi va diniy amaliyotlarini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Dunyo dinlari tarixini o'rganishdan maqsad – urug'-qabila, milliy va jahon dinlari insoniyat tamaddunining ajralmas qismi ekanligini tushunish, dinding ezgu mohiyatini anglash, shu bilan birga, mustaqillik yillarda yurtimizda diniy qadriyatlarni tiklash, diniy bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish va bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumotga ega bo'lishdan iborat.

Dinding nima ekanligi haqida jamiyatda yagona fikr mavjud emas. Dunyoviy ilm olimlari dinni ijtimoiy ong shakllaridan biri deb hisoblaydilar. Din vakillari esa, muayyan diniy ta'limotga asoslangan holda, "Din – bu, insonlar orasida joriy etilishi zarur bo'lgan Xudoning qonunlaridir", degan ta'rifni beradilar.

Din – xalq tili, qadimiy madaniyati, an'ana, odatlari bilan barobar turadigan bebafo qadriyat. U xalqlarning dunyoqarashi va tafakkuriga bevosita ta'sir etib kelgan. Shuning uchun ham u o'zlikni anglash omili va milliy g'oya asoslaridan birdir. Chunki, jahon dinlari ta'limotida insonparvarlikka xizmat qiluvchi umumiylar qarashlar va g'oyalar ko'p.

Din ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatları orqali namoyon bo'ladi.



Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksakideallari, haq vahaqiqat, insof va adolatto'g'risidagiorzu-amonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Islom KARIMOV

Din nima?

U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli bo'lib, insoniyatning ilk tarixidan to hozirgacha bo'lgan davrning ilohiy tasavvurda aks etishidir.

Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli qudratga ega ma'naviy-axloqiy kuch.

Din – bu, ishonish tuyg'uusidir. Bu tuyg'u insoniyatning eng teran va go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridan birdir.

Dunyoda dini, ishonchi bo'Imagan xalq yo'q. Xalq dinsiz, e'tiqodsiz, ishonchsiz yashay olmaydi. Chunki, dinlardagi barcha qarashlar ezgulikka yo'nalgan. Umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan xuddi shu jihat dinding ma'rifiy mohiyatini tashkil etadi hamda inson shaxsini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Demak, "Dunyo dinlari tarixi" fanining amaliy ahamiyati insonlarda dunyo dinlari qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ularni qadrlash, turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarga yaxshi munosabatda bo'lish xislatlarini tarbiyalashdan iborat.

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jumlanı o'qing va uning mazmun-mohiyatini kengroq tu-shuntirishga harakat qiling:

Markaziy Osiyo ming yillar davomida g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlardar, turmush tarzlari tutashgan va xalqlari tinch-totuv yashagan markaz bo'lib kelgan.

Garchi Xitoyda bo'lsa ham, ilmga intilinglar, Chunki ilm talab qilishga intilish har bir musulmon uchun farzdir.

Hadis



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Din deganda nimani tushundingiz?
2. Komil insonni tarbiyalashda dinding o'rni qanday?
3. Din va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
4. "Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lib kelgan". Mazkur jumлага o'z munosabatingizni bildiring.
5. "...yaxshi iz qoldirish" degan jumlanı kelgusida tanlaydigan kasbingiz bilan aloqasi bormi? Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Jamiyat bilan din o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
2. Din va insonparvarlik o‘rtasida qanday mushtaraklik bor?
3. Jamiyatda din qanday vazifalarni bajaradi?
4. Quyidagi matnni o‘qing va fikringizni uchinchi savol bilan bog‘lang.

Anvarning endigina tili chiqa boshlagan edi. Bobosi u bilan ko‘rishganida so‘zini “Assalomu alaykum” deb boshlar edi. Katta nabirasining “Anvar hali kichkina bo‘lsa, nima uchun unga siz avval salom berayapsiz?” degan savoliga “Senga ham salom berishni shunday o‘rgatganman”, deb javob berdi.

Dinning jamiyatdagi vazifalari

Islom ta’limotiga ko‘ra, insonlarni yagona Alloh tuproqdan yaratgan.

Hinduiylik ta’limotiga ko‘ra esa, odamlar xudo Braxmaning turli tana a’zolaridan yaratilgan.

Qadimgi yunon dinlari ta’limotiga ko‘ra, avval yer yuzida ma’budlar yashagan, keyin esa, ularga xizmatkorlar sifatida odamlar yaratilgan.

 Din davlatdan ajratilgani bilan jamiyatdan ajratilgan emas.

Islom KARIMOV

Din jamiyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u odamlarda ishonch, ertangi kunga umid hissini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Dinlarning kishilik jamiyatida bajaradigan o‘ziga xos vazifalari mavjud. Avvalo, din kishilarda **dunyoqarashni shakllantirish** vazifasini bajaradi. U dunyoning qanday paydo bo‘lganini, insonning yashashdan maqsadini ilohiy tarzda tushuntirib beradi.

Har bir din o‘ziga e’tiqod qiluvchilar uchun **tasalli beruvchilik** vazifasini bajaradi.

Inson bolasi boshiga biron kulfat, qiyinchilik tushganida o‘ziga dindan ovutuvchi, ko‘ngliga taskin beruvchi, yupatuvchi kuch topgan. Masalan, bir oilada kimdir vafot etganida ta’ziyaga kelganlar marhumning yaqinlariga qarata: “Bu xudoning irodasi. O‘lim haq. O‘lganning joyi jannatda bo‘lsin, qolganlar omon bo‘lsin”, deb taskin bergenini eshitgansiz.

Din **birlashtirish** vazifasini bajarib, insonlar orasida hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir din e’tiqod qiluvchilarini o‘z qoidalariiga amal qilishga chaqiradi. Ularni bu qoidalarga sodiqlikka undaydi. Shu yo‘l bilan insonlarni birlashtiradi.

Din o‘ziga e’tiqod qiluvchilarning turmushini tartibga solib **boshqarish** vazifasini ham bajaradi.

Dinda **kommunikativlik** vazifasi ham bo‘lib, u diniy urf-odat, marosim va bayramlarni birgalikda o‘tkazishga, qarindoshlik, birodarlik, dindoshlik aloqalarini mustahkamlashga chaqiradi.

 Insonning odobga ega bo‘lishi oltunga ega bo‘lishidan ko‘ra xayrlidir.

Xalq hikmati



Insoniyat murakkab taraqqiyot jarayonni boshidan kechirayotgan hozirgi davrda dinning turli xalqlar o‘rtasida muloqot o‘rnatish, ularni ma’naviy va ruhiy jihatdan yaqinlashtirish, zulm va zo‘ravonlikka qarshi birgalikda kurashga da’vat etish borasidagi ahamiyati begiyosdir.

Islom KARIMOV

Din axloq normalarini tartibga soladi hamda halol va harom, savob va gunoh nima ekanligini belgilab beradi.

Din inson hayotining ezgulik mohiyatini ochadi. Bu uning insonlarni **ruhiy-ma’naviy tarbiyalash** vazifasida aks etadi. Jumladan, dinlar odob-axloq qoidalarini, ijtimoiy odoblarni belgilab, insonlarning ma’naviy kamolotga yetishiga yordam beradi.

Din madaniyat rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Bundan tashqari, u umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga yetkazish borasida ham muhim ahamiyatga egadir.

O‘rta asrlarda dinning jamiyatdagi o‘rni


Din insoniyatning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, hayotda doimo u bilan birga bo‘lib kelgan.

Kishilik jamiyatining turli tarixiy davrlarida din faqat e’tiqod manbai sifatidagina emas, balki muayyan tabaqalarning boshqa insonlarga ta’sir etish hamda ularning dunyoga munosabati va turmush tarzini boshqarishga xizmat qiluvchi mafkuraviy vosita vazifasini ham o‘tab kelgan.

Misol uchun, o‘rta asrlarda Rim katolik cherkovi istalgan odamni yoki viloyatni va hatto butun bir davlatni dinsiz, deb e’lon qila olgan.

Ijodiy faoliyat
Quyidagi matnni o‘qing.
Ulardan dinning qanday vazifalarni amalga oshirayotganini aniqlang:

- yahudiylidka ushbu din vakillari bir mafkura atrofida yagona millat va maslak egalari bo‘lib, yakka xudo Yahvening sevimli bandalari ekanligi uqtiriladi;
- xristianlikda diniyeme’moriy, tasviriy, musiqa san’atidan foydalаниlib, ikona chizuvchilar maktablari faoliyat olib boradi.



Xalq hikmati

Kishi uchun eng foydali va dilni yorishuvchi narsa qanoatdir.

Masalan, Rim cherkovi tomonidan tashkil etilgan inkvizitsiya sudi, o‘rtta asrlarda, go‘yoki cherkov aqidalariga qarshi fikr bildirgan olimlarni ta’qib etgan yoki ularni gulganda yoqqan. Natijada, din ilm-fan va taraqqiyot dushmani sifatida tasavvur qilina boshlagan.

Bugungi kunda ham ba’zi kuchlar dinning jamiyatdagi vazifalaridan g‘araz maqsadlarda foydalanishlari natijasida millionlab kishilar dinsizlikda ayblanib, qoni to‘kilmoxda. Turli diniy shiorlarning noto‘g‘ri talqin qilinishidan ham begunoh insonlar jabr chekmoqda.

Aslida barcha dinlar ezzulikni targ‘ib qiladi. Din va ilm-fan bir-birini to‘ldirib turadi.

Tarixga nazar

Janubiy Iroq, Suriya va Yaman, IX asr. Islom nomidan harakat qilgan “qarmatiylar” diniy ekstremistik guruhi 899-yilda Bahraynni bosib olganlar. 930-yilda haj mavsumida Makkaga hujum qilib, Ka‘bani talon-taroj qilganlar. Hajga borganlarni o‘ldirib, bir qismini qul qilganlar.

Angliya, 1534-yil. Genrix VIII qirol hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun Rim Papasi hokimiyatini inkor etdi. Katolik cherkovining boyliklarini tortib oldi. Protestantlik ta’limotiga amal qiluvchi cherkov Anglikan cherkovi deb ataldi. Genrix VIII vafotidan keyin uning qizi Mariyaning qirolichalik davrida (1553-1558-yillar) protestantlik shakkoklik deb e’lon qilindi. Protestantlar olovda yondirildi.

Fransiya, 1562-yil. Gersog Fransua Giz o‘zining ko‘p sonli qo‘riqchilari bilan ibodat qilayotgan protestantlarga hujum qildi. Ko‘plab qotilliklar sodir bo‘ldi. Tarixda “Vorfolomey kechasi” nomi bilan esda qolgan mazkur kechada 6 ming protestant (go‘daklar, bolalar, ayollar, qariyalar) qatl qilindi. Bu voqeя Fransiyada 36 yil davom etgan diniy urushning boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Ijodiy faoliyat




Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari asosida bajaring:

1. Din va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik yuzasidan fikr bildiring.
2. Oliyjanob fazilatlar deganda nimani tushunasiz? Fikringizni asoslang.
3. Odamzotning ma’naviy boyligini belgilab beradigan qanday asosiy mezonlarni bilasiz?



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun jamiyatni dindan ajratib bo‘lmaydi?
2. “Din kishilarda avvalo dunyoqarashni shakllantirish vazifasini bajaradi”, degan iboraning mazmunini izohlab bering.
3. Dirlarning o‘z qavmlariga tasallи beruvchilik va ularni birlashtiruvchilik vazifalarining mazmun-mohiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. N.Kopernik, J.Bruno va G.Galileylar nima uchun cherkov tomonidan ta’qib qilinganlar?
5. Quyidagi rasmlarga qarab dinning madaniyat va san’at rivojiga ko‘rsatgan ta’sirini tushuntirishga harakat qiling.
6. “Tarixga nazar” rukni ostida berilgan matnni o‘qing. Jamiyatdagi keskinlashuvning sabablarini tushuntirishga harakat qiling.





Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

- Bugungi kunda hayotimizda uchraydigan tumor, ko‘zmunchoq, taqa kabi jonsiz buyumlarni muqaddaslashtirish qachondan boshlangan?
- Urug‘, qabilalar hayoti aks ettirilgan badiiy filmlarda qabilalarning turli marosimlari ko‘rsatilgan sahnalarini eslab ko‘ring. Ular nima uchun o‘zlarini ayiq, timsoh yoki biror boshqa hayvonga qarindosh deb, shu hayvonni muqaddas hisoblaydilar?
- Ba’zilar “omad keltiradi” deb kalit, tosh, biror buyumni, “boylik keltiradi” deb, tanga tishlagan qurbaqalar, bo‘rining yoki ayiqning tishi kabi narsalarni olib yurishadi. Bu odatlarning paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘lgan?

Dinning paydo bo‘lishi haqidagi ta’limotlar

“Inson qachondan beri Xudoga ishonib keladi?”, “Din qachon paydo bo‘lgan?” kabi savollar doimo olimlarni qiziqtirib, o‘ylantirib kelgan. Mazkur izlanishlar necha asrlardan beri davom etib kelayotgan bo‘lsa-da, hanuz bu borada aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Umumiy ma’noda, bugungi kunda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud.

Birinchi qarash asosida diniy ta’limot yotadi. Unga ko‘ra, dinning paydo bo‘lishi bevosita insoniyatning yaratilishi bilan bog‘liq. Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga O‘zini tanitdi, natijada inson dinga e’tiqod qila boshladi. Vaqt o‘tishi bilan xudo insonlarga o‘z elchilarini – payg‘ambarlarini va ular orqali muqaddas kitoblarni yubordi, deb talqin qilinadi.

Ikkinci qarash tarafdarlari fikricha, dinlar soddadan – murakkabga, umumiylidan – xususiylikka, ko‘pxudolikdan – yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolutsion jarayonni bosib o‘tgani. Mazkur qarash tarafdarlari dinlarning yuzaga kelishi va shakllanishi natijasida animizm, totemizm, fetishizm, sehrgarlik va shamanizm kabi bosqichlarda yuzaga kelganini ta’kidlaydi.

Tarix fanidan olgan bilimingizga tayanib, dastlabki diniy tasavvurlar qaysi davrda paydo bo‘lganligini eslang.

Vaqt ildamlagani
sayin buyumlarning
mohiyati ham o‘zgarib
boradi.

Lukretskiy Tit Kar

Diniy tasavvurlarning dastlabki shakllari

Animizm dunyoni ruhlar boshqarishiga, tabiat kuchlarining jonliligiga ishonch va ularni ilohiylashtirish, hayvonot, o‘simglik va jonsiz jismlarda ruh, ong va g‘ayritabiyy qudrat bor, deb tasavvur etishdir. Animizm zamonaviy dinlarning asosiy aqidaviy qismini tashkil etadi. Jumladan, dunyo dinlarining deyarli barchasida ruhlar haqidagi ta’limot mavjud.

Tabiat hodisalari, osmon jismlari, tog‘lar, daryolar, adir va o‘rmon kabilarning joni borligiga ishonish animizmning mazmunini tashkil etadi.

Totemizmning mohiyati “Odamlarning hayvonot yoki o‘simglikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor”, deb e’tiqod qilishdir. Bu qarash tarafdarlariga ko‘ra, totemlar va odamlar orasidagi aloqalar uzoq o‘tmishga tegishli bo‘lib, uni qadimgi rivoyatlar tasdiqlaydi. Masalan, Avstraliya aborigenlari orasida kengurularning muqaddasligi, qadimgi turkiylar orasida kulrang bo‘ri, qirg‘izlarda shoxdor bug‘u, rimliklarda bo‘ri bilan qarindoshlik mavjudligi haqidagi tasavvurlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Fetishizmning mohiyati – tabiatdagi jonsiz jismlarga sig‘inishdir. Unga ko‘ra, alohida buyumlarda kishini o‘z maqsadiga erishtirish, ma’lum voqe-a-hodisalarni o‘zgartirish qudrati mavjud. Fetishizm yog‘och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo‘lishi bilan bir paytda shakllangan.

Fetishizmning unsurlari – haykallar, suratlar, tumor, ko‘zmunchoq va turli ramzlarni ilohiylashtirish hozirgi davrda ham ayrim xalqlarning urf-odat va e’tiqodida saqlanib qolgan.

Shamanizm animizm, totemizm va fetishizm natijasida yuzaga kelib, u orqali kishilar o‘z totemlari, otabobolarining ruhlari bilan xayolan bog‘lanishni amalga oshirib kelganlar. O‘tmishda ko‘proq ayollar shamanlik bilan shug‘ullanganlar. Shaman marosim oxirida bir



Bir-birlarining mayda-chuyda kamchiliklarini kechira olgan kishilargina chinakam do’stlik iplari bilan bog‘lana oladilar.

V.Voronsov

Anima lotin tilida – “ruh”, “jon” ma’nolarini anglatadi.

Totem so‘zi – Shimoliy Amerikaning Ojibva qabilasi tilida “uning urug‘i” ma’nosini anglatadi.

Fetish so‘zi fransuzcha fetishe – but, sanam, tumor ma’nosidagi so‘zni anglatadi.

Shaman so‘zi tungus-manchjur tilidagi “sa” – bilmoq fe’li bilan bog‘liq, “Shaman” – biluvchi kishi.



Sabrning avvali achchiq, oxiri esa shirin.

Xalq hikmati

Sehrgarlik – magiya, afsun degan ma`noni bildiradi.



holatga kelib hech narsani eshitmay, ko`rmay qolar edi. Shuning uchun uning ruhlari dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi, deb hisoblanardi. Shamanizmning vujudga kelishi bilan diniy tasavvurlar taraqqiyoti tarixida birinchi marta insonlar insonga sig`ina boshladilar.

Sehrgarlik – odam, hayvon va tabiatga g`ayritabiyy yo`l bilan ta`sir o`tkazish maqsadida bajariladigan marosimlar majmuasidir. Afsungarlik bilan maxsus kishilar – shamanlar shug`ullaniganlar. Sehrgarlik zamonaviy dinlarda va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

Insoniyatning qadimiy hayat tarzi, qiyinchiliklari, muammolari, orzu-istiklari mifologik obrazlar va afsonalarda o`z aksini topgan. Mavjud voqelik insonning ijodi bilan birga uning hayat tarzi, diniy qarashlari, urf-odatlariga ham ta`sir ko`rsatgan.

Dehqonchilikning ehtiyojlari – hosilni uzoq vaqt sabrsizlik bilan kutish, aniq vaqtini hisoblash muhimligi, yil fasllarining sikllarini bilish – bularning hammasi dehqon qabilalarining osmon-u yerga, quyosh-u oyga, yomg`ir-u shamolga qiziqishi paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Xudolar uchun ibodatxonalar tashkil etilib, ularga maxsus mutaxassis xizmatkorlar – kelajakdagи kohinlar xizmat qilgan. Ba`zi xudolarning ko`rinishi hayvon, qush, baliqlarning boshi yoki tanasi shaklida bo`lgan.

Fetishizmning xarakteri o`zgarib, ilohlarning butlari ibodatxonalar yoniga o`rnatilgan yirik haykallar shakliga aylandi. Mazkur haykal va qurilmalar ibodatxonalarining ramzi bo`lib qoldi. Afsun ham o`zgarib, afsungarlar endi

Ijodiy faoliyat

- 1) 1, 2, 3, 4-rasmda qanday umumiylilik bor?
- 2) Har bir rasm qanday diniy tasavvurlar bilan bog`liq?
- 3) Ulardan qaysilari bugungi kunda ham mavjud?

ilohlar bilan aloqa marosimlari, diniy marosimlar, ibodat va qurbanlik qilish tartiblari yuzaga keldi. Fol ochish va bashorat qilish kabi yangiliklar vujudga keldi.

Milliy va jahon dinlari

Muayyan millat va elat doirasidagina tarqalib, boshqa xalqlarni qabul qilmaydigan dinlar “**milliy dinlar**” deb ataladi. Milliy dinlarga hinduiylik (*induizm*), sintoiylik (*sintoizm*), konfutsiylik (*konfutsizm*), yahudiylilik (*iudaizm*), jayniylik (*jaynizm*), sikxiylik (*sikxizm*) kabi dinlar kiradi.

Millati, tili, irqi, tug`ilgan joyidan qat`i nazar turli millat vakillari e`tiqod qilishlari mumkin bo`lgan dinlar “**jahon dinlari**” deb ataladi.

Buddaviylik, xristianlik va islom jahon dinlaridir. Barcha ilmiy adabiyotlarda dinning paydo bo`lishi borasida bildirilgan fikrlar ilmiy gepotezalardan iborat. Diniy manbalardagi ta`limotlarni qabul qilish yoki qilmaslik har bir insonning diniy e`tiqodiga bog`liq.

Hozir dunyoda 200 dan ortiq davlat bo`lib, ularda 6 mlrd.dan ortiq aholi yashamoqda. Ular turli tillarda so`zlashadilar. Ayni paytda, turli dinlarga e`tiqod qiladilar.



Xulq-atvori buzuq odamdan hatto o`z oilasi ham bezadi.

Xalq hikmati

Urug`-qabila dinlari:

- animizm;
- totemizm;
- fetishizm;
- shamanizm va sehrgarlik.

Milliy dinlar:

- yahudiylilik (yahudiy millatiga xos);
- hinduilik (hindlarga xos);
- konfutsiylik (xitoy millatiga xos);
- sintoiylik (yaponlarga xos) va boshqalar.

Jahon dinlari:

- buddaviylik;
- xristianlik;
- islom.

Ijodiy faoliyat

- 1) 1, 2, 3-rasmda qanday umumiylilik bor?
- 2) 4, 5-rasmlarning umumiylilik va o‘ziga xos tomonlarini aniqlang. Ularni nima birlashtirib turadi?
- 3) rasmlardan jahon dinlari va milliy dinlarga aloqadorlarini ajrating.



4. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Dinlar	Jahon dinlari	Milliy dinlar	Urug‘-qabila dinlari
Buddaviylik			
Xristianlik			
Islom			
Yahudiylik			
Sintoiylik			
Fetishizm			
Animizm			
Totemizm			
Shamanizm			



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Urug‘-qabila dinlarining qanday shakllarini bilasiz?
2. Bugungi kunda urug‘-qabila dinlarining qanday unsurlari saqlanib qolgan?
3. Urug‘-qabila dinlarining o‘ziga xos va o‘xshashlik tomonlarini aytib bering.

Xristianlik	Buddaviy
Katolik	Hinduiy
Pravoslav	Yahudiy
Protestant	Xitoy dinlari
Islom	Sintoiy
Sunniy	Qabilaviy va xristian dinlari
Shi‘a	Aralash (qabilaviy, xristian va musulmon)

II. MARKAZIY OSIYO DINLARI

4-MAVZU

ZARDUSHTIYLIK



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Zardushtiylik qachon va qayerda paydo bo'lgan?
2. Zardushtylarning muqaddas kitobi haqida nimalarni bilasiz?
3. Zardushtiylik ta'limotining asosini nima tashkil qiladi?
4. Ota-onangiz yoki kattalardan "Suvga axlat tashlama", "Suvga tupurma", degan ta'kidlarni eshitganmisiz?
5. Nima uchun bugungi kunda daraxtlarning to'kilgan barglarini yoqish mumkin emas?

Avestoning dastlabki yozma nusxasi 12 ming qora mol terisiga bitilgan.

Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy podshoh Doro III xazinasi (Abistonning) o'n ikki ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bo'lganini ta'kidlagan.



Urganch shahrida Avestoga qo'yilgan yodgorlik.

Ashoga Spitama zardushtiylik dinining asoschisi

Zardushtiylik dinining asoschisi Ashoga Spitama Zaratushra (yunoncha – Zoroastr – "boqiy yulduz" va "sariq tuyu sohibi") hisoblanadi.

Mazkur din ajdodlarimizning qadimiy e'tiqodi bo'lib miloddan avvalgi 1-ming yilliklarda qadimiy Xorazmda paydo bo'lgan. Zardushtiylar e'tiqodiga ko'ra, bu nom unga xudo Axura-Mazda (Donishmandlik sohibi) tomonidan berilgan.

Zardushtiylikning muqaddas manbasi Avesto (Qat'iy o'rnatilgan qonun-qoidalar) kitobi hisoblanadi. Dastlab Avesto matnlari og'zaki ravishda saqlanib kelgan. Uning eng qadimiy qismlari birinchi ming yillik boshlariga oid bo'lib, keyingi asrlarda uning tarkibi turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar bilan to'ldirilib borilgan. Milodiy III asrda qonunlardan iborat Avestoning sharhi "Zend" (parfiyoncha, "sharhlangan matn") yozilgan.

Avesto taxminan bundan uch ming yil muqaddam Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yashagan xalqlar orasida

shakllangan. Avesto bu qadim o'lkada buyuk davlat, ma'naviyat, madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy manbadir.

Dindorlarning kundalik faoliyati uchun Avestoning ixchamlashtirilgan shakli – "Kichik Avesto" ("Xurdak Avesto") tuzilgan.



Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, "Avesto" deb atalgan bebaaho ma'naviy obida alohida o'rinn tutadi.

Islom KARIMOV

VII asrda Eronga islomning kirib kelishi zardushtiylarni Hindistonga ko'chib o'tishga majbur qildi. Ularning avlodlari (forsiyalar) Bombey shahrida hozirgacha Avestoning bir nusxasini saqlab keladilar. Avesto – "Videvdat", "Yasna", "Visparad" va "Yasht" nomlari bilan yuritiladigan bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Zardushtiylik ta'limoti

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, bu din ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning azaliy ekaniga asoslangan din bo'lib, unda adolatli bo'lish, oqillik, yaratuvchanlik, mehnatsevarlik bilan Axura-Mazdaga sig'inish targ'ib qilingan. Avestoga ko'ra, ezgulik tarafidori Axura-Mazda oxir-oqibat yovuzlik tarafidori bo'lmish Axriman ustidan g'alaba qozonadi.

Zardushtiylikka ko'ra, ezgu amallar qilish orqali yovuzlikni eng yengish mumkin. Har bir zardushtiy hayotini ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal asosiga qurishi hamda yovuz fikr, yovuz so'z, yovuz amaldan saqlanishi zarur.

"Ezgu fikr" deyilganda:

- niyatning pokligi;
- yaqinlarga yaxshilik qilish va yordam berish;
- yovuzlikka qarshi kurash o'y-fikri bilan yashash;
- barcha bilan tinch-totuv yashashga intilish tushuniladi.



Ezgu amallar qilish orqali yovuzlikni engish mumkin.

Avesto

Abu Rayhon Beruniyning xabar berishicha, makedoniyalik Aleksandr bosqini davrida zardushtiylar ibodatxonalarini vayron qilinib, Avestoning beshdan uch qismi yo'qolib ketgan.



Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim.

Zardusht



Hozirgi vaqtida zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar soni 200 mingdan ortadi.



Axura-Mazda.

Zardushtiylikda ekin ekish yer yuzidagi yovuzlikka barham berish vositasi deb tushunilgan va shuning uchun ham yer muqaddaslashtirilgan. Yerga yaxshi, saralangan urug' sepish eng savob ish hisoblangan.

Suv va havo hayot manbayi sifatida e'zozlangan.

Tuproq, suv va havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunoh, deb belgilangan.

2001-yilda
YUNESKO tomonidan
Avestoning 2700 yilligi
nishonlandi.

Zardushtiyliar uchun har doim pok holda yurish zarur hisoblangan. Inson o'zini pok saqlashi uchun yomon o'y-xayollardan xoli bo'lishi, kasallikka, o'liklarga yaqinlashmasligi hatto ularga qaramasligi lozim. Istisno tariqasida nopol bo'lib qolgan kishi yangidan poklanishi kerak. Zardushtiylikda olov Axura-Mazdaning ramzi sanaladi. Shuning uchun ham, inson jasadini olovda yoqish va muqaddas olovni o'chirish mumkin emas. Ruhoniylarni o'ldirish eng og'ir gunohlardan hisoblanadi.

Zardushtiylik marosimlari

Zardushtiylikda marosimlar qat'iy belgilangan tartibda o'tkaziladi. Har kim amal qilishi lozim bo'lgan shart amallar bo'lgan. Masalan, zardushtiyliar bir kunda besh mahal ibodatni amalga oshiradilar.

Barcha marosimlar diniy malakaga ega erkak kishi tomonidan amalga oshirilgan. Marosim ishtirokchilar pok holda, sadre (oq rangli maxsus zardushtiylik ko'y lagi), kushti (maxsus kamar) va bosh kiyimda bo'lishlari zarur bo'lgan. Ayollar sochlari ro'mol bilan berkitishi talab etilgan. Ishtirokchilar tik turgan holda olovga yuzlanib ibodat qilganlar.

Zardushtiylikda poklanish marosimi muqaddas olov yordamida amalga oshiriladi. Zardushtiyliar ibodatxonasida (otashkade) olovning uzlusiz ravishda yonib turishini ruhoniylar ta'minlaydi. Ba'zi ibodatxonalarda bir necha yuz yillar davomida muqaddas olovlar o'chmasdan saqlangan.

Dafn marosimi va undan keyingi tadbirlar murakkab bo'lishiga qaramay, o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Dastlab kishi jasadi to'liq yuvilib, so'ng daxma (yerdan 4-5 metr balandlikda silindr shaklida bo'lgan maxsus joy)ga qo'yiladi. Ta'limotga ko'ra, o'lik yirtqich qush va hayvonlar ixtiyoriga topshiriladi. Chunki o'lim eng yomon yovuzlikdir – yer esa muqaddas. Shuning uchun, uni iflos qilish mumkin emas. Jasaddan qolgan suyaklar terib olinib, ossuariy (maxsus quticha)larga

solinib, maxsus nausga qo'yiladi.

Hozirgi vaqtida zardushtiylarning jebr (Eron) va fors (Hindiston) jamoalari saqlanib qolgan. Bundan tashqari, Avstraliya, Yevropa, Shimoliy va Lotin Amerikasi, Rossiya Federatsiyasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining ayrim hududlarida ham zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi jamoalar mavjud.

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jumlanli o'qing hamda miloddan avvalgi 1-ming yillikda mamlakatimiz hududida istiqomat qilgan xalqlarning madaniyati va ma'naviyati qanday bo'lganligi haqida mushohada yuriting.

Zardushtiylarda bola tarbiyasi quyidagi uch yo'nalishda amalga oshirilgan:

- 1) diniy va axloqiy tarbiya;
- 2) jismoniy tarbiya;
- 3) o'qish va yozishga o'rgatish.



"Avesto"da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgani ko'p narsani anglatadi. Bu holat insонning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga yana bir bor e'tiborimizni jalb qiladi.




Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Zardushtiylik dinining mohiyatini nima tashkil etadi?
2. Zardushtiylik manbasi Avesto o'l kamiz tarixini o'rganishda qanday ahamiyatga ega?
3. Zardushtiylik ta'limotida atrof-muhitga munosabat masalasi qanday hal etilgan? tabiatni toza saqlash nima uchun kerak? Bu qoidaning bugungi kundagi ahamiyatiga haqidagi fikrlaringizni bayon eting?
4. Yer yuzidagi yovuzlikka barham berish uchun nima qilish kerak degan savolga zardushtiyliar qanday javob berganlar?



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Tangrichilik qayerda va qachon paydo bo'lganligini bilasizmi?
2. Ba'zi viloyatlarda hozirgi kunda ham bo'riming tishi, tirnog'ini "ko'z tegishdan asraydi", "omad, boylik keltiradi", deb tumor qilib bo'ynilariga osib yurishadi. Bu udum nimani anglatgan deb o'ylaysiz?
3. Kattalardan "Yo, Tangrim!", "Tangrim o'zing asral!" degan iborani eshitganimisiz? Bu iborani qanday tushunasiz?



Tangrichilik eng qadimgi dinlardan biri

Tangrichilik – osmon xodosi “Tangri” (Tangrixon) ga e'tiqod qilgan qadimiy turkiy xalqlarning dinidir. U miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri va 1-ming yillikda vujudga kelgan.

Tarixchilar tangrichilik eng qadimgi dinlardan biri ekanini ta'kidlaydilar. Olimlar oliv osmon xodosi shumerlarda – “Tengir” (koinot, dengiz), qadimgi xitoyliklarda – “Tyan” (Shanyuy, Tanyi, Tanjiu) nomlari bilan mavjud bo'lgan, deb hisoblaydilar. Shunga asoslanib, ularda aynan bir xudo – Tangri nazarda tutilgan, deb e'tirof etadilar.

Tangrichilik Kushon podshosi Kanishka tomonidan buddaviylik davlat dini sifatida qabul qilingunga qadar, mustaqil aqidaga ega din sifatida shakllangan.

Diniy qarashlarning sodda va tushunarli bo'lgani, marosimlarning qat'iy bajarilgani ularning ming yillar davomida avloddan avlodga o'tib kelishini ta'minlagan. Ba'zi olimlar tangrichilikda “Olqish” (Qo'shiqlar to'plami) deb ataluvchi yozma manba bo'lganini va unda tangrichilik aqidasi, marosimlari va ibodat qilish tartiblari bayon etilganini ta'kidlaydilar.

Milodiy IV-V asrlarga oid O'rxun-Enasoy yodgorliklari bitiklarida Tangri yagona, azaliy, abadiy, hayot beruvchi,




Tangrichilik ta'limotiga ko'ra, Tangri – bu Moviy Osmon, Buyuk Osmon sohibi. Uning doimiy makoni osmondir.



Tangrichilik marosimlarini o'tkazuvchi shaman.

yaratuvchi, o'ldiruvchi, hukm qiluvchi, yordam beruvchi, jazolovchi, bandaning duosini qabul qiluvchi, himoya qiluvchi, marhamatiga oluvchi, hamma narsani biluvchi, insonlarga ilm beruvchi va yo'l ko'rsatuvchi sifatlar bilan maqtalgan. Bundan tashqari, ularda xoqonlarni taxtga chiqargan va mustaqil davlat tuzishlariga yordam bergan ham Tangri ekani qayd etilgan.

Turk xoqonligining mafkuraviy asosi shamanlik – ajdodlarga, Osmonga (Tangri) va yer-suvga sig'inish bo'lib, ular davlat ramzları hisoblangan. Shuningdek, jangchilarning va bolalarning homisi – Umay ma'budasiga sig'inish ham keng tarqalgan.



O'rxun-Enasoy bitiklari.

Xoqonlik o'z davlat mafkurasiga ko'ra, “el” deb atalib, qadimgi tarixda u bilan bog'liq “mangu el”, “Tangri (ilohiy) el”, “turk eli” kabi iboralar shakllangan. El va xoqon hokimiyatning Tangri tomonidan Ashina xonadoniga “Turk budun (xalqi)”ga in'om qilinganiga ishonilgan. Qadimgi turk jamiyati dunyoning biror boshqa siyosiy uyushmasi hukmdoriga “xudo-qirol” sifatida qaralmagan, chunki bunday siyosiy iqtidor (ne'mat) Tangri tomonidan faqat Ashina xonadoniga in'om etilgan, degan tasavvur Ashina turklari tasavvurida hukmron edi. Shu bois, Ashina xonadoni hokimiyatilohiylashtirilgan. Agar Tangri bergen siyosiy hokimiyat ishonchni oqlamasra, ya'ni o'z iqtidorini ko'rsata olmasa, unday hukmdor hokimiyatdan uzoqlashtirilib, “Tangri bergen siyosiy hokimiyat yana Tangri tomonidan qaytarib olinadi”, deb tushunilgan.

Milodiy IV-V asrlarga oid O'rxun-Enasoy yodgorliklari bitiklari turkiy xalqlarning Tangriga e'tiqod qilganliklari haqida ma'lumot beradi.

Qadimiy turkiylarda bo'ri totemi mavjud bo'lib, uni "Bo'zkurt" (kulrang bo'ri) deb atashgan. Uning moviy yungi osmonni anglatgan. Bo'zkurt turkiy xalqlarning abadiylik timsoli hisoblangan.



Tangrichilikning belgisi – to'rt qirrali "Adji".

Tangrichilikda diniy ramz to'rt tomoni teng bo'lgan salb – "adji" hisoblangan. Shundan kelib chiqib, turkiylar uni peshonalariga qizil rangda chizib yurganlar.

Qadimgi turkiylar e'tiqodiga ko'ra, butun borliq ustidan yagona hukmdor Tangrixon o'ziga bir qator ko'makchi ma'budlarni ham yaratgan. Jumladan, ular Umay (Jumay, ona ma'buda), Erlig (ota ma'bud), Yer, Suv, Olov, Quyosh, Oy, Yulduzlar, Havo, Bulut, Shamol, To'fon, Momoqaldiroq, Chaqmoq, Yomg'ir, Kamalak ma'budlari edi. Tangrixon yer va boshqa ruhlar (Yurt egasi, Suv onasi) bilan yer osti olami ishlarini hal qilib, barcha jonzotlarning umrini belgilagan. Yerdagi hayotning sababchisi – ayol qiyofasidagi, Umay deb ataluvchi ma'buda "hayot onasi", deb e'zozlangan. Bundan tashqari, Umay – xonodon o'chog'i, farzandlar, homilador ayollarning homysi, turkiy xalqlarda esa, hosildorlik ma'budasi sifatida ham e'zozlangan (masalan, Ona Yer, Ona Tuproq, Ona Vatan kabi).

Erkak jinsidagi Erlig o'lim sababchisi bo'lib, uning makoni yer osti olami hisoblangan. Uni yer osti dunyosini boshqaradigan, insonlarga o'lim xabarini yetkazib ularning jonini oladigan iloh sifatida ham bilganlar. Inson boshqa mavjudotlardan farqlanib turishi uchun Tangri unga ruhiy kuch bo'lgan "qut" (quvvat) va "sur" (ruh)ni ato etganligiga ishonilgan.

Agar inson tabiatga zarar yetkazsa, unda tabiat ruhlarining roziligiga erishishi uchun qurbanlik keltirishi zarur bo'lgan. Qurbanliklar ulkan tog'lar yoki daryolar oldida ommaviy ravishda o'tkazilgan.

Bu dinda ma'buldar daraxtlar orqali oziqlanadi, deb e'tiqod qilingani sababli, qurbanlik qonlari daraxtlar ostiga quyilgan. Odamlar tabiat ruhlarini o'zlariga hamkor sifatida qarashgan. Ularni qarindosh yoki ajdodlar ruhlari deb bilishgan.

Ularning e'tiqodiga ko'ra, barcha yovuz ruhlarning makoni ko'zga ko'rinnmaydigan yer osti olamidir. Unga qudratlari Erlig boschchilik qiladi. Shuningdek, yerosti olamida yer usti olamidan farqli ravishda barcha chegaralar

Tangrichilik ta'limoti

ko'rini turadi va boshqa hududlarga o'tish o'ziga xos eshiklar yordamida amalga oshadi. Yerosti va suv olami tirik jonzotlari Erlig tasarrufiga kiradi. Inson vafotidan keyin ko'milgach, uning jismi eng quyi qatlamga tushib boradi, deb ishonganlar.

Qadimiy turkiylar mutlaq o'limga ishonishmagan. Hayot ma'lum doira ichida butun fazo bo'ylab aylanib yuradi, deb e'tiqod qilishgan. Shundan kelib chiqib, ular insonning jismoniy o'limidan qo'rqishmagan va uni hayotning tabiiy davom etishi, deb qarashgan. Ular o'limni bir hayotdan ikkinchi hayotga o'tish deb ishonganliklari uchun, jasad kiyim-kechagi va kundalik zarur bo'ladigan ashylar bilan birgalikda dafn etilgan.

Qovunchi madaniyati moddiy va ma'naviy dunyosiga qaraganda, turkiy etnik jamoalariga xos Tangri xudosi, totemizm va uning ot, qo'chqorni ilohiylashtirish, sehrjoduga ishonish kabi jihatlari omma orasida davom etgan.

Qadimiy turkiylar jang maydonida qahramonlik qilgan ajdodlar ruhiga alohida e'tibor qaratganlar. Ajdodlar ruhiga sig'inish turkiylarda o'zidan oldingi yetti ota-bobosi faoliyatini yaxshi bilish an'anasi shakllantirgan. Ayni paytda, qadimiy turkiylarning

Tangrichilikda draxtlarga turli matolarni bog'lash orqali yer va osmon bog'lanadi, deb e'tiqod qilingan.



Bugungi kunda ham draxtlarga turli matolarni bog'lash odati mavjud.


Ijodiy faoliyat

Matnni o'qing: Qabrdan topilgan buyumlarga asoslanib, Qovunchi madaniyatining xronologik jihatdan qaysi tarixiy davrga tegishlilagini aniqlang.

Qovunchi davri qabristonlari asosan, tuproq qo'rg'onlar va ustiga tosh uyulgan katakomba qabrlardan iborat bo'lib, ularning qabr kameralari ham gumbazli, keng va yer sathidan ancha chuqurlikda joylashgan. Har bir katakomba lahadida 2-3 va undan ortiq chalqanchasiga yotqizilgan skeletlar uchraydi. Skeletlar bosh va oyoq tomonida sopol idishlar; erkaklarning qo'l yaqini va bel qismida temirdan ishlangan mehnat va harbiy qurollar; orqa tomonda esa, uch parrakli va bigizsimon quyma asosli temir paykonlar uchraydi. Ayol skeletlarining oyoq-qo'l suyaklarida, ko'krak qafasi bo'shilig'ida turli xil tosh va metall taqinchoqlar uchraydi.



dunyoqarashida borliqning cheksizligi, hayotning doimiy harakat va muntazam yangilanishda ekanı haqidagi tasavvurlar muhim o‘rin egallagan. Shuningdek, inson tiriklik chog‘ida barcha diniy marosimlarni to‘la ado etishi lozim, aks holda, ular yovuz ruhlar qatoridan joy oladi, degan ta’limotga qattiq ishonganlar.



Dunyo tuzilishining tangrichilikdagi tasavvuri.



Ho‘kiz bosli “Erlig” va quyosh bosli “Umay”.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tangrichilik dini haqida qaysi manbalarda ma’lumot berilgan?
2. Tangrichilikdagi Xudolar haqida ma’lumot bering.
3. Tangrichilik dinida qaysi hayvonlar muqaddaslashtirilgan?
4. Tangrichilikda tabiatni asrab-avaylash haqidagi qarashlarning ahamiyati nimada?

III. MILLIY DINLAR


6-MAVZU

YAHUDIYLIK



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Siz qanday milliy dinlarni bilasiz va ularning qanday o‘ziga xos xususiyatlari bor?
2. Nima uchun milliy dinlar dunyoda keng tarqalmagan?
3. Milliy dinlar orasida eng qadimiylarini bilasizmi?
4. Quyidagi rasmlar haqida nimalarni bilasiz?



Yahudiylik tarixi

Milliy dinlarning o‘ziga xos xususiyati – ularga faqat muayyan millat va elat vakillarining e’tiqod qilishlaridir. Bu dinlar ko‘proq milliy xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Ulardan biri yahudiylik dinidir.

Yahudiylik dunyodagi eng qadimiy milliy dinlardan biri bo‘lib, u taxminan miloddan avvalgi 2-ming yillikda Yaqin Sharqda paydo bo‘lgan.

Birinchi bor yahudiy xalqini birlashtirib, Isroil – Yahudiya davlatini barpo qilgan shaxs – Dovud (miloddan avvalgi 1004–965-yy.) edi. Yahudiylar yagona xudo Yahvega sig‘inganlar. Miloddan avvalgi X asrdan boshlab yahudiylik davlat diniga aylangan. Yahudiy davlati podshosi Sulaymon miloddan avvalgi X asrda hashamatli Yahve ibodatxonasini qurdirgan.

Ushbu din ta’limotiga ko‘ra, Xudo 400 yil davomida Misrda qullikda saqlanib kelgan Isroil avlodlarini ozod qilishni Muso (Moshe) payg‘ambarga yuklagan. Muso ularni Misr yerlaridan olib chiqib ketgan.



Sinay tog‘i.

Geografiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, Sinay tog‘ining geografik joylashgan hududini aniqlang.

 Hozirda dunyo bo‘yicha taxminan 15-20 million kishi yahudiylikka e’tiqod qiladi. Ular Isroilda, AQShda, Yevropa va Osiyoning qator mamlakatlarida yashaydilar.



**“Yig‘i devori” - Podshoh
Sulaymon qurdirgan
ibodatxonaning saqlanib
qolgan qismi.**



Yahudiylar e’tiqodiga ko‘ra, mazkur belgi Dovud payg‘ambarning qalqonida aks etgan. Shu sababli ham u “Magen david” – “Dovud yulduzi” deb ataladi. Shuningdek, mazkur ramzning olti burchagi dunyoning Xudo tomonidan olti kunda yaratilgani belgisi sanaladi.

Yahudi ruhoniylari bo‘lmish ravvinlarning fikricha, olti qirrali Dovud yulduzi, insonning besh asosiy sezgi a’zosining Xudoga talpinish va itoat qilishga chaqiruvchi eng muhim oltinchi sezgiga bo‘ysunishini anglatadi.

Tanax birlamchi manba bo‘lib, u Tavrot (Tora), Payg‘ambarlar (Neviim) va Kitoblar (Xetuvim) deb ataluvchi uch bo‘limdan iborat.



Tavrot.

Talmud (ibroniycha – “organish”) “Tavrot”ning sharihi sifatida e’tirof etiladi.

Yahudiylik manbalarini va ta’limoti

Musoga Sinay tog‘ida Xudo tomonidan Tavrot kitobi nozil qilingan deb hisoblanadi.

Yahudiylar so‘zining kelib chiqishi ularning bobokalonlaridan bo‘lgan Yahudo nomidan olingen.

Tanax va Talmud yahudiylarning muqaddas manbalaridir. Tanax Xudo tomonidan Muso payg‘ambarga Tur tog‘ida taxminan mil. avv. 1571-yilda nozil qilingan, deb ta’kidlanadi.

Yahudiylar e’tiqodiga ko‘ra, mazkur belgi Dovud payg‘ambarning qalqonida aks etgan. Shu sababli ham u “Magen david” – “Dovud yulduzi” deb ataladi. Shuningdek, mazkur ramzning olti burchagi dunyoning Xudo tomonidan olti kunda yaratilgani belgisi sanaladi.

Yahudi ruhoniylari bo‘lmish ravvinlarning fikricha, olti qirrali Dovud yulduzi, insonning besh asosiy sezgi a’zosining Xudoga talpinish va itoat qilishga chaqiruvchi eng muhim oltinchi sezgiga bo‘ysunishini anglatadi.

Talmud yahudiylar uchun Tavrot kabi ahamiyatga ega bo‘lib, diniy manba sifatida tan olinadi. Talmud ovqatlanish, kiyinish, ozodalik, kun tartibi, ibodatlar, marosimlar va bayramlarga taalluqli masalalarni o‘z ichiga olgan.

Talmudda yahudiylar marosimlari tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek, unda yahudiylar butun umri davomida qat’iy amal qilishi va bajarishi lozim bo‘lgan 248 ta buyruq va 365 ta taqiq ham mavjud. Yahudiylarda diniylik va milliylik o‘zaro birlashib ketgan bo‘lib, ularni bir-biridan alohida tushunish mumkin emas. Bu dinda nasl-nasabning otaga emas, balki onaga qarab belgilanishi tartibi o‘rnatilgan.

Yahudiylarda Xudo tomonidan Musoga nozil qilingan “O’n amr”ga katta e’tibor qaratiladi. Shanba kunini muqaddas deb bilish yahudiylarda eng muhim e’tiqoddardan biridir. Bu kunda dam olish shart hisoblanadi.

Shu e’tiqodga ko‘ra, yer, ya’ni tuproq ham har yetti yilda bir marta dam olishi kerak. Yahudiylar ta’limoti asosida yakkaxudolik g‘oyasi yotadi. Diniy marosim va bayramlar yahudiylar ibodatxonasi – sinagogalarda amalga oshiriladi.

1948-yilda Isroil davlati tashkil topgach, yahudiylar davlat dini maqomiga ega bo‘ldi.



“Menora” – ibroniy tilidan olingen bo‘lib, “shamchiroq” degan ma’noni bildiradi. Menora yetti ustunli tilladan yasalgan shamchiroq bo‘lib, u Bibliyaga ko‘ra, yahudiylar cho‘lda kezib yurgan paytlarida Skiniyada, so‘ngra ikkinchi ibodatxona buzilgunga qadar Quddus ibodatxonasida saqlangan. Bundan tashqari, menoraning to‘qqiz va o‘n uch ustunlilari “hanukiya” deb nomlanishini ham zikr etib o‘tish joizdir. Mazkur timsol yahudiylarning asosiy ramzlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda menora tasviri yahudiylarning keng tarqalgan milliy va diniy ramzi sifatida e’zozlanib kelinmoqda. Ushbu timsol Isroil davlatining gerbida ham o‘z aksini topgan.

Yahudiylar Markaziy Osiyoda

Yahudiylar qadimgi dunyoda va o‘rta asrlarda dastlab Rim, keyinchalik Vizantiya imperiyasida ayovsiz siquvgaga olinib, quvg‘in qilingan. Markaziy Osiyoda esa yahudiylar boshqa dinlar qatori teng huquqqa ega bo‘lgan. Bu esa yahudiylarning Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelishiga sabab bo‘lgan.



Yig‘i devori yoki G‘arbiy devor – Quddusdagagi ibodatxona tepaligi atrofidagi tayanch devorning bir qismi (uzunligi 485 m).

U milodiy 70-yilda rimliklar tomonidan qadimiylar ibodatxonaning vayron qilinishida butun qolgan. Ibodat qiluvchilar bu devor yoniga kelib, ibodatxonaning vayron qilingani uchun unga motam tutib yig‘laydilar.

Yahudiylarning Markaziy Osiyo mintaqasida uzoq vaqt mobaynida tinch-totuv yashashi va bu yerlarga bog‘lanib qolishi ularning tarkibida “Buxoro yahudiylari” deb ataladigan qatlamni vujudga keltirdi. Buxorodagi ilk sinagoga VIII asrda qurilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda boshqa diniy konfessiyalar qatorida yahudiylar jamoasi ham ro‘yxatdan o‘tgan. Yahudiylar, asosan, Buxoro, Samarqand va Toshkent kabi yirik shaharlarda istiqomat qiladilar.



Buxorodagi sinagoga.

Mamlakatimizda Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan 8 ta yahudiy sinagogasi, 5 ta yahudiy milliy-madaniy markazi, shuningdek, Yahudiylar tarixi muzeyi faoliyat olib bormoqda.

2016-yilgi ma'lumot

Ijodiy faoliyat

Quyidagi matnni o'qing.

1. Mazkur qoidalarning jamiyat rivoji va tinchligiga qanday ta'siri bor? Fikringizni asoslang.
2. Ushbu qoidalarni "Haq va haqiqat, insof vaadolat, halollik, to'g'rilik" kabi tamoyillar bilan bog'lab ko'ring.

Muso payg'ambarga Tur tog'ida tushirilgan "O'n amr":

1. Dunyoni yaratgan, yakka-yu yagona Yahvedan boshqa iloh yo'qligiga imon keltirish;
2. Yahvedan boshqaga ibodat qilmaslik;
3. Xudoning nomini bo'lar-bo'lmasga tilga olavermaslik;
4. Shanba kunini muqaddas bilish va shu kuni dam olish;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Qotillik qilmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g'rilik qilmaslik;
9. O'z yaqinlari (yahudiylar) haqqiga yolg'on guvohlik bermaslik;
10. O'z yaqinlari uyiga, ayoliga, quliga, hayvonlariga, umuman unga tegishli bo'lgan narsalarga ko'z olaytirmaslik.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Bugungi kunda mamlakatimizda boshqa diniy konfessiyalar qatorida ro'yxatdan o'tgan "Yahudiylar jamoasi" faoliyat ko'rsatadi. Ushbu jumlanib diniy va milliy bag'rikenglik tamoyili bilan bog'lab tushuntiring.
2. Yahudiylik dinining o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
3. Yahudiylik ta'limotidagi "O'n amr"ning mazmuni haqida o'z fikr-mulohazalariningizni bildiring.

7-MAVZU

HINDUIYLIK, JAYNIYLIK, SIKXIYLIK



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Hindistonda mavjud bo'lgan qaysi dinlarni bilasiz?
2. Quyidagi rasmlarga diqqat bilan qarang: ularni nima birlashtiradi? Ular haqida nima deya olasiz?



Vedalar

Hindiston dinlari o'zining ko'p ming yillik taraqqiyoti davomida bir necha bor takomillashdi va nomlari o'zgardi.

Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik o'rtalarida Sharqiy Yevropadan Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, hozirgi Panjob hududiga g'arbdan – Hindikush dovonni orqali oriylar bostirib kirgan. Ular o'zlarini bilan muqaddas yozuvlari, sanskrit tilidan tarjima qilinganda "**muqaddas, ilohiy bilim**" ma'nolarini anglatuvchi vedalarini olib kelganlar. Vaqt o'tishi bilan, mazkur matnlar butun hind xalqining eng muqaddas manbasiga aylanib qoldi.

Vedalar ibodat masalalari, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy xabarlar, ilohiy qo'shiqlar, duo, yashash qoidalari, tilsim va sehr kabi mavzulardan iborat.

Bugungi kunda hinduiylikka 700 milliondan ortiq kisni e'tiqod qiladi va e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahonda uchinchi o'rinda turadi.

Hindistonda Himolay tog'ining yuksak tepaliklari, Gang va Yamna daryolari qirg'oqlari, Barrindabah va Banoras kabi muqaddas joylar bor.



AUM yoki Omm hinduiylik dinining muqaddas ramzlaridan biri. Uning mazmun-mohiyatida bu din ilohining universal nomi mujassamlangan. Mazkur uch harf hinduiylikning uchta asosiy xudolari Shiva, Vishnu, Krishna va ularning faoliyatini bildiradi. Hinduiylik ta'limotiga ko'ra, AUM butun borliqni yaratgan sadoning belgisi sanaladi. Ushbu ilohiy ramz muhim ritual ahamiyatga ega hisoblanishi bilan birga, olyi metafizik idrok ham deb qabul qilinadi va inson ongingiz turli shakllarida o'z aksini topadi.

Kasta tizimiga ko'ra aholi to'rt tabaqaga bo'lingan.

1. Braxmanlar – rohib va dindorlar;

2. Kshatriylar – hokim va jangchilar;

3. Vayshiyalar – savdogar, hunarmand va dehqonlar;

4. Shudralar – xizmatkorlar, eng quyi tabaqa.

Hindiston aholisining 83 foizi hinduiylik diniga e'tiqod qiladi.

 Hinduiylikka e'tiqod qiluvchilar asosan Bangladesh (12 mln.), Indoneziya (3,6 mln.), Shri Lanka (3 mln.), Pokiston (1,5 mln.), Malayziya (1 mln.), AQSh (0,5 mln.), Butanda (0,3 mln.) mavjud.

Vedalar "Rishi" deb nomlanuvchi g'ayritabiyy kuchlar bilan aloqada bo'la oladigan kishilarga "vahiy" qilingan, deb e'tiqod qilinadi.

Vedalarda butun tabiatning ilohiy ekani haqidagi ta'limot ilgari suriladi. Shuning uchun ham Hindiston ko'pxudolikning o'chog'i hisoblanadi. Vedalarda osmon, quyosh, havo, yer xudolari mayjud.

Hinduiylik

Vaqt o'tishi bilan vedalardagi qo'shiqlar nafaqat ommaga, hatto ruhoniylarga ham tushunarsiz bo'lib qoldi. Bu tilni o'rganish uchun ehtiyoj paydo bo'ldi. Odamlar maxsus guruh tuzib tilni o'rgana boshladilar. Buning oqibatida braxmanlar tabaqasi vujudga keldi. Shu tariqa, vedalar davri o'z o'rnini braxmanlikka bo'shatib berdi.

Braxmanlar – diniy hayotni boshqarib boruvchi kohinlar bo'lib, ular jamiyatning oliy tabaqasi hisoblanar edilar. Braxmanning so'zi qolganlar uchun qonun bo'lib, hukmdorlar ham unga bo'ysunar edilar.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarga kelib Hindistonda buddaviylik, jayniylik kabi yangi dinlar paydo bo'ldi. Ular braxmanlikni tanqid qilgan holda, oddiy kishilar orasida keng tarqala boshladи. Natijada braxmanlik o'zini saqlab qolish maqsadida bir qancha islohotlarni amalga oshirdi va hinduiylik nomini oldi.

Hinduiylik (induizm) o'zigacha mavjud bo'lgan barcha dinlardan o'zi uchun zarur hisoblagan jihatlarni ta'limotiga singdira olgan dinligi bilan ajralib turadi. Biroq, bu denga boshqa dindagi shaxslar yakka tartibda qabul qilinmaydi. Bunga kastachilik tartibi to'sqinlik qiladi. Ayni paytda, hinduiylik braxmanlikdan katta farq qiladi. Hinduiylik ta'limotiga ko'ra, braxmanlar nafaqat oliy tabaqa vakillaridan, balki oddiy xalq ichidan, hatto ayollardan ham chiqishi mumkin.

Hinduiylikda trimurti, ya'ni uchlik: Braxma (yaratuvchi), Vishnu (qo'riqlovchi) va Shiva (yo'q qiluvchi)lar

asosiy xudolar hisoblanadi.

Sigir qadimdan hindlar e'tiqodida muqaddas hayvon hisoblangan. Shuning uchun uni qurbanlik qilish yoki boshqa maqsadlarda o'ldirish katta gunoh sanaladi. Sigirning besh mahsuloti (sut, suzma-sariyog', siyidik va tezak) dan tayyorlangan panchagavyam hinduiylar e'tiqodida odamlarni va xonadonlarni poklashda alohida kuchga ega. Sigir muqaddas hayvon hisoblangani uchun u xudolar bilan bir qatorda ehtirom qilinadi. U keyinchalik "tirik but"ga aylanib, Shivaning ma'budlik o'rnini to'ldirdi.

Hinduiylikda Hindistondagi deyarli barcha hayvon xudo yoki xudoning hamrohi deb e'tiqod qilinadi. Braxmanlik va kasta tizimiga tayangan hinduiylikdan so'ng, mil. avv. VI asrda Hindistonda buddaviylik va jayniylik, milodiy XVI asrda esa sikxiylik dinlari vujudga keldi.

Jayniylik

Jayniylik (jaynizm) dinining asoschisi Vardxamana Maxavira (miloddan avvalgi 599-527-yy.) hisoblanadi. U "Jina" ("Muzaffar") ham deyilgan va jayniylik ana shu so'zdan kelib chiqqan.

Ijodiy faoliyat

1. Quyidagi jumlanidiqqt bilan o'qing.

Hinduiylikda ilon, sher, fil, shuningdek ba'zi qushlar ham ilohiylashtirilgan.

2. Berilgan jumlaning dastlabki diniy tasavvurlar bilan aloqadorligi bormi? Fikringizni asoslang.

 Sen taqdiri azalni emas, avvalo o'zingni yengishga harakat qil. dunyoni tartibga solishga urinma. Eng avval o'z istaklaringni boshqara bil.

Rene Dekard

Ijodiy faoliyat

1. Quyidagi rasmni izohlashga harakat qiling. Ularning fetishizm bilan o'xshashlik tomoni bormi?

Trimurti



Braxma



Vishnu



Shiva



Hindistondagi Jayniylik ibodatxonasi.

Jayniylik umuman jonivor zotiga zarar bermaslik tamoyili, o'ldirmaslik, g'azab qilmaslikni asos sifatida oladi, har qanday maxluqotni o'ldirishni tajiqlaydi.

 Hozirgi kunda dunyoda bir yarim milliondan ortiq jaynistlar, 17 milionga yaqin sikxiylikka e'tiqod qiluvchilar mavjud.



Sikxlarning Amritsardagi bosh ibodatxonasi.

Jina (Jayna) ta'limotiga ko'ra, hech bir jonzotga aziyat bermaslik lozim. U xalqning hokimlarga itoatda bo'lishini shart qilib qo'yadi. Shuningdek, mavjud moddiy dunyo yovuzlikdan iborat. Yovuzlikdan xalos bo'lish, najot topish hamda abadiy rohat-farog'atga taqvodor hayot kechirish orqali erishish mumkin, deb ta'lim beradi.

Jayniylikning asosiy qoida-tamoyillarini o'z ichiga olgan 45 ta asar mavjud. Bu asarlar Maxavira tomonidan bitilgan. Jayniylikning eng qadimgi muqaddas kitobi "Acharanga-sutra" deb ataladi va X-XI asrlargacha takomillashtirib kelingan.

Bugunga qadar jayniylik ibodatxonalarida turli ma'bdularning haykallari saqlanadi.

Kalkutta va Dilvara shaharlarida jayniylik ibodatxonalarini mavjud. Kahjuro va Obu Ta'd tog'laridagi ibodatxonalar esa o'zining bezagi bilan dunyoga mashhur.


Sikxiylik

Hindistonda mavjud bo'lgan dinlardan yana biri sikxiylikdir. U XVI asrda islam va hinduiylik dinlarining qorishmasi sifatida vujudga kelgan.

Sikxiylik (sikxizm) diniga Panjobda guru, ya'ni ustoz Nanak (1469-1539) tomonidan asos solingan. Unga ergashganlar o'zlarini sikxlardar, ya'ni shogirdlar deb atashgan. "Sikxiylik" atamasi ham shu so'zdan olingan.

Sikxiylikning muqaddas kitobi "Adigrantx" ("Boshlang'ich kitob) bo'lib, beshinchgi guru Arjun (1581-1606) tomonidan tuzilgan. U panjob tilida yozilgan bo'lib, hozirgi kunda Amritsardagi sikxlarning bosh ibodatxonasi hisoblanmish "Oltin Haram"da saqlanadi.

Sikxlarda diniy va ijtimoiy faoliyatlarning markazi



Sikxiylikning muqaddas kitobi "Adigrantx" ("Boshlang'ich kitob) bo'lib, beshinchgi guru Arjun (1581-1606) tomonidan tuzilgan.

Amritsar oltin ibodatxonasıdır. Shu bilan birga, Gurdvara deb nomlangan mahalliy ibodatxonaları ham bor. Ular, sikxlardan hayotida muhim o'rın tutadı.

Mazkur din kastachilik tartibini qoralagan. Nanak va uning shogirdlari dehqonchilik bilan hayot kechirganlar. Nanak tuzgan jamoa bora-bora teng huquqli insonlar jamoasiga aylangan va bu jamoaga "Poklar ordeni" rahbarlik qilgan.

Sikxiylik ta'limotiga ko'ra, borliqning yaratuvchisi Xudo guruning ixlosi orqali bilib olinadi. Shuning uchun ham odamlarning Xudoni odam qiyofasida tasvirlashlari mumkin emas. Xudoga ishonish va uni sevish – bu odamlarga muhabbatdir. Sikxiylikda bu, muhabbat kastachilikni insonning jamiyatdagi mavqeyini va uning qaysi dinga e'tiqod qilishini hisobga olmaydi, deb qaraladi.



"Imon Yogachining juldur kiyimlarida, uning qo'lidagi hassasida, badaniga sepadigan kulida yoki qulog'idagi sirg'asida ham emas – imon kishi yer yuzidagi nopliliklar orasida o'zini pok saqlashidir".

Guru Nanak



Sikxlardan hinduiylar kabi o'liklarni olovda yoqadilar, lekin ortda qolgan beva ayollarga tegmaydilar, beva ayol va erkaklarning oila qurishlariga ruxsat beradilar. Sigirga nisbatan bo'lgan hurmat hissini davom ettiradilar, lekin umuman olganda go'sht yeyishlari bilan hinduiylardan ajralib turadilar.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Hindistonda vedalar davri, braxmanlik va hinduiylikning paydo bo'lish omillarini tushuntirib bering.
2. Kastachilik jamiyat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Hindiston dinlarining o'ziga xosligi va o'xshash tomonlarini tushuntirib bering.
4. Sikxlarda diniy va ijtimoiy faoliyatlarning markazi qayerda joylashgan?
5. Vedalar Hindistonga qayerdan kirib kelgan?



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering.

1. Konfutsiy kim bo'lgan va u qaysi davlatda, qachon yashagan?
2. Konfutsiyning ibratli fikrlaridan keltira olasizmi?
3. Bugungi kunda konfutsiylik diniga qayerlarda e'tiqod qiladilar?



Xitoydagi konfutsiylik ibodatxonasi



Ahmoqona fikri yo'q kishi ahmoqona ishlarni ham qilmaydi.

Fikrsiz ilm foydasiz mehnat.

Konfutsiy

Konfutsiylik

Konfutsiylik (konfutsianizm) qadimgi Xitoyning diniy-falsafiy ta'lomitlaridan biri. Unga mil.avv VI asrda faylasuf va pedagog Konfutsiy (Kun Szi, miloddan avvalgi 551-479-yy) asos solgan. Uning qarashlari "Konfutsiylik" asarida o'z ifodasini topgan.

Konfutsiylik ta'lomi insonlar orasidagi aloqa va munosabatlар, shuningdek, hayot, o'lim, sharaf va boshqa barcha narsalar Xudo – Osmon tomonidan yuboriladi. Podshohlarga "Osmon o'g'llari" sifatida qaralgan. Osmon va yer xodosi sharafiga atab ibodatlar uyuşhtirish buyurilgan. Agar podshoh adolatdan uzoqlashib zulm qila boshlasa, u lavozimidan chetlatiladi va boshqaruvni Osmon o'z qo'liga oladi, degan qarash targ'ib qilingan.

Bundan tashqari, konfutsiylikda farishtalar ham muqaddas hisoblanib, ko'zga ko'rinas borliqlar: jin va parilar, shuningdek, bulut, suv, tog' kabi olamlar ham mavjud deb ishonilgan va ajdodlar ruhiga sig'inilgan.

Konfutsiylikning muhim jihatlaridan biri – unda ruhoniylar qatlami va imon-e'tiqod asoslarining yo'qligidir. Unda faqat Xudo tushunchasi va muqaddas matnlar mavjud. Xudo, nochor va tushkun ahvoldagi kishilarni himoya qilish uchun hukmdor va targ'ibotchilar yuborib turadi.

Konfutsiyning vafotidan keyin uning ta'lomi din sifatida shakllandi. Bu dinning asosiy maqsadi – xalqni mayjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash edi. Uning qabri muqaddas ziyoratgoh va ibodatxonaga

ayylanadi. Miloddan avvalgi 195-yilda birinchi Xan podshohi Lyu Banning shaxsan o'zi Konfutsiy ibodatxonasi unga atab "tay-lyao" qurbanlik marosimini o'tkazdi. Shundan so'ng, uning nomi ham, ta'lomit ham butun Xitoyda ilohiyashtirilib, unga atab muntazam qoidalar asosida qurbanliklar qilinadigan bo'ldi. Konfutsiylikning Xitoy milliy diniga aylanishi uzoq vaqt davom etgan tarixiy jarayondir.

Daochilik

Xitoy milliy dinlaridan biri bo'lgan daochilik (daosizm) taxminan mil. avv. IV – III asrlarda paydo bo'lgan. Unga qadimgi Xitoy faylasufi Lao Szi asos solgan. Uning asl ismi Li Tan bo'lib, Lao Szi (Lao – keksa, Szi – donishmand) unga berilgan laqabdir. Rivoyatlarga ko'ra, u

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jumlarni o'qing: Birinchi jumladagi "insonparvarlik va o'z burchini his etish" iborasini bugungi kun bilan bog'lang.

Har ikki jumlaning jamiyat rivoji va farovonligiga qanday ta'siri bor? Bu matnlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

1. *Konfutsiy tasavvur etgan ideal inson eng muhim ikki fazilatga – insonparvarlik va o'z burchini his etishga – ega bo'lishi lozim.*

2. *"Podsho – podsholigicha, fuqaro – fuqaroligicha, ota – otaligicha, farzand – farzandligicha qolishi kerak".*



Pekindagi daochilik ibodatxonasi.

Bugungi kunda konfutsiylikka e'tiqod qiluvchilar sonini aniqlash juda ham murakkabdir. Chunki, konfutsiylikda polikonfessionallikka ruxsat berilgan. Ya'ni, kishi nafaqat bir dinga, balki boshqa dinlar (odatda, konfutsiylik, buddaviylik va daochilik)ga ham e'tiqod qilishi mumkin.



Xitoydagi daochilik ibodatxonasi.



Boshqalarni yenguvchi kuchlidir, o‘zini yenguvchi esa qudratlidir.

Ishonchi komil bo‘limgan o‘zgalarni ham ishontira olmaydi.

Fikrlaringizga ehtiyyot bo‘ling – ular qilmishlarin-giz ibtidosidir.

Lao Szi



Hozirda dunyo bo‘yicha taxminan 30 million kishi daochilikka e’tiqod qildi.

kim yaratmagan, aksincha barcha narsalar undan kelib chiqqan va unga qaytadi. U azaliy va abadiy, o‘z-o‘zidan mayjud. U har bir narsada namoyon bo‘la oladi va hech kim uni ko‘ra olmaydi.

Lao Szi insonning yaxsh xulqli, marhamatli, sodiq, to‘g‘ri so‘z va vazmin bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Inson “Dao”ga o‘xshashga harakat qilsin, deydi.

Daochilikda ibodat (xitoycha – “gunke”), dastavval, kuniga uch marta amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ular ikkita – tonggi va tungi ibodatlardan iborat. Daochilikda bayramlar juda ko‘p bo‘lib, hattoki, o‘tib ketgan ulug‘ insonlarning tug‘ilgan kunlari ham bayram sifatida nishonlanib kelinadi. Bayramlar Xitoy milliy taqvimiga ko‘ra nishonlanadi.

Sintoiylik

Sintoiylik (sintoizm) dini qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan. Uning nomlanishi xitoycha “sinto” (xudolar yo‘li) so‘zidan olingan. Sintoiylik dinining vujudga kelishi tarixiga oid aniq ma’lumotlar mavjud emas. Sintoiylik yaponlar uchun ham tarix, ham an’ana, ham hayot tarzidir.

Sintoiylik ta’limotiga ko‘ra, Mikado (imperator) - osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon ikkinci darajali ruhlar (“Kami”)ning vorisidir. Yaponlar “kami”ni ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e’tiqod qiladilar. Xudojo‘y yapon vafot etgach, o‘zining ham o‘sha “kami”lardan biri bo‘lishiga ishonadi.

Sintoiylikda oliy iloh tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhi va tabiatga sig‘inishga o‘rgatadi. Sintoiylikda umumiy hayotiy rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalardan boshqa hech qanday diniy urf-odatlar yo‘q. Unda “Umum qonunlariga rioya qilgan holda tabiat qoidalariiga mos harakat qil”, degan ma’naviy qoida mavjud.

Yaponlar tasavvurida ular yaxshilik va yomonlik tushunchalarini tabiatan yaxshi bilganlar. “Kodziki” –

sintoiylikning muqaddas kitobidir. Bu kitob Yaponiya va yapon xalqini tushunishning kaliti hisoblanadi.

Yapon yozuvlarida ta’kidlanishicha, olamda birinchi bo‘lib tartibsizlik hukmronlik qilgan. Undan so‘ng yer Osmondan ajralib chiqqan hamda ayol va erkak jinsi paydo bo‘lgan. Ayol jinsi timsolida ayol xudo Idzanami, erkak jinsi timsolida uning eri Idzanagi yuzaga keldi. Ulardan ayol jinsidagi quyosh xudosi Amaterasu, erkak jinsidagi oy xudosi Sukiyomi, shamol va suv xudosi Susanoo tug‘ilgan. Sintoiylik yaponlarga mavjudot olami, tabiat va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat haqidagi qarashlarni singdiradi.

Sintoiylikka ko‘ra, “kami” faqatgina yapon millati bilan bog‘liq. Chet ellik kishining esa “kamiga” ibodat qilishi axloqsizlik sanaladi. Shu bilan birga, sintoiylik yaponlarning boshqa dinlarga e’tiqod qilishlariga qarshilik qilmaydi. Mana shuning uchun ham deyarli barcha yaponlar, sintoiylik bilan bir qatorda, yana boshqa bir dingga e’tiqod qiladilar.

Sintoiylikda har bir ibodatxonaning o‘z xudosi bo‘lib, uning boshqa ibodatxonalarga hech qanday aloqasi yo‘q. Har bir yapon oilasining o‘z ibodatxonasi mavjud. Ibodatxonada amalga oshiriladigan marosimlar, yilda bir marta bo‘ladigan rangin bayramlar yaponlar hayotining zaruriy qismi bo‘lib qolgan.

Sintoiylik – “xudo yo‘li” degan ma’noni anglatadi.

Sintoiylik ta’limotining asosini hokimiyatning ilohiyligi to‘g‘risidagi aqida tashkil etadi.



Yaponiyadagi sintoiylik ibodatxonasi.

Bu dindagi eng muhim axloqiy burch – imperatorga so‘zsiz itoat etmoqlikdir.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Konfutsiylikning axloq normalaridan qanday xulosalar chiqardingiz?
2. Sintoiylik ta’limotining mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Daochilik, sintoiylik, konfutsiylik ta’limotlari haqida gapirib bering hamda ularning o‘ziga xos jihatlarini tushuntiring.

TAKRORLASH UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Jahonda e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan eng katta milliy din qaysi?

- a) yahudiylik
- b) sintoiylik
- c) konfutsiylik
- d) hinduiylik

2. Yahudiylik dinining asosiy aqidasi nimaga bo‘lgan ishonchdan iborat?

- a) messianing kelishiga
- b) oxiratga
- c) yahudiy xalqining xudo tomonidan tanlanganligiga
- d) yagona xudo Yahvega

3. Dinning ibtidoiy shakllari qaysilar?

- a) sehrgarlik, yahudiylik, jayniylik, zardushtiylik
- b) fetishizm, qabila boshliqlarining shaxsiga sig‘inish
- c) totemizm, sintoiylik, tabiatni ilohiylashtirish
- d) fetishizm, totemizm, sehrgarlik, animizm, shamanizm

4. Asosan bir millat va elat vakillari qanday dinga e’tiqod qiladilar?

- a) dunyoviy
- b) urug‘-qabila
- c) yakka xudolik
- d) milliy

5. Hinduiylik dinining asosiy xudolarini belgilang.

- a) Shan-di, Lao-szi, Pan-gu
- b) Jinna, Nanak, Gaumata
- c) Amaterasu, Yahve, Mitra
- d) Braxma, Vishnu, Shiva

6. Sikxiylikning muqaddas kitobi qaysi?

- a) Tripitaka
- b) Adigrantx
- c) Avesto
- d) Vedalar

7. Sintoiylik din sifatida qachon shakllandii?

- a) VI-VII asrlarda
- b) III-IV asrlarda
- c) I-II asrlarda
- d) mil. avv. IV-III asrlarida

IV. JAHON DINLARI

9-MAVZU

BUDDAVIYLIK



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering.

1. Buddaviylik dini qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
2. Bugungi kunda mazkur dingga e’tiqod qiluvchilar sonini bilasizmi?
3. Buddaviylik dini tarqalgan mamlakatlarni dunyo xaritasidan ko‘rsating.
4. Nima uchun bu din jahon dini deyliladi?
5. Bizning o‘lkamizga buddaviylik dini qachon kirib kelgan?
6. Buyuk ipak yo‘lining buddaviylik dini tarqalishidagi o‘rnini tushuntirib bering.

Buddaviylikning vujudga kelishi

Buddaviylik (buddizm) miloddan avvalgi VI-V asrlarda Shimoliy Hindistonda vujudga keldi.

Buddaviylikning asoschisi Siddhartha (sanskritcha “ezguliklar keltiruvchi”) Gautama Shakyamuni (mil. avv. 567-488-yy.) tarixiy shaxs bo‘lib, Hindiston va Nepal chegarasidagi Kapilavasta viloyatining Shakya qabilasi hukmdori oilasida tug‘ilgan. Manbalarda uning ot minish, ov qilish, yugurish, kurash, she’r o‘qish, husnixat va boshqa sohalarda mahoratlari bo‘lgani qayd etiladi.

Rivoyatlarga ko‘ra, kunlarning birida shahzoda Siddhartha o‘z saroyidan tashqariga chiqib, azob-uqubat, kasallik, qarilik va o‘lim haqidagi haqiqatlarni kuzatgan. Shundan so‘ng u umrini insonlar boshiga tushadigan azob-uqubatlar sabablarini o‘rganish va insoniyatni ular- dan xalos qilish uchun bag‘ishlashga qaror qilib, oilasini tark etadi.

Olti yil davomida u Ganga daryosi qirg‘oqlarida rohiblar orasida zohidona hayot kechiradi. Siddhartha bu yo‘l uni o‘z oldiga qo‘ygan maqsad, ya’ni insoniyatni azob-uqubatdan qutqarish sari olib bormasligiga amin bo‘lgach, rohiblar jamoasidan ajraladi.

Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, Buddha 84 marta ruhoni, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g‘oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalmush, quyon qiyofalarida 550 marta qayta tug‘ilgan.

Budda umrining so'nggi kunlarigacha Hindistonning turli joylarida bo'lib, o'z ta'lomitini kishilarga yetkazishga harakat qildi va 80 yoshida dunyodan o'tdi. Buddaning jasadi kuydirilib, xoki sakkiz buddaviy jamoaga yuborildi.

Rivoyat qilinishicha, Siddhartha 35 yoshida meditatsiya (lotincha – fikrlayapman, o'layapman, diqqatni bir joyga to'plab, ongini oliv haqiqatga erishish) qilish uchun bir daraxtning ostida dam olib o'tiradi va haqiqatni topmaguncha u yerdan turmaslikka qaror qiladi. Bu o'tirishning 49-kuni uning qalbidan "Sen haqiqatni topding" degan sado keladi. Siddhartha maqsadiga erishib, koinotning barcha sir-asroridan voqif bo'lgach, "Budda" (sanskritcha – nurlangan, ma'rifikatlangan oliv haqiqatga erishgan) ga aylangan, deb e'tirof etiladi. Shundan kelib chiqib, Budda soyasida dam olgan daraxt "boddxa" (sanskritcha – nurlangan daraxt) deb ataladi.

Hind podsholari Magadxi Bimbisare va Ajataшhatuning buddaviylikni qabul qilishi, keyinchalik imperator Ashoka va Kanishkaning qo'llab-quvvatlashi natijasida buddaviylik davlat dini darajasiga ko'tarildi. Buddaviy rohiblar jamoasi – "sangha" shakllandi.

Buddaviylikdagi bo'linish

Buddaning o'limidan so'ng shogirdlari orasida ikkiga ajralish ro'y berdi. Ularning biri "xinayana", ikkinchisi esa "maxayana" deb ataldi.

"*Xinayana*" yo'nalishi miloddan avvalgi I asrda shakllandi. Bu yo'nalish e'tiqodiga ko'ra, kishi rohiblar jamoasiga kirib, yakka-yolg'izlikda tarkidunyochilik va taqvodorlik bilan hayot kechirish orqaligina kundalik hayot tashvishlaridan xalos bo'lishi mumkin.

"*Mahayana*" yo'nalishi Buddha ta'lomitining barcha tomonlarini isloh qildi. Bu yo'nalish ta'lomitiga ko'ra, Siddhartha o'gitlariga amal qiluvchi, xudoga iltijo qiluvchi, rohiblarga moddiy yordam beruvchi, dunyoviy ishlar bilan shug'ullanuvchi har bir kishi najot topishi mumkin.

Mazkur yo'nalish vakillari Buddaga ilohiylik tusini berib, diniy marosim va ibodatlarni joriy etdi. Milodning

"Xinayana" (sanskritcha) – kichik g'ildirak, "Mahayana" esa "katta g'ildirak", degan ma'nolarni anglatadi.

 Baxtdan lazzatlanish – buyuk saodat. Baxtni o'zgalarga tuhfa etish esa undanda buyukroq ezzulikdir.

Frensis Bekon

650-yilidan boshlab Hindistonda buddaviylikning mavqeyi pasaya boshladi. XIII asr boshlariga kelib esa, u Hindistondan siqib chiqarildi. Bunga mamlakat shimalida islam dini mavqeyining kuchayishi va boshqa qismlarida hinduiylik dinining to'la qaror topishi sabab bo'ldi.

Vaqt o'tishi bilan buddaviylik doirasida yangi oqimlar yuzaga keldi. Bugungi kunda uning "Vajrayana", "Tyantay", "Szintu", "Dzen buddizm", "Lamaizm" kabi oqimlari mavjud.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoy, IV asrda Koreya, VI asrda Yaponiya, VII asrda Tibet, XIII asrdan

Budda fikricha, inson "Pancha shila" (sanskritcha – besh nasihat)ga amal qilishi, ya'ni qotillik va o'g'rilik qilmasligi, gumrohlikka yo'l qo'ymasligi, yolg'on so'zlamasligi va mast qiluvchi narsalardan saqlanishi lozim.

Ijodiy faoliyat

"Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbasidir".

Islom KARIMOV

Yuqoridagi fikrni diqqat bilan o'qing va quyidagi savollarga javob bering.

1. "*Xalqimizning... diniy sabr bardoshi*" degan iborani bag'rikenglik tushunchalari bilan bog'lang. Javobingizni buddaviylik mamlakatimiz hududiga kirib kelganida bu yerda mavjud bo'lgan boshqa dinlar bilan munosabati asosida izohlang.
2. Buddaviylik dini mamlakatimiz xalqlari tarixida qanday ahamiyat kasb etgan?

XVI asrgacha Mongoliya, XVII asrda XVIII asrgacha Buryatiya va Tuva, XIX-XX asrlarda Amerika va Yevropa qit'asiga ham kirib borgan.

Mamlakatimiz tarixida buddaviylik dini

Buddaviylik O'zbekistonning janubiy hududlarida yangi eraning boshlarida o'rnashdi. Buddaviylikning Hindistondan Markaziy Osiyoga kirib kelishi kushonlarining hukmronligi bilan bog'liq. Imperator Kanishkaning hukmronligi davrida Kushon podshohligi ushbu dinning markazlaridan biriga aylangan va Kanishkaning o'zi shu denga e'tiqod qilgan. U zarb qildirgan tangalarda Buddha tasviri aks ettirilgan.

XX asrning boshlaridayoq, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida buddaviylikka oid ko'p sonli tangalar, haykal-



**Budda haykali.
Fayoztep.**

Xitoylik Szyanning qoldirishicha, asrning boshlarida Termizda ta	Syuan yozib VII buddaviylik ibodatxonalarini va ming nafar rohib bo'lgan.



Budda ibodatxonasi hovlisi. Fayoztepa.
Mil. I-III asr.



Lamaistlar jamoasi ibodatxonada.

Toshkentdagi buddaviylik ibodatxonasi.

taroshlikka oid mayda tasvirlar va boshqa yodgorliklar Qoratepa, Chingiztepa, Quva, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Zartepa manzilgohlaridan topilgan. Bu, qadimda O'rta Osiyoda buddaviylik dini keng rivojlangani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

V-VIII asrlarda Eftalitlardan keyin buddaviylik dini Markaziy Osiyoda tanazzulga yuz tuta boshladi.

Markaziy Osiyo hududlarida loydan yasalib yaxshi saqlangan Buddha tasviri, ko'plab haykalchalar, bezaklar, diniy marosim buyumlari va tangalar topilgan. Ular II asr oxiri III asr boshidagi buddaviylik ibodatxonasining markaziy binolari ichida saqlangan.

Mamlakatimiz hududida ko'plab buddaviy yodgorliklarning topilishi va o'rganilishi hudud madaniy va ma'nnaviy hayotida bu din qanchalik katta ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Buddaviylik O'zbekistonda haykaltaroshlik san'ati tarixiga o'zining hissasini qo'shgan.

Bugungi kunda yurtimizda buddaviylikning lamaizm (tibet tilida "lama" – "eng ulug'" degan ma'noni anglatadi) yo'naliishi tarqalgan. Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat lamalar (ruhoniylar) yordamida najot topadi va gunohlardan poklanadi. Lamalarsiz oddiy buddaviyning nirvanaga yetishishi u yodqa tursin, hatto qayta bu dunyoga qaytib kelganidan so'ng ham hech narsaga erisha olmaydi, deb hisoblanadi.

2016-yilning 1-yanvariga qadar respublikamizda buddaviylikka mansub 1 ta diniy tashkilot ro'yxatga olingan.

1950-yilda "Jahon buddaviylari birodarligi" – xalqaro diniy tashkiloti tuzilgan. Tashkilot tomonidan nashr etiladigan byulleten, kitob va risolalarda tinchlik uchun, yadro qurolini tugatish, turli davlatlar o'rtasidagi mojaroli masalalarni muzokaralar yo'li bilan hal etish uchun kurashish g'oyalari o'z aksini topgan.

1956-yilda dunyo buddaviylari o'z dinlarining 2500 yilligini nishonladilar.



Aql shunday xazinaki, qancha ko'p ishlatsangiz, shuncha to'lishib boradi.



Hozirgi davrda buddaviylik Janubiy, Janubi-Sharqiy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari – Shri Lanka, Hindiston, Birma, Tailand, Laos, Mo'g'uliston, Kambodja, Vietnam, Xitoy, Singapur, Butan, Nepal, Malayziya, Koreya, Yaponiya, qisman Yevropa va Amerika qit'asi, Rossiyaning Tuva, Buryatiya, Qalmiqiston kabi hududlarida keng tarqalgan. 700 milliondan ortiq kishi buddaviylikning turli yo'naliishlariga e'tiqod qilishadi.



- Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar**
1. Darslikning birinchi mavzusi asosida qanday dinlarga jahon dini deyilishi va ularga qanday xususiyatlar xosligini eslang.
 2. Buddaviylik dini qanday sabablarga ko'ra vujudga keldi va tezda shuhrat qozona oldi?
 3. Siddhartha Gautama haqida nimalarni bilib oldingiz?
 4. Nima uchun Siddhartha shohona hayotdan voz kechdi?
 5. Quyidagi rasmlardagi yodgorliklar Fayoztepedan topilganini e'tiborga olib, mamlakatimiz hududida madaniyat, san'at va me'morchilikning rivojlanishi haqida hikoya qiling.





Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

Buddaviylik tarixi haqida olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering.

1. Buddaviylik nima sababdan aynan Hindistonda paydo bo'ldi?
2. Buddaviylik Hindistonda nima sababdan keng tarqalmadi?
3. Sizningcha, buddaviylikdagi qaysi g'oyalar uning jahon diniga aylanishiga sabab bo'lgan?
4. Buddaviylikning muqaddas manbasi haqida nimani bilasiz?



**Budda rohiblar bilan
Fayoztepa. Mil. I-II asrlar.**

"Nirvana" sanskritcha – so'lish, o'chish,
"rupaloka" sanskritcha – jannat,
"kamaloka" sanskritcha – do'zax, eng quyi olamdir.

Umuminsoniy g'oyalarning targ'ib etilishi hamda har bir millatning Buddha ta'lomitini o'z tilida o'qib-o'rganishi mumkinligi buddaviylikning jahon bo'ylab keng tarqalishiga zamin yaratdi.

Milodning birinchi asrlarida buddaviylik butunlay boshqacha tus oldi. Chunonchi, Buddha ilohiylashtirilib, xudo darajasiga ko'tarildi.

Braxmanlik va hinduiylikda kishilar "kasta" larga bo'linib, odamlar "past" va "oliv" tabaqaga ajratilgan bo'lsa, Buddha "inson kim bo'lishidan qat'i nazar, tug'ilishda teng huquqlidir, biri ikkinchisidan ortiq emas", degan g'oyani ilgari surdi.

Buddaviylik ta'lomitining o'ziga xos jihatlari barcha jonli narsalarga muhabbat bilan qarashning targ'ib etilishida, aql ko'rsatmalariga qat'iy bo'ysunish va hissiyotga berilmaslikda aks etgan.

Buddaviylikda olamlar va ularga xos xususiyatlardan haqidagi qarashlar muhim o'rinn egallaydi. Buddha ta'lomitiga ko'ra, olam uch bosqichli bo'lib, uning birinchisi – eng yuqori mutlaq osoyishtalik hukm suradigan "nirvana", ikkinchi olam – "rupaloka", uchinchi olam – "kamaloka" (sanskritcha – do'zax) eng quyi olamdir.

Budda ta'lomitining asosida "hayot – bu, azob-uqubat" va "najot yo'li mavjud" degan g'oyalar yotadi.

Buddaviylik ta'lomit



Buddaviylik dinining ramzi "Dxarmachakra". U "Qonun g'ildiragi" deb ham nomlanadi. G'ildirakning markazi bo'lgan gupchak ong nuqtasi taratayotgan qalb nurini, ruhiy yorug'likni va aql yog'dusini ifodalaydi. G'ildirakning markazi buddaviylik ta'lomitining asosiy mohiyati bo'lgan sakkizta ulug' qoidani ifodalovchi sakkizta kegayni o'z ichiga oladi. Bular: to'g'ri dunyoqarash, to'g'ri maqsad, to'g'ri so'z, to'g'ri sa'y-harakat, to'g'ri turmush tarzi, to'g'ri intilish, to'g'ri fikrlash, to'g'ri mulohazalardir.



Nilufar guli buddaviylik dini an'anasiga ko'ra, mutlaq soflik timsoli hisoblanadi. Nilufar odatda ajablanarli darajada toza suvda o'sadi. Shu boisdan u yaratish, badiiy qudrat, uzoq umr ko'rish sirlari va dunyodan voz kechishning ham ramzidir. Ushbu gulning ustida o'tirgan yoki turgan Buddha surati mazkur gulning qayta tug'ilishdan xoli ekanini anglatadi. Gulga jahl, xohish-istik, kibr, shahvat va rashk tuyg'ulari begonadir. Nilufarni ilohiy gul sifatida e'zozlab, unga ma'budlar o'z muborak qadamlarini bosadilar. Mazkur o'simlikning urug'idan duo o'qish va ibodat vaqtida ishlataladigan tasbehlar tayyorlanadi.

Buddaviylikdagi sakkiz yo'l

Inson o'ziga xos mavjudot bo'lib, u tug'iladi, o'zini o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g'oyalalar Buddha ilgari surgan quyidagi "To'rt oliv haqiqat"da o'z ifodasini topgan:

1. Azob-uqubatning mavjudligi. Bu ta'lomitga ko'ra, dunyodagi har bir narsa, shu jumladan, tug'ilish, yashash, kasallik, o'lim va boshqalar azob-uqubatlar hisoblanadi;
2. Azob-uqubatlarning sabablari mavjudligi haqidagi ta'lomit. Unga ko'ra azob-uqubatlarning sababi kishilarning istak-xohishlari, yashashga va baxtga intilishlari, hayotga tashnaliklaridir;
3. Azob-uqubatlarning bartaraf bo'lishi haqidagi ta'lomit. Buning uchun hayotga chanqoqlikdan, turmush ko'ngilxushliklaridan, lazzatlaridan, hokimiyatga va boylikka intilishdan voz kechish lozim. Ayni paytda, yerdagi hayot hodisalarining barchasi beqaror va o'tkinchi ekanligini fahmlamoq zarur;
4. Azob-uqubatlardan qutulishning najot yo'li borligi



**Buddaviylikdagi sakkiz yo'l
ramzi – Dxarmachakra.**


“O‘zingga ozor yetmasin desang, o‘zgalarga ozor bema, boshqalarga ozor bersang, o‘zing ham ozor chekasan.

Hirs-u havas barcha baxtsizliklarning sababchisidir. Vaqt o‘tishi bilan hamma narsa o‘zgaradi, shu sababli, hech narsaga ortiqcha ko‘ngil bog‘lama, ko‘ngilni toza tut, haqiqat va boqiy saodat izla. Yomonlik qilma, gunohdan saqlan.

Hamisha yaxshilik qil. Boshqalarni sevsang, o‘zing ham, boshqalar ham baxtli bo‘lishadi. O‘zgalarning gaplarini rad etma va qoralama. O‘zni baxtli qilish uchun o‘zgalarni baxtsiz qilish insofdan emas”.

Budda

“Tripitaka”, sanskritcha – “Uch savat donolik”dir.



Tripitaka ushlab turgan rohib.

haqidagi ta’limot. Bu ta’limot mazmunini najotning quyidagi 8 oliyjanob yo‘li tashkil etadi:

1) to‘g‘ri maslak. Bu – donolik bo‘lib, odamlarga hayotning 4 oliy haqiqatini tushunib olishga yordam beradi;

2) to‘g‘ri niyat. Bu – barcha tirik mavjudotga do‘stona munosabatda bo‘lishni, azob-uqubat tortayotganlarga hamdard bo‘lishni, boshqalarning muvaffaqiyatiga beg‘araz munosabatda bo‘lishni, shuningdek, har qanday sharoitda ham ruhan vazmin bo‘lishni anglatar edi;

3) to‘g‘ri yurish-turish. Bu – o‘g‘irlik qilmaslikni, tirik mavjudotni, shu jumladan, odam o‘ldirmaslikni, noqonuniy nikohda bo‘lmaslikni, mast qiluvchi ichimlik ichishdan voz kechishni anglatgan;

4) to‘g‘ri so‘z. Bu – yolg‘on gapirishdan, tuhmat-bo‘htonlardan, fisq-fasod suhbatlardan va mish-mishlar dan tiyilishni anglatgan;

5) yashashning to‘g‘ri daromad manbayiga ega bo‘lish. Bu – qurol, mast qiluvchi ichimliklar sotishdan, shuningdek, hayvonlarni o‘ldirishdan tiyilishni anglatgan;

6) to‘g‘ri xatti-harakat. Bu – o‘z ongini inson uchun zarar keltiruvchi o‘y-fikrlardan xoli qilish va foyda keltiruvchi o‘y-fikrlar bilan yashashni anglatgan;

7) to‘g‘ri xotirlash. Bu – insonning o‘z tanasining, hissiyorining, ruhiy holatining bir me'yorda faoliyat ko‘rsatishiga jiddiy e'tibor bilan qarashini anglatgan;

8) fikr-e’tiborni to‘g‘ri narsalarga qaratish. Bu – insonga Budda ta’limoti qoidalaridan chalg‘imaslik imkonini berar edi.

Buddaviylik qoidalari va axloqiy tamoyillarini o‘zida mujassam etgan va bugungi kunda buddaviylikning muqaddas kitobi, deb e’tirof etiladigan “Tripitaka” milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Hozirda “Tripitaka”ning ilk qo‘lyozma nusxasi Shri Lanka (Seylon)da saqlanadi. Bunday o‘zgarishlar buddaviylikda o‘ziga xos yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.

Buddaviylik marosimlari

Buddaviylikning marosimlari ichida ertalabki va kechki ibodat har kuni ado etiladi. Ibodat davomida Buddha tasviri oldida duolar o‘qiladi, ta’zim qilinadi va gullar qo‘yiladi.

Buddaviylar har oyda ikki marta “Tiyilish kuni” marosimini o‘tkazadilar. Ibodatdan oldin muattar hid taralib turishi uchun Buddha haykali atrofiga gullar qo‘yilib, shamlar yoqiladi. Buddaviy rohiblar muqaddas kitobdan parchalar o‘qishadi. Marosim tugagach, rohiblar ibodatga kelgan kishilar ustiga, ular o‘z navbatida yerga suv sepadilar.

Diniy urf-odat va marosimlarning oddiyligi buddaviylikni jahoning turli mamlakatlarida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Buddaning tug‘ilgan, nurlangan va vafot etgan kunlarini xotirlash bilan bog‘liq marosimlar mavjud. Buddaning tug‘ilgan kuni ommaviy bayram sifatida nishonlanadi.

Buddaviylar uchun yangi yilning boshlanishi o‘z axloqiy xatti-harakatlariga baho berish, poklanish va savobli ishlarni bajarish haqida qayg‘urish vaqtini bo‘lib hisoblanadi.



Meditatsiya qilayotgan buddaviy rohibi.

Aprel oyida 2-3 kun davomida nishonlanadigan “Yangi yil bayrami”da Buddha, avliyolar, ajdodlar yodga olinib, suv sepiladi. Suv sepish yomg‘ir chaqirish va xotirjam hayot belgisi hisoblanadi.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Buddaviylik qay tariqa jahon diniga aylandi?
2. Buddaviylik ta’limotidagi olamning uch bosqichi haqida nimalarни bilib oldingiz?
3. Buddaviylikning “To‘rt oliy haqiqat” haqidagi ta’limoti mazmunini so‘zlab bering?
4. Buddaviylik marosimlari va bayramlari haqida nimalarни bilib oldingiz?

TAKRORLASH UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Eng qadimgi jahon dini qaysi?

- a) xristianlik
- b) buddaviylik
- c) islom
- d) yahudiylik

2. Jahon dinlarining qaysi g'oyasi ularning turli xalqlar o'rtaida keng tarqalishiga olib keldi?

- a) narigi dunyoda mukofotlash
- b) oxirat to'g'risidagi
- c) hammaning Xudo oldida tengligi
- d) jannat va do'zax to'g'risidagi

3. Buddaviylik dini qachon paydo bo'ldi?

- a) milodning V asrda
- b) mil. avv. VI asrda
- c) milodning I asrda
- d) mil. avv. XIII asrda

4. Buddaviylikning asosiy aqidasi nimadan iborat?

- a) gunoh
- b) itoatkorlik
- c) nirvana
- d) azob-uqubat

5. Juhonshumullik qaysi dinlar uchun xarakterli?

- a) urug'-qabilaviy
- b) jahon
- c) milliy
- d) ibtidoiy

6. Buddaviylikda dinga ishongan kishining asosiy maqsadi nima?

- a) nirvanaga erishish
- b) rohiblikni qabul qilish
- c) muqaddas qadamjolarga sig'inish
- d) qayta tug'ilish zanjiridan o'tish

7. Buddaviylikning asosiy yo'nalishlari qaysilar?

- a) xinayana, shivaizm
- b) shialik, xorijiylik
- c) xinayana, maxayana
- d) pravoslavlik, katoliklik

11-MAVZU



XRISTIANLIK TARIXI VA TA'LIMOTI



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering.

1. Xristianlik qayerda paydo bo'lgan?
2. Iso Masih haqida nimalarni bilasiz?
3. Milodiy yil hisobini xristianlikning paydo bo'lishi bilan qanday aloqadorligi bor?
4. Xristianlik dinining jahon dini sifatida e'tirof etilishining sababi nimada?
5. Quyidagi rasmlardagi binolar qayerda qurilganligini bilasizmi?
6. Rasmdagi inshootlarni o'zaro nima birlashtirib turadi? 1-va 4-5-rasmlar asosida diniy bag'rikenglik tamoyilini tushuntiring.




Xristianlikning vujudga kelishi

Xristianlik manbalariga ko'ra, milodiy yil hisobi Iso Masih (Isus Xristos) tug'ilgan yildan boshlangan. Grekchada bu so'z "xristos" ("christos") shakliga ega. Bu dinning "xristianlik" yoki "masihiylik" deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Hozirgi kunda xristianlik jahon dinlaridan biri hisoblanadi. Xristianlarning soni buddaviylik va islom diniga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladi.

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining

Iso Masih haqidagi birlamchi xabarlar asosan diniy manbalarda keladi. Iso nomiga qo'shiluvchi Masih so'zi qadimiy yahudiy tili – ivritdag'i "moshiakh" so'zidan olingan bo'lib, "silangan" yoki "siylangan" ma'nolarini beradi.



Iso Masihni ikonadagi tasviri.

Bibliya (Biblia) so‘zini yunon tilida “kitob”, “o‘ram” ma’nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida 72 ta kitobdan, protestant nashrlarida esa 66 ta kitobdan iborat.

Jahon Soborlari – xristianlikda olyi ruhoniylar yig‘ilishlari.

 Birovga choh qazigan odam o‘zi yiqiladi. O‘scha chuqurga bo‘lmasa boshqasiga...

sharqiy qismi – Falastin yerlarida vujudga keldi. Xristianlikning muqaddas kitobi “Bibliya”ga (Yangi Ahd) ko‘ra, Iso Masih milodning I asrida Falastinining Nazaret qishlog‘ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi.

Bu davrda Falastin ham Rim imperiyasining mustamlakasi bo‘lgan. Ayni paytda, imperiya og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirayotgan edi. Buning asosiy sababi – nihoyatda kam unumli quzdorlik ishlab chiqarish usuli imperiyada iqtisodiy taraqqiyotni deyarli to‘xtatib qo‘yanligi edi.

Imperiya hukmron tabaqalari inqirozning oldini olish uchun yanada ko‘proq serdaromad o‘lkalarni bosib olish siyosatini yuritdilar. Qullarni va mustamlaka qilingan mamlakatlar xalqlarini ekspluatatsiya qilishni kuchaytirdilar. Oqibatda, ular ozod bo‘lish uchun ilohiy xaloskordan madad kuta boshladilar. Ana shuday vaqtida milliy va tabaqaviy chegarani tan olmaydigan, mazlumlarga taskin bera oladigan yangi din – xristianlik vujudga keldi.

Iso Masih yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g‘oyasi bilan chiqdi va xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va izdoshlarini Falastindan quvg‘in qildilar. Iso Masih 33 yoshida fitnachilikda abyblanib, qatl etishga hukm qilindi.

Vaqtlar o‘tishi bilan hukmron tabaqalar ham xristianlik dinini qabul qildilar va nihoyat milodiy 324-yilda xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e’lon qilindi. Chunki imperatorga imperiyani bo‘lib yuboradigan emas, aksincha, ularni bir-biriga yaqinlashtiradigan din zarur edi.

Xristianlikning muqaddas manbasi

Xristianlikning muqaddas manbasi “Bibliya” (yunoncha – “kitob”) bo‘lib, uning xristianlar uchun eng muqaddas qismi “Injil” (yun. yevangelion – xushxabar) deb ataladi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona “Najotkor” hisoblanmish Iso Masihning yer yuziga

yuborilishi, voyaga yetishi, o‘z davatini boshlashi, shogirdlari hamda qatl etilishi haqida hikoya qilinadi. Bugungi kunda “Injil”larning umume’tirof etilgan 4 nusxasi mavjud. Ular o‘z mualliflari nomi bilan Mark, Matto, Luqo va Yuhanno Injillari deb nomланади.

Xristianlik Ota-xudo, O‘gil-xudo va Muqaddas ruh – uch ko‘rinishga ega xudo to‘g‘risidagi ta’limotni, jannat va do‘zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarini o‘z ichiga oladi.



O‘zingni qanday sevsang, yaqinlaringni ham shunday sev.

Matto Injili

Xristianlikning diniy marosimlari

Xristianlikda “yetti sirli marosim”, deb ataluvchi marosimlar katta o‘rin egallaydi. Ular 1279-yilda uzilkesil xristianlikning marosimi sifatida tasdiqlangan. Xristianlik ta’limotiga ko‘ra bu marosimlarni bajarish chog‘ida Muqaddas Ruh – Xudo qatnashadi, lekin qavmlar buni sezmaydilar. Shuning uchun ham ular “sirli” deb ataladi. Quyida ular haqida bilib olasiz:

Cho‘qintirish. Cho‘qintirish marosimi xristian dinining eng muhim va asosiy marosimlaridan biridir. Bu marosim asosan cherkovda o‘tkaziladi. Xristianlar ta’limotiga ko‘ra, inson tug‘ma gunohkor. Undan forig‘ bo‘lish uchun bola muqaddas suv bilan poklanishi lozim. Poklangan bola cherkov a’zoligiga qabul qilinadi.

Xristianlikda cho‘qintirish marosimi milodning I asri oxirlarida paydo bo‘lgan. IV asrda birinchi xristian jahon soborining qaroriga muvofiq, bu marosim har bir xristian uchun majburiy deb belgilangan.

Non va sharob totish xristianlikdagisi ikkinchi sirli marosim hisoblanadi. Yunon tilida “yevxaristiya” deb ataladigan mazkur marosim, xochga mixlanishdan oldin Isoning favoriyalar bilan so‘nggi bor birga kechki ovqatni

Bibliya – xristianlikning muqaddas kitobi.

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jumlanı o‘qing va savollarga javob bering.

1.Ko‘chat ekish, to‘g‘ri so‘z bo‘lish, ota-onani e’zozlash kabilarning bir-biriga qanday bog‘liqlik tomoni bor?

2.”...Yaxshilik va savob amallarni bajarish” degan iborani qanday tushunasiz?

3.Qanday ishlarni yaxshilik va savob deyishadi?

“O‘zingga va farzandalaringga yaxshilik tilasang, xudo yo‘lida yaxshilik va savob amallarni bajar”.

 Har qanday adashish halokatlidir. G‘azab va jahl ostidagi adashish esa ikki karra halokatliroq.

Plutarx



**Cherkovda chaqaloqni
cho'qintirish.**

Xristianlar non bilan sharobni tanovul qilar ekanlar, bu bilan ular Isoning tanasi va qonini tatif ko'rdik, endi xudoga yaqinroq bo'ldik, deb hisoblaydilar.



Non va sharob totish.



**Ruhoniy huzurida tavba
qilish.**

tanovul qilganini xotirlab turish uchun o'tkaziladi. Bu marosim ertalab yoki tushki ibodatda asosiy o'rinni egallaydi. Unda Isoning qoni sifatida maxsus tayyorlangan vino hamda tanasi sifatida non tanovul qilinadi.

Miro moyi surtish marosimi. Zaytun yog'idan tayyorlangan muqaddas moy surtish sirli marosimlardan yana biri bo'lib, u havoriyalar davrida joriy etilgan.

Miro moyi – (yunoncha – xushbo'y moy) ruhoniy tomonidan oliy navli zaytun yog'iga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi mahsulotlarni qo'shib qaynatish orqali tayyorlanadi.

Miro surtilgan bola, ilohiy muruvvatga erishadi deb hisoblanadi.

Tavba-tazarru qilish marosimi. Bu marosimni bajarish chog'ida inson o'zi qilgan gunohlariga iqror bo'lishi, keyinchalik shu gunohlarni qilmaslik uchun mag'firat so'rashi lozim. Buning uchun u cherkovga kelib, qilgan gunohlari uchun tavba qiladi. Cherkov nomidan gunohlarni kechirish huquqiga ega bo'lgan ruhoniy uning gunohlaridan o'tadi va nasihat qilib, uni to'g'ri yo'lga soladi.

Yeley (muqaddas zaytun yog'i) surtish marosimi. Muqaddaslashtirilgan zaytun yog'i shifobaxsh xususiyatga ega. Shuning uchun u bemorning peshonasiga, yonog'iga, labiga, ko'krak qismi va qo'llariga surtiladi. Shu orqali inson jismonan va ruhan davolanadi. Tavbasiga tayanib ulgurmagan bandalarni gunohlaridan xalos etadi, deb ishoniladi.

Ruhoniy unvonini berish marosimi. Bu ruhoniylig martabasiga ko'tarilish bilan bog'liq marosimdir. Diniy ta'limotga ko'ra, ruhoniy bo'ladigan shaxsning boshiba yepiskop qo'l tekkizganidan keyin, u "Muqaddas Ruh"ning alohida marhamati bilan odamlar o'rtasida vositachilik qilish xususiyatiga ega bo'ladi. Shundan so'ng mazkur inson xuddi Isoga uning havoriyalari xizmat qil-

ganidek, o'z zimmasiga Xudo va odamlar orasida vosita-chi bo'lib xizmat qilish majburiyatini oladi.

Nikoh marosimi. Bu marosim oila qurishni cherkov nikohi orqali rasmiylashtirishni nazarda tutadi. Marosim chog'ida bo'lajak tur mush quruvchilar bir-birlariga sodiq bo'lish haqida va'da beradilar. Marosim bo'lajak farzanding eson-omon dunyoga kelishini ta'minlaydi va uning xristianlik tarbiyasini olishiga xizmat qiladi. Xudo nikohni himoya qiladi, deb ishoniladi.

Xristianlik dinida ruhoniylik unvonlari – dyakon (yunoncha xizmatchi), presviter (lotincha oqso-qol), yepiskop (yunoncha nazoratchi) kabi uch turli darajaga ega.



**Ruhoniy unvonini berish
marosimi.**

Xristianlik bayramlari

Rojdestvo va pasxa xristianlikda keng nishonlanadigan eng asosiy bayramlar hisoblanadi.

Rojdestvo – Isoning tug'ilganligi sharafiga o'tkaziladi.

Xristian ta'limotiga ko'ra, rojdestvo kuni uch mahal (quyosh chiqayotganda, ertalab va kunduzi) ibodat qilinadi.

Rojdestvo oilaviy bayram bo'lib, bu kunda faqat maxsus taomlargina (baliq, meva, sabzavotlar va shirinliklar) dasturxonga tortiladi. Osmonda birinchi o'nta yulduz paydo bo'lganda ibodatxonalarda bayram marosimlarini o'tkazish boshlanadi.

Cherkov tomonidan Isoning tug'ilishini bayram qilish IV asrdan boshlangan.

Pasxa. Bu bayram Iso Masihning qayta tirilganligi sharafiga nishonlanadi.

Xristianlik ta'limotiga ko'ra, Iso Masih juma kuni kechqurun vafot etgan. Uni yakshanba kuni dafn etmoqchi bo'lishadi. Bir qancha ayollar Iso Masihning qabri oldiga ibodat qilish uchun keladilar. Ular orasida Mariya Magdalena ismli ayol farishtani ko'rgani va farishta Iso Masihning qayta tirilgani haqida xabar bergenligini aytadi. Natijada bu xabar tez orada hamma joyga tarqaydi. Mariya Magdalena Rim imperatori huzuriga borganida, unga qizil rangga bo'yalgan tuxumni

Rojdestvo bayramini katolik va protestantlar 25-dekabrda, rus pravoslav cherkovida esa uni 7-yanvarda bayram qilishiadi.


Katoliklar **Pasxa** bayramini 22-mart – 25-aprel oralig'ida, pravoslavlari 4-aprel – 8-may oralig'ida nishonlaydilar.



Pasxa uchun tayyorlan-gan tuxumlar.



Xristianlikka e'tiqod qiluvchi-larning soni 2 mlrd. 300 mln. kishini tashkil etadi.



Ijodiy faoliyat Ushbu matnlarni o'qing va munosabat bildiring.

"Odamlarni ayblamang, shunda siz ham ayblanmaysiz, aks holda ularni qanday ayblagan bo'lsangiz, siz ham shunday ayblanasiz. O'zgalarning aybini qaysi qarichda o'lchasangiz, sizni ham o'sha mezonda o'lchanadi".

Niyating – yo'Idoshing

Rivoyat qilishlaricha, Iso Masih mayitni tiriltirgach ixlosmandlari singari hasadgo'y raqiblari ham ko'payib ketadi. Shundaylardan biri "Mayitni tiriltiradigan duoni menga ham o'rgatasan", deb turib olibdi. Iso Masih bu kimsaning niyati noplkligini bilgani uchun rad etibdi. Boyagi odam yalinib-yolvoribdi, ming tavallo qilibdi, oxiri uni firibgarlikda ayblabdi... Iso Masih "Kel shu ham noumid bo'lmay qo'yaqolsin", deb duoni o'rgatibdi.

Boyagi odam yo'lda ketayotib, Iso meni bari bir aldadi, o'rgatgan duosi yolg'on, deb o'ylabdi. Qarasa yerda bir bo'lak suyak yotganmish. Duo kuchini sinash uchun o'qigan ekan, suyak bir zumda bayaybat sherga aylanibdi-da uni parchalab tashlabdi.

Yaxshilikdan yomonlik izlashning jazosi shu bo'lsa kerak...

O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"

ko'rsatadi va "Iso qayta tirildi", deydi. Shuning uchun xristianlar tuxumni barcha tug'ilishlarning avvali, deb hisoblaydilar. Shundan beri "Pasxa" bayramida tuxumni bo'yab, bir-biriga taqdim qilish odat tusiga kirgan. Bu bayram yetti kun davom etadi.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Xristianlik dini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan tarixiy shart-sharoitlar haqida so'zlab bering.
2. Qanday sabablarga ko'ra xristianlik davlat diniga aylangan?
3. Xristianlikda qanday diniy marosimlar mavjud?
4. Xristianlikning muqaddas manbalari qanday nomlangan?
5. "Pasxa" bayramida tuxumni bo'yab, bir-biriga taqdim etish qanday ma'noni anglatadi?

12-MAVZU

XRISTIANLIK YO'NALISHLARI



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Rim imperiyasining bo'linishi qanday oqibatlarga olib kelgandi?
2. Xristianlikning bo'linishiga nimalar sabab bo'lgan?
3. Katolik, pravoslav, protestant deganda nimani tushunasiz?
4. Yevropadagi reformatsiya Germaniyada qanday oqibatlarga olib kelgan edi?

Xristianlik cherkovining bo'linishi

G'arbiy Rim imperiyasining qulashi xristianlikning keyingi taqdiriga katta ta'sir ko'rsatdi. Imperiya qulashiga qadar Rim cherkovini yepiskop boshqargan. Imperiya qulagach (476-yilda) Rimdagi dunyoviy hokimiyat ham cherkovning qo'liga o'tgan. Huddi shu vaqtan boshlab Rim yepiskopi Rim papasi unvonini oldi.

Imperiyaning sharqiy qismi – Vizantiyada esa, kuchli imperator hokimiyatining saqlanib qolganligi Vizantiya cherkovining (Konstantinopol) cheklanmagan huquqqa ega bo'lib olishiga imkon bermadi. Vizantiyada cherkov imperatorga bo'ysundirildi. Natijada Rim cherkovi Konstantinopol cherkovini o'ziga bo'ysindira olmadni. Xristian cherkovining katolik va pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim Papasi va Konstantinopol Patriarxining xristian olamida yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida yuz berdi.

Katoliklik

867-yilda Papa Nikolay va Konstantinopol Patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi va bu ajralish 1054-yili rasman tan olindi. Ulardan biri Rim Papasiga bo'ysunuvchi katolik (butun dunyo) cherkovi, ikkinchisi esa Konstantinopol Patriarxiga bo'ysunuvchi pravoslav (chin e'tiqod) cherkovi degan nomni oldi.

Katoliklik Yevropa, Amerika qit'asi davlatlarida keng tarqalgan. Afrikadagi qator mamlakatlarda va Lotin Amerikasi davlatlarida asosiy e'tiqod shakli, Vatikan

Katoliklik (Katolitsizm) (yunoncha – "butun dunyo") 1054-yilda xristianlikning ikkita – g'arbiy va sharqiy cherkovga bo'linishi natijasida tashkil topgan.

Dunyoda kato liklikka tax minan 1,2 milliard kishi e'tiqod qiladi.

Rim Papasi – yashirin ovoz berish yo'li bilan umrbod muddatga saylanadi.

Ustozlar samo yoritgichi kabi yog'du socha veradilar, ezzulik yo'lini ko'rsatuvchilar yulduzlarga o'xshab mudom va mangu charaqlab turaveradilar.

Injil



Katoliklikning markazi
joylashgan Vatikan
shahar-davlati.



Ijodiy faoliyat

“Indulgensiya” – pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirishning vujudga kelishi o’rtalarda qanday oqibatlarga olib keldi?

Saxylik inom etilgan narsalarning miqdori bilan emas, balki o’z vaqtida berilishi bilan o’lchanadi.

Jan de Labryuyer

davlatida esa rasmiy din hisoblanadi.

Katoliklik ta’limotiga ko’ra, cherkov ezgu, xayrli ishlar xazinasiga ega. Cherkov bu xazinani tasarruf qilish, uni ulashish orqali gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tuhfa qilish huquqiga ega. Bu huquq “indulgensiya”lar to‘g’risidagi ta’limotning, ya’ni pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirishning vujudga kelishiga sabab bo’lgan.

Katoliklikning o’ziga xos xususiyatlari:

- nikohning qat’iy hisoblanishi (katoliklik aqidasiga binoan nikoh osmonda tuziladi va yerdagilar uni buzish huquqiga ega emaslar);
- Bibi Maryamning xudodan gunohlarni so‘rab beruvchi sifatlarining ko‘proq e’zozlanishi;
- marosimlarning teatrlashtirilgan tarzda, dabdabali, kishilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir etadigan darajada o’tkazilishi, marosim chog‘ida qo‘shiq bilan birga organ musiqasidan ham foydalanimishi;
- ibodatxonalarining rasm va haykallar bilan bezatilishi, avliyolar va jafokashlarning ibodatlarini ifoda etuvchi turli muqaddas yodgorliklarning e’zozlanishi.

756-yilda Franklar davlati qiroli Pipen Pakana Rim viloyatini Papaga hadya etdi. Shu vaqtidan boshlab u Papa viloyati deb atala boshladi. Yer hadya etilishi Papa dunyoviy hokimiyatining ham yuzaga kelishiga sabab bo’ldi.

1870-yilda Italiya inqilobi Papani dunyoviy hokimiyatdan mahrum etdi. Shu yili Rim shahrining Vatikan deb ataluvchi qismi Papaning qarargohi etib belgilandi.

Vatikan hududida turli saroylar va ibodatxonalar, shuningdek, mashhur Pyotr sobori, ya’ni katolik olamining bosh cherkovi joylashgan. Vatikan jami katolik cherkovlari markazlari bo‘lib, Rim Papasi ana shu yerdan turib rahbarlik qiladi.

Vatikan boshlig‘i bo‘lgan Rim Papasi – mutlaq monarx hokimiyatiga ega. Papa kardinallar, ya’ni ruhoniylarning oliy hay’ati tomonidan umrbod muddatga sayylanadi. Papalik mansabiga nomzod bo‘lgan ruhoniy saylanishi uchun ovozlarning 3 dan 2 qismini va yana bir ovoz olishi kerak. Saylovdan o’tgan nomzod o‘z ismidan voz kechadi va o‘ziga yangi ism oladi.

1523-yildan to 1978-yilgacha papalar faqat italyan millati vakillaridan saylanib kelindi. 1978-yilda bu an’ana buzildi. Polsha ruhoniysi Karol Voitila Papa etib saylandi. Bugungi kunda Rim Papasi argentinalik Fransisk (Xorxe Mario Bergolyo)dir.

Pravoslavlik

Pravoslavlik tarixan xristianlikning sharqiy yo‘nalishi sifatida shakllandi. U asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan.

“Pravoslav” atamasi yunoncha “ortodoksiya” so‘zidan olingan bo‘lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslavlikning manbaviy asoslari Vizantiyada shakllandi.

Pravoslavlikda yagona markaz hozirga qadar yo‘q. Bugungi kunda dunyoda 15 ta avtokefal (ya’ni mustaqil) – Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya-Slovakiya, Rus, Amerika va 4 ta avtonom maqomga ega pravoslav cherkovlari mavjud. Ular umumcherkov ahamiyatiga molik masalalarni hal etishda bir-birlari bilan aloqada bo‘lib turadilar.

Pravoslavlikda diakon, yepiskop, mitropolit, patriarch kabi diniy rutbalar mavjud. Poytaxt shaharlarning yepiskoplari “mitropolit” deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng olyi mansabi Patriarxdir.

Xristianlikning 7 sirli marosimi pravoslavlikning ham asosini tashkil etadi. Faqat ularning bajarilishida katoliklar bilan pravoslavlар orasida ba’zi bir farqlar bor.

1929-yildan boshlab Vatikan shahar-davlat maqomiga ega bo‘ldi.

Vatikan Birlashgan Millatlar Tashkilotining a’zosi. Vatkanning o‘z bayrog‘i, gimni, puli, markasi, jandarmeriyasi, tribunallari, razvedka xizmatlari bor. Vatikan o‘z fuqarolariga ega.

Pravoslavlik – rus tilida chin e’tiqod, degan ma’noni bildiradi.

Dunyo bo‘yicha pravoslavlikka e’tiqod qiluvchilar soni taxminan 240 million hisoblanadi.



Pravoslav cherkovi Patriarxlari.



Toshkentdagi
Svyato-Uspensk
kafedral sobori.



Belorusiyadagi
protestantlik cherkovi.



Martin Lyuter shahar sobori
darvozasiga indulgensiyalar
savdosini tanqid qilgan 95
moddadan iborat tezislarini
osib qo'ymoqda.



Haqiqiy tavba
uzoq muddatli
jarayondir,

u
birgina xatti-
harakat bilan ro'yobga
chimaydi.

Martin Lyuter

Pravoslavlikda ibodat asosan mahalliy tillarda olib boriladi. Rojdestvo, Pasxa kabi umumxristian bayramlari pravoslavlikning ham asosiy bayramlari hisoblanadi.

Cherkovlar bo'linganidan so'ng katoliklar tomonidan qabul qilingan aqidalarni pravoslavlar xato, "Muqaddas yozuv" va "Muqaddas rivoyatlar"ga zid, deb hisoblaydilar. Shuningdek, katoliklar tomonidan qabul qilingan bayramlarni ham pravoslavlar nishonlamaydilar.

Protestantlik

Protestantlik XVI asrda katoliklik yo'nalishida ro'y bergan bo'linish natijasida paydo bo'ldi. Protestantlikning vujudga kelishi Yevropada katoliklikka qarshi qaratilgan islohotchilik (reformatsiya) harakatining natijasi bo'ldi. Protestantlik ko'plab mustaqil cherkovlarni o'z ichiga oladi.

Protestantlik AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Kanada, Shvetsariya, Skandinaviya, Latviya va Estoniya mamlakatlarida keng tarqalgan.

Katoliklik cherkovi tomonidan XV-XVI asrlarda indulgensiya savdolarining avj oldirilishi oqibatida cherkovning xalq orasida obro'si tushib bordi. 1517-yil 31-oktyabrda Vittenberglik ruhoniylar Martin Lyuter shahar sobori darvozasiga indulgensiyalar savdosini tanqid qilgan 95 moddadan iborat tezislarini osib qo'yadi.

Lyuter xristianlik aqidalari hammaga to'liq tushunarli bo'lishi uchun "Bibliya"ning milliy tillarga tarjima etilishini, cherkovdagi diniy xizmatlar ona tilida olib borilishini yoqlagan. Ba'zi knyazlar va shahar vakillari lyuteranlikni qo'llab, "Protestatsiya"ga imzo chekdilar. Protestantlik degan nom mana shundan kelib chiqqan.

Protestantlik ta'limotining o'ziga xos xususiyatlari

Protestantlik xudoning mavjudligi, uning uch qiyofada namoyon bo'lishi, ruhning abadiyligi, jannat va do'zax, vahiy va ilohiy taqdir to'g'risidagi umumxristian aqidalarini tan oladi. Shu bilan birga, protestantlik:

- cherkovning insonlar bilan xudo orasidagi vositachi ekanini inkor etadi;

- ruhoniylar va oddiy kishilar orasidagi tabaqlanishni rad qiladi;

- avliyolar, xoch va ikonalarga sig'inishni noto'g'ri deb hisoblaydi;

- ko'p mablag' talab qiladigan tadbirlarni asossiz deb biladi;

- ruhoniylarning uylanmasligini inkor etadi.

Bugungi kunda protestantlar soni taxminan 700 millionni tashkil etadi.

Protestantlik (Protestantizm) – lotincha norozi bo'lish, kelishmaslik, ma'nosini bildiradi.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nega xristianlikda bo'linish yuz berganligining sabablarini tushuntirib bering.
2. Katoliklik va pravoslavlik ta'limotlaridagi mushtarak va farqli jihatlari haqida so'zlab bering.
3. Protestantlikning paydo bo'lishi va Yevropadagi reformatsiyaning o'rtaida qanday aloqadorlik bor?

Mustaqil ish

Quyidagi jadvalni to'ldiring.

	Pravoslavlik	Katoliklik	Protestantlik
Ta'limoti			
Paydo bo'lgan vaqtি			
Asoschilari			
O'xshashligi			
O'ziga xosligi			
Markazlari			
E'tiqod qiluvchilar soni			

TAKRORLASH UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Xristianlik dini qachon va qayerda vujudga keldi?

- a) Falastinda, milodiy I asrda
- b) Falastinda, mil. av. I asrda
- c) Falastinda, milodiy III asrda
- d) Rimda, milodiy I asrda

2. Xristianlik birinchi marta qaysi mamlakatning davlat dini deb e'lon qilingan?

- a) Falastin
- b) Vizantiya imperiyasi
- c) Konstantinopol
- d) Rim imperiyasi

3. Quyidagilardan qaysi biri xristianlikdagi oqimlardan emas?

- a) katolik
- b) ralvinizm
- c) sionizm
- d) baptizm

4. Qaysi bandda xristianlik tarixidagi eng birinchi bo'linish sanasi to'g'ri keltirilgan?

- a) 1054-yil
- b) 1154-yil
- c) 1052-yil
- d) 1152-yil

5. Xristianlik qachon Rim imperiyasining davlat diniga aylandi?

- a) milodiy IV asrda
- b) milodiy I asrda
- c) milodiy XI asrda
- d) milodiy II asrda

6. Pasxa qanday bayram?

- a) Yahudiylarning Misrdan ozod bo'lishi bilan bog'liq bayram
- b) Iso Masihning qayta tirilishi bilan bog'liq bayram
- c) Musoga berilgan "o'nta amr" bilan bog'liq bayram
- d) hinduiylikning asosiy bayrami

7. XIII asrda bid'at (yeres) bilan kurashish uchun tuzilgan katolik cherkovi tribunali nima deb atalgan?

- a) indulgensiya
- b) inkvizitsiya
- c) inaguratsiya
- d) konklav

13-MAVZU

ISLOM DINI TARIXI VA TA'LIMOTI



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Muhammad ibn Abdulloh haqida nimalarни bilasiz?
2. Islom dinining vujudga kelishi arafasida Arabiston yarimorolida qanday tarixiy voqealar yuz bergan?
3. VII asrda arab qabilalarining ijtimoiy hayoti qanday bo'lgan?
4. Quyidagi rasmlar haqida nimalarни bilasiz? Ular bilan islom dinining qanday aloqasi bor?



VI asr oxiri – VII asr boshlarida arab jamiyatidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit


Arabiston yarimorolining Makka, Madina, Toif va Xaybar singari qator shaharlarini o'z ichiga olgan qismi Hijoz deb atalgan.

Milodning VI asriga kelib Makka shahri Arabistonning eng yirik markaziga aylangan. U deyarli hamma tomoni darali tog'lar bilan o'rالgan vodiyya joylashgan. Shuning uchun ham bu yerda hech qachon shahar atrofiga devor qurish zarurati bo'lmagan. Allohnning uyideb hisoblanuvchi Ka'ba (Ibrohim payg'ambar va uning o'g'li Ismoil qurgan. Arablar undan ibodatxona sifatida foydalanishgan) bora-bora Makkani arablarning muqaddas joyiga aylantirgan.

VI asr oxiri – VII asr boshlarida arablar katta-kichik qabilalarga bo'lingan holda turli xil nomdag'i but-sanamlarga sig'inar edilar. O'sha davrda Makka shahridagi Ka'baning atrofida 360 ta but va sanamlar mavjud bo'lgan.

Mashhur tarixchi Ibn Kalbiyning qadimgi arablar dinlariga bag'ishlab yozgan "Butlar haqidagi kitob"ida

Islom dini payg'ambari Muhammad ibn Abdulloh (s.a.v.) tomonidan Arabistonda targ'ib etilgan.



Makka shahrining qadimiy ko'rinishi.



**Qadimgi arablar
topingan butlar.**

Johiliyat – Arabiston yarimorolida islam dini vujudga kelishi arafasidagi davrga berilgan nom.

arab xalqining islomga qadar bir necha hayvonlarni ilohiyashtirganliklari haqida xabar beriladi. Jumladan, Yag‘us – sher, Ya’uq – ot va Nasr – burgut qiyofasida ifodalangan.

Arabiston tarixining mazkur davri “Johiliyat davri” deb ataladi. Johiliyat davrida inson huquqlariga umuman rioya qilinmas, qul va asirlarning ahvoli o‘ta achinarli, ayollar haq-huquqlardan butunlay mahrum qilingan edi. Qiz bolalarni tiriklayin ko‘mish, axloqsizlik kabi salbiy odatlar avj olgan edi.

Qabilalar o‘rtasida tez-tez urushlar bo‘lishi ularning tashqi dushmanlarga qarshi kurashini susaytirmoqda edi. Bu esa, arab qabilalarini yagona davlatga birlashtirishni zaruratga aylantirib qo‘ydi. Mana shunday vaziyatda Islom dini nafaqat insonlar orasida tarqalgan axloqsizlik va jaholatga, balki siyosiy parokandalikka, besamar urushlarga ham yechim bo‘lishi kerak edi.

Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) hayoti va faoliyati

Islom dinining payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukmonlik qilayotgan Makka shahrida, 570-yilda Quraysh qabilasining obro‘li Abdulmuttalib xonardonida dunyoga kelgan.

Otasi Abdulloh va onasi Ominadan erta yetim qolgan Muhammad (s.a.v.) dastlab bobosi Abdulmuttalib, keyinchalik amakisi Abu Tolib qo‘lida tarbiyalanadi. Muhammadning (s.a.v.) to‘g‘ri so‘zligi, birovni aldamasligi, doimo rost so‘zlashi qabiladoshlari tomonidan e’tirof etilib, ismlariga “Amin” (ishonchli) qo‘shimchasini qo‘sib chaqirganlar.

610-yilda Muhammad (s.a.v.) 40 yoshga to‘ladi. Shu yili Ramazon oyining 17-kunida Makka shahrining Nur tog‘idagi “Hiro” g‘orida Muhammad (s.a.v.)ga ilk vahiy kelganligi islam dini manbalarida qayd etiladi. Shundan so‘ng u o‘z yaqinlariga islam dini mohiyatini yetkaza boshladi.

Islom – Allohning yago-naligiga ishonmoqlik va butun qalb bilan unga bo‘ysunmoqlik hamda ix-los qilmoqlik, Muhammad (s.a.v.)ning payg‘ambar ekaniga, Alloh buyur-gan diniy e’tiqodga imon keltirmoqlik dinidir.

Ijodiy faoliyat

Matnni o‘qing.

- 1. Oqilona hukm nimadan iborat bo‘lganligini izohlang.**
- 2. Bu voqeani hamjihatlik, tenglik, muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi tamoyillar bilan bog‘lang.**

Adolatli yechim: urushning oldi olindi

605-yil Ka’bani ta’mirlash jarayonida qabilalar o‘rtasida “Hajarul-Asvat” (“Qora tosh”)ni o‘z o‘rniga qo‘yish borasida janjal chiqdi. Bu janjal o‘ta jiddiy tus olib, urush darajasiga ham yetdi. Mazkur masala Muhammad (s.a.v.) tomonidan oqilona yechimini topdi. U kishi bir matoni yerga solib, unga “Hajarul-Asvat”ni qo‘ydilar. Muhammad (s.a.v.) qabila boshliqlariga matoni chetidan ushlab barobar ko‘tarishga buyurdilar. Ular shunday qilib toshni o‘z o‘rniga olib borgach, o‘zlar toshni joyiga qo‘ydilar. Butun kelishmovchiliklar bir zumda bitdi, bema’ni urushning oldi olindi, hamma bu adolatli hukmdan rozi bo‘ldi. “Al-Aminadolatli, oqilona hukm chiqardi”, – dedilar.

Islom dinini qabul qilganlarning safi kundan kunga ortib bordi. Bu esa makkalik zodagonlarga yoqmadı. Ular musulmonlarga tazyiq o‘tkaza boshladilar. Ushbu og‘ir vaziyatdan qutulish maqsadida musulmonlarning bir qismi Makkadan Habashiston (hozirgi Efiopiya)ga ko‘chib o‘tdilar. Bu islam tarixida “birinchi hijrat” nomini oldi.

622-yilda, dushmanlarning navbatdagi tajovuzidan so‘ng, Muhammad (s.a.v.) o‘z safdoshlari bilan Makkadan Madinaga ko‘chdilar. Islom tarixida bu ko‘chish “Madinaga hijrat” deb ataladi.

Muhammad (s.a.v.) 632-yilda haj ibodatini amalgalashirganlar. Haj safari 10 kun davom etdi. Manbalarda ta’kidlanishicha, Muhammad Rasululloh tuya ustida o‘tirib, hajga to‘plangan musulmonlarga qarata muborak nutq so‘zladilar. Bu nutq “Vido xutbasi” ham deyiladi. Payg‘ambarning bu hajlari islam tarixida – “Vidolashuv haji” deb yuritiladi.

Muhammad (s.a.v.) “Vidolashuv haji”dan Madinaga qaytgach, milodiy 632-yilning 27-mayida 63 yoshda vafot etdilar.

622-yilda musulmonlarning Makkadan Madinaga ko‘chishi hijriy yil hisobiga asos qilib olin-gan.



Komil inson har bir odamning komil bo‘lishi uchun qayg‘uradi.

Van Shoujen

Alloh islam ta'lomitiga ko'ra, dunyodagi barcha mayjudotlarni yaratgan Zotdir. Allohnin hech kim bor qilgan emas, U o'zidan o'zi bordir.

Farishtalar – Allohnin nihoyatda itoatli, gunohsiz, nurdan yaratilgan, odamlar ko'ziga ko'rinxmaydigan bandalaridir.



Ijodiy faoliyat

Matnni o'qing.

1. Matnda inson huquqlarini himoya qilishga oid bo'lgan jihatlarga e'tibor qarating.
2. VII asrda dunyoning boshqa mamlakatlaridagi holat bilan taqqoslang.
3. Matndagi "*Ey insonlar! Har bir jinoyatchi o'z aybiga faqat o'zi javobgardir.*

Hech bir jinoyatchining gunohi uchun avlodi jazoga tortilmaydi..." jumlasini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining I bobidagi "adolat, tenglik, qonunning ustuvorligi" kabi qoidalar bilan solishtiring.

4. "Qullarga kelsak, ularga yegan narsalaringizdan bering va kiyganlaringizdan kiydiring. Ular ham Allohnin qullaridir va yomon muomalaga loyiq emaslar", degan jumlanı 1948-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" bilan mutanosib jihatlarini ko'rsating.

"Ey insonlar!.. Bu kuningiz (qurbanlik kuni) qanday muqaddas bo'lsa, bu shahrimiz qanday muqaddas shahar bo'lsa, bilingizki, jonlaringiz va mollaringiz ham shu kabi muqaddasdir. Bularga qilingan har qanday tajovuz haromdir.

Hushingizni yig'ib oling! Bilingizki, zinhor-bazinhor mendan keyin eski adashuvga qaytib, bir-biringizning bo'yningizni kesmang!

Qullarga kelsak, ularga yegan narsalaringizdan bering va kiyganlaringizdan kiydiring. Ular ham Allohnin qullaridir va yomon muomalaga loyiq emaslar.

Eski johiliyat davridan qolgan hamma qon da'volari batamom bekor qilindi.

Kimning yonida bir omonat bo'lsa, uni egasiga qaytarib bersin.

Ey insonlar! Ayollarning haqlariga rioya eting. Ular bilan mehr-shafqat ila muomalada bo'ling. Ularning haqlari xususida Allohdan qo'rqing! Ayollar Sizga Allohnin omonatidir...

Islom dini ta'lomit

Islom dini ta'lomitiga ko'ra, bu dinning 5 ta arkon (ustun) mayjud. Ular imon, namoz, ro'za, zakot va hajdir.

Imon deganda quyidagi 7 narsaga ishonish tushuniladi:
1) Allohga; 2) farishtalarga; 3) muqaddas kitoblarga;
4) payg'ambarlarga; 5) oxiratga; 6) taqdirga; 7) o'lgandan keyin tirilishga.

Islom dinini qabul qilmoqchi bo'lgan kishi Allohga va uning payg'ambari Muhammad (s.a.v.)ga imon keltirish kalimasi "Kalimayi shahodat"ni aytishi talab etiladi. Kalimayi shahodat Allohdan o'zga xudo yo'qligiga va

Muhammad (s.a.v) uning bandasi va payg'ambari, rasuli ekanligiga shohidlik beraman, demaklikdir.

Namoz. Namoz ibodati kuniga 5 mahal o'qiladi. Namoz Allohga shukronalik ramzi sifatida ado etiladi. Namozlar farz, vojib, sunnat va nafl namozlariga bo'linadi.

Ro'za. Ro'za savob umidida erta tongdan to kun botishiga qadar tutiladigan ibodat. Ro'za tutgan kishi kun davomida yeyish va ichishdan, yomon so'zlarni gapirishdan, boshqa gunoh ishlardan tiyiladi.

Musulmonlar Ramazon oyida ro'za tutadilar. Ramazon oyi oxirida fitr sadaqasi (fitr ro'za) beriladi.

Zakot. Zakot moli nisobga (ma'lum miqdorga) yetgan musulmonlarning faqir-u miskinlarga berilishi shart bo'lgan to'lovidir.

Haj. Haj – Ka'batulloh atrofida tavof qilish, ya'ni aylanish, Safo va Marva tepaliklari orasida yugurish, Arafot vodiysida bo'lish va ibodat bilan bog'liq zarur marosimlarni ado qilishdan iborat bo'llib, qodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marotaba Makka shahriga ziyoratga borishdir.

Islom bayramlari

Islomning asosiy bayramlari *Iyd al-fitr va Iyd al-adha* hisoblanadi. Bizning yurtimizda bu bayramlar Ramazon hayiti va Qurban hayiti deb ataladi.

Ramazon hayitida 30 kun ro'za tutgan musulmonlar zimmalariga yuklatilgan farz amalini sog'-salomat ado etib tugatganlari munosabati bilan bir-birlariga xursandchilik izhor etadilar. Bu kuni hayit namozi o'qiladi. Namozlarni ado etib bo'lgandan so'ng, kishilar o'zaro ko'rishib, bir-birlarini hayit bayrami bilan muborakbod etadilar, sovg'alar ulashadilar.

Qurban hayiti kunida esa hayit namozi o'qilishi bilan birga, qurbanlik qilinadi. Qurbanlik – qurbi yetgan kishi Allohga roziligi yo'lida Qurban hayiti kunlari biror jonliq (qo'y, echki, sigir, tuya) so'yishidir. Qurbanlik Alloh yo'liga bag'ishlanadi. Qurbanlik go'shtidan o'zi,


Islom ta'lomitiga ko'ra, **Tavrot**, **Zabur**, **Injil** va **Qur'on** kitoblari muqaddas hisoblanadi. **Qur'on** Alloh tomonidan tushirilgan so'nggi muqaddas kitob bo'llib, u o'zidan oldingi muqaddas kitoblarning hukmini bekor qilgan.

Fitr sadaqasi – o'ziga to'q musulmonlarning muhtoj va hojatmandlar uchun Ramazon oyida beradigan xayr-u ehsonlaridir.

Nisob – belgilangan ma'lum miqdor, pul hisobida 85 gram tilla miqdoriga teng. Mablag'i nisobga yetgan musulmon bir yilda bir marta zakot beradi.

 Hech bir ota o'z farzandiga xulqi-odobdan buyukroq meros bera olmaydi.

Xalq hikmati



Aql bilan man-sabga erishish mumkin, man-sab bilan aqlga erishib bo'lmaydi.

oila a'zolari iste'mol qilishlari mumkin. Shuningdek, qurbanlik go'shtidan muhtoj kishilarga beriladi.

Bu bayramlarni xursandchilik, tinch-totuvlik, shukronalik bilan o'tkazish buyurilgan. Bu ulug' kunlarda qarindoshlar, yor-u birodarlar bir-birlarini ziyyarat qilishi, tabriklashi, hol-ahvol so'rashlari lozim.

Alloh Ibrohim (a.s.)ning sadoqatini sinab ko'rish uchun o'z o'g'li Ismoilni qurban qilishni buyurgan. Ibrohim (a.s.) buyruqqa itoat etib, Ismoilni qurban qilishga kirishganida Alloh uni sadoqati uchun mukofotlab, Ismoil o'rniga qurbanlik qilish uchun bir qo'chqor yuborgan. Shu tariqa Qurbon hayitida bir jonliq so'yish urfga aylangan.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Islom dinining vujudga kelishi sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Islom dini deganda nima tushuniladi?
3. Johiliyat davri qanday davr edi?
4. Nima uchun hijrat qilish zarurati paydo bo'ldi?
5. Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarlik faoliyati qay tarzda boshlangan?
6. "Vido xutbasi" islom tarixida qanday rol o'ynagan?



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Islom dinining asosiy manbalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Qur'onning "Usmon to'plami" haqida eshitganmisiz?
3. Diniy ta'limotlar bayon etilgan kitoblar nima uchun muqaddas manbalar deyiladi?
4. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar muqaddas kitoblarga qanday hurmat ko'rsatadilar, nima uchun bunday munosabat bildiradilar?
5. Diniy manbalardan g'arazli maqsadlarda foydalanishga munosabatingiz qanday?

Qur'onning tarkibiy tuzilishi va jamlanishi

Qur'on va hadislar islom dinining asosiy manbalaridir.

Islom ta'limotiga ko'ra, Qur'on Alloh tomonidan 23 yil mobaynida Muhammad (s.a.v.)ga farishta Jabroil (a.s.) orqali ba'zan oyat-oyat, ba'zan esa to'liq sura tarzida nozil qilingan muqaddas kitobdir.

Qur'oni karim 114 suradan iborat. Sura Qur'onдан bir bo'lak bo'lib, eng kami 3ta, eng ko'pi 286 oyatni o'z ichiga oladi.

Eng birinchi sura "Fotiha" (Ochuvchi), oxirgisi "Nos" (Odamlar) deb ataladi. Qur'oni karim 13 yil Makkada va 10 yil Madinada nozil bo'lgan.

Islom ta'limotiga ko'ra, insonlar Allohga va uning payg'ambariga bo'ysunish bilan bir qatorda, tinchlik, qon to'kmaslik, hamjihatlik, ahillik, ezgulik, ota-onani hurmat qilish va odob-axloq qoidalariga ham amal qilishlari lozim. Begunoh insonlarning qonini to'kish

"Qur'on" arab tilidan tarjima qilinganda "o'qish" degan ma'noni anglatadi.




Mazkur qo'llanma "al-Kashhof an-haqoiq g'avomiz at-tanzil va uyun al-aqovil fi vujuh at-ta'viyl" Qur'oni karimning Mahmud Zamaxshariy tomonidan, Makkada yashagan davrida, uch yil mobaynida yozilgan mashhur tafsiri. Qo'lyozma XII asrda "Madinat as-salom" – Bag'dod shahridagi kutubxona uchun nafis xat bilan ko'chirilgan nodir nusxasi.

eng og‘ir gunoh sanaladi. Islomning muqaddas kitobi Qur’oni karimda yer yuzida buzg‘unchilik va qaroqchilik kabi yomon ishlarni qilmagan insonni o‘ldirgan odam xuddi hamma odamlarni o‘ldirgan kabi gunohkor



“Qachonki sizlarga salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik oling yoki o’shanday qilib qaytaringiz...”

Qur’oni karim “Niso” surasi, 86-oyat.



Umr o‘lchovi
yolg‘iz Allohma,
mazmuni esa ko‘p
jihatdan insonning o‘ziga
bog‘liq.

O’tkir Hoshimov

ekanligi, aksincha, uni o‘limdan qutqarib qolgan odam esa, barcha odamlarni saqlab qolganga tenglashtiriladi.

Dastlab Qur’oni karim oyatlari tarqoq holda bo‘lib, kitob holiga keltirilmagan. Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan so‘ng, Abu Bakr davrida Umar ibn Xattob tomonidan Qur’onni kitob holida jamlash taklif etildi. Jamlangan Qur’on “Mus’haf” deb ataldi.

Abu Bakrning xalifalik davrlarida bu Mus’haf xalifa huzurida turdi. Hazrat Umarning davrlarida ham

Ijodiy faoliyat Matnni o‘qing.

1. Undagi ilm olish, o‘qish va yozish haqidagi jumlalarni mulohaza qilib ko‘ring.
2. O‘qish va yozishni bilmagan inson bugungi kunda qanday muammolarga uchrashi mumkinligi haqida fikr bildiring.
3. Ilk vahiy insonlarni nimaga targ‘ib qilganiga e’tibor qarating.

Ilk vahiy: “O‘qi!”

Bir kuni Muhammad (s.a.v.) ibodat bilan mashg‘ul bo‘lib turgan paytda Jabroil farishta kelib, “O‘qi!” dedi. U kishi “Men o‘qishni bilmayman” dedilar. Farishta Muhammad (s.a.v.)ning bellaridan qisib, so‘ng qo‘yib yuborib, yana: “O‘qi” dedi. “Men o‘qishni bilmayman” dedilar. U yana qisadi, yana qiynaladilar. So‘ng qo‘yib yuborib yana bir bor: “O‘qi!” deydi. “Men o‘qishni bilmayman” deb uchinchi marotaba javob qaytaradilar. U yana ushlab qisadi, so‘ng qo‘yib yuborib “Alaq” surasining besh oyatini o‘qiydi:

“(Ey, Muhammad, butun borliqni) yaratgan zot bo‘lmish Rabbing nomi bilan o‘qi! U insonni laxta qondan yaratdi. O‘qi! Rabbing esa karamli zotdir. U insonga qalam bilan (yozihsni) o‘rgatgan zotdir. U insonga bilmagan narsalarini o‘rgatdi”.

xalifaning qo‘lida bo‘ldi.

Qur’onni ikkinchi bor kitob holatiga keltirish uchinchi xalifa Usmon ibn Affon tomonidan amalga oshirildi. Usmon ibn Affon xalifaligining ikkinchi yilida Qur’on tilovati borasida ixtiloflar kuchaydi. Bu holatni ko‘rib, xavotirga tushgan Usmon ibn Affon Qur’on oyatlarini bir kitobda jamlashga buyruq berdi.

Mazkur ish amalga oshirilgach, boshqa barcha sahifalarni kuydirishga buyurdilar. Yagona Mus’hafdan bir necha nusxa ko‘chirildi va har bir mintaqaga bittadan yubordilar.

Bu Mus’haf nusxalari turli muslimmon o‘lkalarida hurmat bilan kutib olindi va undan juda ko‘plab nusxalar ko‘chirildi. Usmon ibn Affon turli yurtlarga yuborgan Mus’haflarning soni oltita. Ulardan biri (asl nusxa) Toshkentda saqlanadi.

Hadis islom dinining Qur’ondan keyingi ikkinchi

Hozirgi kunda Usmon Mus’hafining eng qadimiy nusxalaridan biri Toshkent shahridagi “Mo‘yi muborak” madrasasidagi muzeyda saqlanmoqda.



Usmon Mus’hafi.



“Parvardigoringiz, yolg‘iz Uning O‘ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) birovi yoki har ikkisi sening qo‘l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab “uf” tortma va ularning (so‘zlarini) qaytarma!...”.

Qur’oni karim “Isro”, surasi 23-24-oyatlar.

Hadis

manbasidir. “Hadis” so‘zining arab tilidagi lug‘aviy ma’nosini “so‘z”, “yangi”, “suhbat”, “hikoya”, “rivoyat” ma’nolarini anglatadi. Hadisning shar’iy mazmuni – Muhammad (s.a.v.)ning aytgan so‘zları, qilgan ishlari, ko‘rib yoki eshitib qaytarmagan ishlari yoki u kishiga berilgan sifatlarni o‘zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. Ba’zan hadis so‘zi o‘rniga sunnat so‘zi ham ishlataladi.

“Sunnat” so‘zining lug‘aviy ma’nosini – “odat”,

Musulmonlarning yaxshisi – uning qo‘li va tilidan boshqalar ozor topmaydiganidir.

Hadis

IX asrda mayjud hadis to‘plamlari qayta ishlandi va sahif (ishonchli), hasan (yaxshi) va zaif (ishonchsiz)ga ajratildi.

Sahih hadislarni to‘plagan kishilardan biri muhaddislar imomi nomi bilan mashhur bo‘lgan yurdoshimiz Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriydir.

“tariqa”, “yo‘l” bo‘lib, istilohda Payg‘ambar odatlari, tutgan yo‘li, taqrir (ko‘rib qaytarmagan) va buyurgan ishlariga nisbatan ishlataladi. Hadislar o‘zidagi ma’lumot mohiyatiga qarab ikkiga bo‘linadi:

1) *Hadisi-qudsiy*. Payg‘ambar (s.a.v.) Alloh nomidan aytgan hadislar;

2) *Hadisi-nabaviy*. Muhammad (s.a.v.) o‘z nomlaridan aytgan hadislar.

Hadislar ilk islom davrida Qur’oni karim oyatlariga aralashib ketishi ehtimoli bo‘lgani uchun, faqat og‘zaki ravishda boshqalarga yetkazilgan. Qur’on oyatlarining aksariyat qismi nozil bo‘lgandan so‘ng, hadislarni yozma qayd qilib borishga ijozat berilgan. Islom ta’limotiga binoan, Qur’on oyati yoki hadisni har qanday odam o‘z bilganicha talqin qilishi gunoh hisoblanadi.

Qur’on va hadislarni faqat shu sohada yetuk bo‘lgan olimlargina tushuntirib berishi mumkin. Ular asosida hukm chiqarish vazifasini islom shariati bilimdonlari – ulamolar amalga oshiradi.

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jumladarni o‘qing va inson salomatligini saqlash bilan bog‘lang. Birinchi jumladagi “...o‘zingizni halokatga tashlamang” iborasini, giyohvandlik, ichkilikbozlik, beadablik, o‘zining joniga ziyon yetkazish kabi illatlar bilan qiyoslab ko‘ring.

1. O‘z qo‘llaringiz bilan o‘zingizni o‘zingiz halokatga tashlamang.

Qur’on karim “Baqara” surasi, 195-oyat.

2. Ikki ne’mat mayjud bo‘lib, ko‘pchilik odamlar uni qo‘ldan boy beradilar. Bu – tan sihatlik bilan bo‘sh vaqtadir:

Hadis



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Islomning muqaddas manbasi Qur’on va uning kitob holatiga keltirilishi haqida so‘zlab bering.
2. Hadis nima va hadislarni to‘plash nima uchun zaruriyatga aylangan?
3. Eng ishonchli hadis to‘plamlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Nima uchun Qur’on va hadislarni faqat shu sohada yetuk bo‘lgan olimlargina tushuntirib berishi kerak?
5. Qur’on va hadisda javobi topilmagan huquqiy masalalar qanday hal etiladi?
6. Islom diniy qonunlari tizimi qanday nomlanadi?

Ijodiy faoliyat

Uch xil sifat egalari bordirki, qiyomat kuni ularga men dushmandurman, men kimga xusumatda bo‘lsam, unga xusumatim qattiq bo‘ladi:

1. *Kimki mening nomim bilan biror narsa berib, so‘ng unga xiyonat qilsa;*
2. *Hur odamni qul deb sotib, pulini yeb yuborsa;*
3. *Mardikorni to‘la ishlatib, haqqini to‘liq bermasa.*

Yuqorida berilgan hadis asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. Bugungi kunning yirik muammolaridan biri bo‘lgan “odam savdosi” jinoyatiga bundan o‘n to‘rt asr muqaddam qanday munosabat bildirilgan?
2. Birovni ishlatib, uning haqqini ado etmaslik bilan odam savdosi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida belgilangan “Firibgarlik, ya’ni aldash yoki ishonchni suiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish”, 135-moddasida belgilangan “Odam savdosi, ya’ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish” qoidalari bilan yuqorida berilgan hadis matni o‘rtasida qanday umumiylilik mavjud?



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Islom dinidagi mazhablar haqida nimalarni bilasiz?
2. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, isломda qachon va nima sababdan bo'linishlar yuzaga kelganligini aytинг?
3. Mazhab va oqim tushunchalari orasida qanday farq bor?
4. Shariat, farz, vojib, sunnat, mustahab, mandub, muboh, makruh, harom kabi tushunchalar mazmun-mohiyatini bilasizmi?

Farz – bajarilishi majburiy hisoblangan xatti-harakatlar.

Vojib – farzdan keyin turadigan zarur amallar.

Sunnat – bajarilishi lozim va savobli amallar.

Mandub – bajarilishi majburiy bo'lмаган, lekin bajarilsa ma'qul va savobli deb hisoblanadigan xatti-harakatlar.

Mustahab – ulamolar tomonidan ma'qullangan amallar.

Muboh – taqiqlanmagan xatti-harakatlar.

Makruh – qat'iy taqiqlanmagan, lekin ma'qul ko'rilmaydigan xatti-harakatlar.

Harom – qat'iy ravishda taqiqlangan xatti-harakatlar.

Shariat haqida

Shariat – islom diniy qonunlari tizimi. Shariat musulmonlarga diniy marosimlarni qanday bajarish bilan birga, ijtimoiy hayotda uchraydigan muammolarni hal etish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Qur'on karim va hadislardan tashqari, ijmo va qiyos ham shariat manbalari hisoblanadi. Qur'on va hadisda javobi topilmagan huquqiy masalalar ijmo va qiyos orqali hal etiladi.

Ijmo – islom qonunshunosi (faqih) va islom huquqi masalalarida mustaqil fikr yuritish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning to'planib yagona fikrga kelishi, ya'ni hukm chiqarishdir. Ijmo Qur'on va hadisga tayangan holda amalga oshiriladi va ularga zid bo'lmaydi.

Qiyos – biror-bir jarayonga Qur'on karim, hadis va ijmodan javobi topilmaganida shunga o'xshash boshqa voqeа-hodisani taqqoslash yo'li bilan hukm chiqarishdir.

Shariatda amallar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) farz; 2) vojib; 3) sunnat; 4) mustahab; 5) mandub; 6) muboh; 7) makruh; 8) harom.

VII asrning ikkinchi yarmida bir guruh isyonchilar

Isломdagi g'oyaviy bo'linishlar

tomonidan uchinchi xalifa Usmon ibn Affonning o'ldirilishi natijasida isломda ilk bo'linishlar boshlandi. Xalifa Ali davriga kelib bu jarayon kuchaydi. Natijada,

xorijiylik, shialik va sunniylik deb ataluvchi yo'nalishlar vujudga keldi.

Xorijiylik yo'nalishi 656-yilda yuzaga kelgan. Ular siyosiy maqsadlarini din bilan asoslashga urinib, o'zlaridan boshqa musulmonlarni, xususan xalifa Alini dindan chiqqanlikda ayplashgan. Saflariga qo'shilmaganlarni shafqatsizlarcha o'ldirishlari bilan tarixda yomon nom qoldirganlar. 661-yilda xorijiyalar xalifa Ali ibn Abu Tolibga suiqasd uyuştirib, qatl qilganlar.

Shialik yo'nalishi xalifa Ali vafotlaridan so'ng yuzaga kelgan. "Shia" so'zi guruh, tarafda degan ma'nolarni anglatadi. Shialik vakillari Muhammad (s.a.v) ning vafotlaridan so'ng qizlari Fotima va kuyovlari Ali hamda ularning avlodlari musulmonlarga yo'boshchilik qilishlari kerak edi, deb hisoblaydilar.

Sunniylik shialikdan farqli ravishda, xalifalikni Muhammad (s.a.v) avlodlariga xoslashga ham, xorijiyalar kabi o'zlaridan boshqalarni dindan chiqqanlikda ayplashga ham qarshi chiqqanlar. Sunniylar isломning Payg'ambar Muhammad (s.a.v) davridayoq shakllangan ta'limotini mahkam ushslash va uni kelajak avlodlarga yetkazishga harakat qilganlar. VIII-IX asrlarga kelib sunniylik doirasida shariat mazhablari – hanafiylik, molikiylik, shofiylik va hanbaliylik yuzaga kelgan. Mazhablar shariat bilimdoni (faqih) tomonidan Qur'on va sunnat asosida ishlab chiqilgan yo'l bo'lib, turli o'lkalardagi olimlar atrofida shakllangan. Shu sababli ham mazhablar o'z asoschilari nomi bilan atalgan.



Muqaddas isлом dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, isлом madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

Islom KARIMOV

Shariat – mulkchilik, vorislik, meros, qarz, oila va nikoh hamda shu kabi boshqa tartiblarni belgilab beradi.

Xorijiylik – arabcha "xaraja" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "ajralib chiqqanlar" degan ma'noni anglatadi.

Bugungi kunda shialar asosan Eron, Iraq, Bahrayn, Pokiston va Ozarbayjonning ba'zi hududlarida istiqomat qiladilar.



Dunyo musulmonlarining 90% dan ortig'i sunniylik, 47 foizi – Hanafiy, 27 foizi – Shofiy, 17 foizi – Molikiy, 1,5 foizi – Hanbaliy mazhabiga e'tiqod qiladilar. Qolganlar (7,5 foiz) boshqa oqimlarga mansubdirlar.

Shariat mazhablarida – shariatni amalda qo'llash yo'llari tushuniladi.

Arab xalifaligi hududida demografik va geografik, o'ziga xos turmush tarziga, urf-odatga ega bo'lgan turli xalqlar yashaganlar. Shuning uchun ham xalifalikning barcha hududlarida yuqoridaqgi o'ziga xoslikdan kelib chiqib hukmlar chiqarilgan. Bu hukmlar islomning asosiy ta'limotiga zid kelmagan. Mazhablar asosiy masalalarda bir-birini inkor etmaydi.



Birovga ilmsiz berilgan fatvoning gunohi fatvo bergen kishiga bo'lur.

Hadis

Masalan, Abu Hanifa asos solgan mazhab – hanafiylik, Molik ibn Anas asos solgan mazhab – molikiylik deb atalgan. Mavjud mazhablar o'rtasidagi farqlar juda kam bo'lib, ular bir-birini inkor etmaydi.

Fatvo (arab. – tushuntirish, izoh, hukm, qaror) –

Fatvo

islomda mufti yoki ulamolar kengashi tomonidan diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masalalarda beriladigan qaror, hukm yoki izoh.

Fatvo – barcha diniy-huquqiy mazhab asoschilari tomonidan fiqhga oid qo'shimcha manba sifatida qaralgan. Huquqiy masalalarda berilgan Fatvo diniy jamoalar, muassasalar va musulmonlar tomonidan amal qilinuvchi hukm hisoblanadi. Fatvo Qur'on, hadislar va shariatga assoslanib chiqariladi.

Fatvo berish, ya'ni shar'iy hukmlar chiqarishdan maqsad, insonlarning manfaatlarini yuzaga chiqarish, ulardagи ehtiyojlarning diniy-huquqiy asoslarini yaratish, musulmonlar oldida turgan ijtimoiy muammolarning shar'iy yechimini topib berishdir.

Ayrim diniy-ekstremistik guruuhlar "xalifalik davlati tiklanmas ekan, musulmonlarning ibodati ibodat emas", degan fatvolarni beradilar. Bu – islom dini shariati va manbalariga mutlaqo ziddir. Islom manbalari va tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, Payg'ambar Muhammad (s.a.v) so'nggi hajlarida so'zlagan nutqlarida quyidagi fikrlar alohida qayd etiladi: **"Xalifalik mendan so'ng ummatim ichida o'ttiz yildir, undan so'ng podshohlik bo'ladi".**

Mazkur hadisga muvofiq ravishda Abu Bakr (632-634), Umar ibn Xattob (634-644), Usmon ibn Affon (644-656), Ali ibn Abu Tolib (656-661) 30 yil xalifalik qilganlar. Undan so'ng amirliklar, podshohliklar, xonliklar va boshqa dunyoviy davlat boshqaruvlari vujudga keldi.

1998-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining


"To'y va boshqa marosimlarni tartibga solish to'g'risida"gi Farmoni chiqqan bo'lsa, shu yili, ushbu masalaning diniy-huquqiy tartiblari to'g'risida O'zbekiston musulmonlari idorasining fatvo bo'limi tomonidan to'y, marosim va ma'rakalarni me'yorida o'tkazish haqida fatvo berildi.



Savol va topshiriqlar

1. Fiqh ilmi deganda nimani tushunasiz?
2. Xorijiylik, shialik va sunniylik deb ataluvchi yo'naliishlar qachon vujudga kelgan?
3. Fatvo berish vakolatiga kimlar ega? Nima uchun? Javobingizni asoslang.
4. Demografik va geografik, o'ziga xos turmush tarzi deganda nimani tushunasiz?
5. Mazhablarning o'ziga xosligi haqida ma'lumot bering.
6. Payg'ambar Muhammad (s.a.v) so'nggi hajlaridagi so'zlarida davlat boshqaruvi haqidagi qanday ko'rsatma bergenlar?


Sunnatga binoan tishni misvokda tozalash kerak, lekin bugungi kunda din ulomlari tish pastasi va cho'tkasi kabi tozalik vositalaridan ham foydalanishlarini tavsiya etishadi.





Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Quyidagi binolarni qurish uchun qanday bilimlar zarur?
2. Yurtimizda mavjud tarixiy obidalarning o‘ziga xos qurilish uslubiga e’tibor qarating, ularning arxitekturasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Xattotlik san’ati haqida nimalarni bilasiz?
4. Kitob va miniatura san’ati qachon paydo bo‘lgan?
5. 1-, 2-, 3-rasmlarga diqqat bilan qarang. Butun bir voqeani o‘zida aks ettirgan bu rasmlarni ishslash uchun qanday mahorat va ish qurollari talab etiladi?
6. Rasmlarda aks etgan tasvirlarda xalq farovonligiga oid omillarni toping.



“...Ayting: “Bildiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmisi!?” Darhaqiqat, faqat aql egalarigina eslatma olurlar”.

*Qur’oni karim
“Zumar”surasi , 9-oyat*

“Ey, Rabbim! Menga ilmni ziyoda et! deb ayting”.

*Qur’oni karim
“Toho”surasi , 114-oyat*

Islom dinining ilm-fanga munosabati

Islom ilm olish har bir erkag-u ayolga farz, deb ta’lim beradi. Har bir musulmon erkak va ayolni ilm olishga undaydi. Ilm olish va olimlarning fazilatlari borasida ko‘plab hadislar keltirilgan.

Islom tabiat ilmlari, psixologiya, tarix, geografiya, sotsiologiya, biologiya va umuman insoniyat uchun kerakli bo‘lgan har qanday ilmni o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Qur’oni karim oyatlarida zamonaviy ilm va hunarni

egallahsga undovchi ko‘plab oyatlarni uchratish mumkin.

Islomning ilm-fanga ijobiy munosabati natijasida islom dunyosida o‘rta asrlarda ilm-fan keskin rivojlanib, butun jahon taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi.

Agar Yevropa Uyg‘onish davri – Renessansning natijalari sifatida adabiyot va san’at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyat va insonni anglash borasidagi yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo‘lsa, Sharqda ilm-fanning taraqqiy etishi, avvalo, matematika, astronomiya, fizika kabi aniq va tabiiy fanlar, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyot kabi gumanitar fanlarning rivojlanishida namoyon bo‘ldi. Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida bamisolli po‘rtanadek otlib chiqqan ikki davr – IX-XII va XIV-XV asrlarda ilmiy-madaniy yuksalishga erishildi.

IX-XI asrlarda “Baytul-hikma”, ya’ni “Donishmandlik uyi” degan nom bilan atalgan ilm maskani shuhrat qozongan. Bag‘dod hamda Xorazmda tashkil etilgan Ma’mun akademiyasida, XV asrda Samarqandda asos solingen Mirzo Ulug‘bek madrasasidan ko‘plab olimlar yetishib chiqqan.

Siz 7-sinf “O‘zbekiston tarixi” fanidan bilib olganingizdek, o‘rta asrlarning ilk davrida o‘nlik sanoq tizimini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo‘lib ilm-fan sohasiga joriy etib, zamonaviy matematika, trigonometriya va geografiya fanlari taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk



Buyuk matematik, astronom va geograf olim Muhammad Muso al-Xorazmiy Xivada tug‘ilgan. U 783-850-yillarda yashagan. Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi. “Algebra” so‘zi uning “al-Kitob al-muktasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” nomli risolasidan olingan. Uning arifmetikaga bag‘ishlangan risolasi hind raqamlariga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunda biz foydalananidan o‘nlik hisoblash tizimi va shu tizimdagи amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo‘ldi. Olimning “al-Xorazmiy” nomi esa “algoritm” shaklida fanda abadiy qoldi.

Islom olimlarining e’tirof etishlaricha, “ilm” so‘zi Qur’onda 765 marotaba takrorlanadi.

Xorazm Ma’mun akademiyasida Abu Nasr ibn Iroq (vaf. 1034-y.), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Ahmad ibn Miskavayh (vaf. 1030-y.) kabi o‘ndan ortiq ko‘zga ko‘ringan olimlar turli ilm sohalarida faoliyat yuritganlar. Ayniqsa, bu yerda musulmon olimlari bilan bir qatorda xristian olim Abu Sahl Iso al-Masihiy al-Jurjoniyning (970-1011) faoliyat ko‘rsatgani ushbu akademiyada diniy bag‘rikenglik muhiti mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.



“Sharh al-mulaxxas fi-l-hay'a” asarining qo‘lyozma nusxasi (XVII asr).

Qozizoda Rumiy tomonidan sharh qilingan. Kitobda koinotdagi Quyosh, Oy va boshqa sayyoralarning aylanishi shakllari chizmalar bilan berilgan. Asar 113 sahifadan iborat. Buxoro shahrida 1058-yilda nusxa ko‘chirilgan.



*Ahmad Farg'oniy
insoniyat tarixidagi ilk
Uyg'onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandası, o'z zamona-sining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma'naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.*

Islom KARIMOV



Ahmad Farg'oniy IX asrda yaratgan “Astronomiya asoslari”, fundamental asar sifatida, XVII asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya bo‘yicha asosiy darslik sifatida foydalanildi.

jadvallari”, “Oyning yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola” qo‘lyozmasi, “Yetti iqlimni hisoblash haqida” kabi asarlari turli mamlakatlar kutubxonalarida saqlanmoqda.

Al-Farg'oniy 861-yilda Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometr – Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskuna yasagan.

Ulug‘ qomusiy alloma **Abu Rayhon Beruniy (973-1048)**ning 150 dan ziyod ilmiy ishlardan bizgacha faqat



Abu Rayhon Beruniy Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit'a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi, geodeziya faniga asos soldi.

XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan “Beruniy asri” deb atalishi bejiz emas.



“Geodeziya” (Kitob at-tafhim li avoil sinoat at-tanjim) Abu Rayhon Beruniyning X-XI asrlarda yozilgan astronomiya, fizika, matematika, geometriya va geografiya fanlari bo‘yicha yirik ilmiy asari. Ushbu nusxa XIII asrda ko‘chirilgan.

31 tasi yetib kelgan.

Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo‘lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o‘ziga xos yangi g‘oyalarni taklif etdi, Yer radiusini hisoblab chiqди.

“Shayxur-rais” (Olimlarning rahbari) nomi bilan mashur bo‘lgan Abu Ali ibn Sino (980-1137) ilmiy



“Tib qonunlari” (Al-Qonun fit-tib)

Abu Ali ibn Sinoning tabobat sohasiga bag‘ishlangan mashhur “Tib qonunlari” kitobi. Asarning hoshiyalarida ko‘plab sharhlar keltirilgan. Suratdagi nodir nusxa 1601-yilda ko‘chirilgan.

tadqiqot ishlарini 16 yoshida boshladi va hayoti davomida 450 dan ortiq asar yaratdi. U tibbiyat tarixida eng mashhur bo‘lgan “Tib qonunlari” asari bilan, keyingi bir necha yuz yillar uchun, tibbiyat fanlari taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

X asrning qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiyni zamondoshlari, universal bilimlarga ega bo‘lgani bois, “Sharq Aristoteli” deb ataganlar. U ko‘plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar



**Mirzo Ulug‘bek
rasadxonasi.**



**“Ziji Ko’ragoniy” XVI asr.
Mirzo Ulug’bekning
astronomiyaga oid asari.**



1690-yil Gdanskda polyak astronomi Yan Geveliy chop ettirgan “Yulduzlar osmonining atlasi”dagi ikkita gravyurada o’sha davrnning mashhur astronomlari orasidan Ulug’bekka faxrli o’rin bergen.

iste’molga joriy etdi.

Mirzo Ulug’bek (1394-1449)ning XV asrda tuzgan astronomiya jadvalida 1018 ta yulduzning holati va joylashuvi bayon qilindi. Bu asar astronomik o’lchovlar bo‘yicha XVI asrda yaratilgan birinchi katalog edi.

Yurtimiz allomalarining barchalari diniy bilimlar bo‘yicha ham yetuk darajaga erishganlar. Masalan, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Forobiy, Beruniylar Qur’on, hadis, islam tarixi va huquqshunosligi bo‘yicha ham asarlar yozganlar.



“Muqaddamat al-adab” XII asr. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining eng buyuk va mashhur asarlaridan biri. Asar 1130-1137-yillarda yaratilgan. Besh qismidan iborat bu kitobda so‘z boyligi hamda arab grammatikasi yoritilgan.

Islam dini va san’at

Islam dini jahon san’ati va madaniyati rivojiga ham katta hissa qo’shgan. O’rta asrlarda musulmon mamlakatlarda she’riyat, adabiyot, musiqa, xattotlik, naqqoshlik, miniatura, me’morchilik san’atlari keng rivoj topdi.

Ilm-fan rivojlanishi natijasida kitoblarga e’tibor kuchaydi. Kitoblarni ko‘chirish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar – xattotlar yuzaga keldi. Xattotlar yozuvni

yozdi.


Amir Temur va temuriylar davri ham ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida sermahsul davr bo‘ldi. Bu davrda Mirzo Ulug’bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi singari ko‘plab allomalar yetishib chiqdi. Mirzo Ulug’bekning safdoshi Koshiy birinchi bo‘lib o’nlik kasrlarni ilmiy

san’at darajasiga chiqarib, o‘ziga xos bejirim xat turlarini kashf etdilar. O’rta Osiyo olimlari ham bu borada peshqadamlar safida turib, “nasta’liq”, “nasx”, “suls” kabi yozuv turlarini kashf etdilar.



Biz dinimizni Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abduxoliq G’ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahror Valiy kabi buyuk aziz-avliyolarimizning nomlarisiz, bu ulug’ nomlarni esa dinimizsiz tasavvur eta olmaymiz.

Islam KARIMOV



**Sharafiddin Ali Yazdining
Amir Temur davlatchiligiga
bag’ishlangan “Zafarnoma”
asariga chizilgan miniatura.**



**“Shaybonynoma” XV asr.
Muallifi – Binoiy. Qo’lyozma badiiy
bezatilgan. Matnlari zarhal ramkalarga
olingan.**



**Samarqand. Registon maydonidagi
“Sherdor” madrasasi peshtoqiga
tushirilgan surat.**

yuzaga keldi. Aylanasimon, katta gumbazlar, baland minoralar, ravoqlar, Qur'on oyatlari va hadislar bilan bezalgan peshtoqlar va koshinlar Islom me'morchiligi obidalarining alohida belgisi bo'lib shakllandi.

Ijodiy faoliyat

1. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, Forobiy yashagan davrni eslang.
2. Matndagi saylash, ozodlik, xavfsizlik kabi tushunchalarni bugungu kundagi ahamiyati haqida fikr bildiring.

3. Quyidagi oyat va hadisda keltirilgan qoida bilan matnda berilgan fikr o'tasidagi bog'liqlikni aniqlang. "Payg'ambarlarga va o'zingizdan bo'lgan boshliqlaringizga itoat eting" ("Niso" surasi, 59-oyat.), "Garchi sizlarga qora mayiz kabi qop-qora boshli habashiy qul boshliq qilib saylangan bo'lsa ham, unga quloq solinglar va itoat qilinglar" (Hadis).



"Madaniy va shahar aholisining o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutlaq bo'lmaydi. Ular odamlar orasidan chiqqan, sinalgan, eng olijanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmanidan muhofaza qiladilar. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo'ladilar, hatto ommaning manfaatini o'z manfaatlardan ortiq ko'radilar, umumning manfaati uchun o'zlaridagi kuch-g'ayrat va boyliklarini ayamaydilar".

"Fozil odamlar shahri"

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 
1. "Tinchlik va barqarorlik ilm-fan taraqqiyotiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi", degan iborani hayotiy misollar asosida sharhlab bering.
 2. Yurtimiz allomalarining dunyo ilm-fan ravnaqiga qo'shgan hissalarini haqida fikr bildiring. Mazkur davrda dunyoning boshqa mamlakatlarida ilm-fanga munosabat masalasiga ham e'tibor bering.
 3. Bahouddin Naqshbandning "Dil bayoru-dast bakor" degan hikmatli so'zlarini Islom Karimovning "Alloh qalbimizda, yuragimizda" degan so'zlarini bilan bog'lab tushunishga harakat qiling.
 4. Ma'mun va Mirzo Ulug'bek akademiyalarida faoliyat ko'rsatgan qaysi olimlarni bilasiz? Ular fanning qaysi sohalarida izlanish olib borgan edilar?

Ijodiy faoliyat

1. Islom Karimovning ushbu so'zlarini diqqat bilan o'qing. Berilgan matn bilan dars mavzusini qanday aloqadorligi bor?
2. "...yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlar"ni shakllantirishga qanday omillar ta'sir etadi?
3. "...boshqalarga og'irligi tushmaydigan kishi", – deganda nimani tushundingiz?

Demokratiya – bosh yo'llimiz

... Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas hissa qo'shib kelgan. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islam dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan baha olib boyib bordi.

Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg'un holda, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim.

Men shu uyg'unlik xususida bir misol keltirib o'tmoqchiman. Muborak hadislarning birida shunday deyiladi: "Odamlarning yaxshisi – bu dunyoni deb, oxiratini va oxirat deb, bu dunyoni tark etmaydigan, boshqalarga og'irligi tushmaydigan kishilardir".

O'ylaymanki, biz bugun barpo etayotgan jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy asoslarini belgilashda mana shunday g'oyalarga suyansak, xato qilmagan bo'lamiz.

"O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari".

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining
birinchi sessiyasidagi ma'ruza,
1995-yil 23-fevral



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

- 1.O‘zingiz yashaydigan viloyat, shaharda mavjud bo‘lgan qanday madaniy yodgorliklarni bilasiz?
2. Yurtimizdagи qaysi shaharlar YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan?
3. Mustaqillik yillarda qayta tiklangan, ta’mirlangan, obod qilingan qadamjolar haqida so‘zlab bering.



Islom o‘quv muassasalari


Movarounnahr azaldan ilm-u ma’rifat, ziyo va madaniyat maskani sifatida jahonga mashhur bo‘lib kelgan. Musulmon olamidagi dastlabki o‘quv dargohlari – madrasalar VIII asrning oxirlarida, o’sha davrdagi ilmiy-madaniy markazlar hisoblangan Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz, Xiva, Shosh (Toshkent), Marg‘ilon kabi qadimiy shaharlarda faoliyat ko‘rsata boshlagan. Taniqli tarixchi Mirza Muhammad Boqir Xavansoriy Isfahoniy o‘z asarida “Musulmon olamida dastlabki madrasalar Buxoroda ochilgan edi”, deb ta’kidlagan.

Diniy ilmlar majmuasi, islomiy madaniyat va ma’rifat mukammal tarzda o‘rgatilgan ushbu o‘quv dargohlarida dunyoviy ilmlar ham chuqur o‘rganilgan.

VIII asrning oxirlaridayoq, Buxorodagi imom Abu Hafs Kabir Buxoriy (767-832) madrasasida nafaqat mahalliy, balki musulmon olaming ko‘plab mamlakatlaridan kelgan talabalar ham tahsil olganlar. Ushbu madrasa qoshida katta kutubxona, maxsus qiroatxonasi mavjud bo‘lib, talabalar oylik maosh (stipendiya), ko‘p hollarda esa oziq-ovqat bilan ham ta’minlanganlar.

Bu amalga oshirilgan katta ilmiy ma’rifiy ishlar, albatta, o‘z samarasini ko‘rsatgan. Tez orada diyorimizdan turli ilmlar bo‘yicha buyuk allomalar, xususan **mufassirlar** yetishib chiqqan.

Mufassirlar Qur’oni karimni ilmiy asosda sharhlab,



kishilarga tushunarli tarzda yetkazib bergenlar. Ular orasida X asrda faoliyat ko‘rsatgan samarqandlik taniqli olim Abul Lays Samarqandiy (913-985), buxorolik Abu Ali ibn Sino (980-1037), xorazmlik Mahmud Zamaxshariy (1075-1144), nasaflik Abul Barakot Nasafiyalar (1232-1310) katta shuhrat qozongan edilar.

Islom madaniyati rivojida muhaddislarning o‘rni

O‘lkamizdan chiqqan dastlabki muhaddislardan biri mashhur olim Abdulloh ibn Muborak Marvaziydir (736-798). Yana bir yurtdoshimiz, yirik muhaddis Imom Dorimiy (798-869) Samarqand yaqinidagi Dorimda tavallud topgan. Allomaning eng mashhur asari “al-Musnad” bo‘lib, bu asar “Sunan ad-Dorimiy” nomi bilan mashhur.

Muhammad (s.a.v.)ning olti yuz mingga yaqin hadislarini yodida saqlagan buyuk alloma Imom Buxoriy “Hadis ilmining sultoni” degan sharaflı unvonga sazovor bo‘lgan. Buyuk muhaddisning “al-Jome as-Sahih” asari Qur’oni karimdan keyingi o‘rinda turadigan ikkinchi muhim manba sifatida yuqori baholanib kelmoqda.

Yurtimizdan chiqqan buyuk muhaddislardan yana biri Abu Iso Muhammad Termiziy (824-892) dir. Imom Termiziy asarlarining ichida eng mashhuri, shubhasiz, “Al-Jome” bo‘lib, u oltita ishonchli hadislar to‘plamlaridan biridir.

Movarounnahrdan chiqqan buyuk allomalar islam



Fiqh va kalom ilmi


shariati – “fiqh” sohasida ham peshqadamlardan bo‘lishgan. Mana shunday buyuk faqihlardan biri Burhoniddin Marg‘inoniy (1123-1197) hisoblanadi. Uning “Hidoya” nomli fiqhiy asari yaratilgan davridan to hozirgacha Sharq va G‘arbning o‘quv yurtlarida islam shariatini o‘rganishda asosiy asarlardan biri sifatida

Buxoroning har bir qarich yeri, har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchilik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilm-u ma’rifat, ma’naviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqidan darak beradi.

Mufassirlar – Qur’oni karim oyatlarini sharhlovchi ulamolar.

Arab tilidagi mazkur ibora o‘zbek tilida “sharhlovchi”, “izohlovchi”, degan ma’nlarni anglatadi.





Mustaqillik yillarda
nashr etilgan Burhonidin Marg'inoniyning
Hidoya asari.

Kalom arabcha – nutq, jumla, gap-so‘z degan ma’nolarni anglatadi. Bu ilmning vazifasi – islam ta’limoti, aqidalarini asosli izohlab berishdan iborat.

Tinchlik va barqarorlik bo‘lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o’sish, taraqqiyot bo‘lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo‘lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o‘quv yurtlari paydo bo‘ladi.

Isrom KARIMOV

foydalaniladi.

Yurtimizdan chiqqan mashhur faqihlardan yana biri Alouddin Samarcandiy (vafot 1144-y.) bo‘lib, uning fiqh ilmiga oid “Faqihlarga tuhfa” nomli asari mayjud.

Islomiylar haqida gap ketganda, **kalom ilmiga** to‘xtalib o‘tish joiz. Kalom ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimlar mutakallimlar deyiladi. Yurtimizdan buyuk mutakallimlar yetishib chiqqan. O‘rta asrlarda faoliyat ko‘rsatgan mashhur olim imom Abu Mansur Moturidiy (870-944) kalom ilmida yuksak darajaga erishganlardan biridir. Imom Moturidiy kalom ilmi sohasida o‘ziga xos maktab yaratgan va bu maktab o‘shandan buyon uning tabarruk nomi bilan Moturidiya maktabi (yo‘nalishi) deb yuritiladi. Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom va fiqh ilmlari sohasidagi qarashlari uning “Kitob at-tavhid” va “Kitob ta’vilot ahl as-sunna” asarlarida bayon etilgan.

Xorazm diyori ham islomiylar rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, bu diyordan yetishib chiqqan allomalaridan eng buyugi Mahmud Zamaxshariydir. Jismoniy nogironligiga qaramasdan, bu zot ilm talabida o‘z umrining aksar qismini uzoq mamlakatlarda safarda, musofirchilikda o‘tkazdi. Makkada olti yilga yaqin yashadi. Shu bois “Jorulloh” (Allohnning qo‘shnisi) degan yuksak maqomga sazovor bo‘ldi. U butun umrini ilmiga bag‘ishladi va ilm-fanning turli sohalariga oid oltmishta yaqin asarlar yaratdi.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti o‘z nutqlarining birida olimning jahon tamadduniga qo‘shgan ulkan hissasi haqida to‘xtalib, arab mutafakkirining “Dunyodagi barcha qishloqlar jam bo‘lib, Xorazmning birgina Zamaxshar qishlog‘iga fido bo‘lsa arziyi, chunki aynan shu qishloq ming yillarda bir marta kelishi mumkin bo‘lgan Zamaxshariydek buyuk allomani yaratgan”, degan bahosini alohida ta’kidlagan edi.

Biz yuqorida jahon tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan allomalarimizdan ayimlari haqida ba’zi ma’lumotlarni

keltirdik, xolos. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, bu zoti shariflarning har qaysisi ham mislsiz ta’limotlari-yu



Buyuk vatandoshimiz Zamaxshariyning, ayniqsa, arab tili, uning grammatiskasiga va lug‘atshunosligi ravnaqiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Shu boisdan ham arab olimlaridan biri “Agar shu xorazmlik cho‘loq Zamaxshariy bo‘lmaganda, arablar o‘z tili qoidalarini bilmagan bo‘lar edilar”, deb e’tirof etgan.

noyob kashfiyotlari bilan bashariyat tarixidagi eng buyuk siymolar safida turadi. Mana shu ulug‘ maqomga sazovor bo‘lgan ko‘plab allomalarning O‘zbekiston deb atalmish tabarruk zamindan yetishib chiqishini tasodifiy hol deb bo‘lmaydi. Garchand mana shu holning o‘zi ham bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan bu betakror yurtda ilm-fan va madaniyatning ildizi benihoya chuqurligidan, bu barakotli zaminda azal-azaldan yuksak madaniy-ma’naviy muhit mayjud bo‘lganidan, eng muhimi, bu yurt ahli insoniyat va jamiyat manfaatlari yo‘lida har qanday ilmni ham tez va teran ilg‘ab, yuksak pog‘onalarga ko‘tarish salohiyatiga qodir ekanidan dalolat beradi.

Senga ezgulik ko‘rsatgan kim-saga ezgulik qil-gin, chunonchi, Javzo yulduzi botgandan keyin Shixara yulduzining porlashi go‘zaldir.
Zamaxshariy

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tinchlik va barqarorlikning ilm-fan va madaniyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida so‘zlab bering.
2. Yurtimiz allomalarining dunyo ilm-fani ravnaqiga qo‘shgan hissalar haqida o‘z mulohazalaringizni bildiring.
3. “Samarqand yer yuzi sayqali, Buxoro esa Islom dinining quvvatidir”, degan hikmatli iborani sharhlab, o‘z munosabatingizni bildiring.
4. Yurtimizdan chiqqan allomalarning tug‘ilgan yillari va asarlari nominining jadvalini tuzing.

V. ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVETLAR DAVRIDA DINGA MUNOSABAT

18-MAVZU

ROSSIYA IMPERIYASINING DIN VA DINDORLARGA NISBATAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Tarix darsida olgan bilimlaringizga asoslanib, Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olishi arafasida bu o'lkada tashqi (yoki xonliklar va amirliklar orasidagi) aloqalar qanday bo'lganligini ayting?
2. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini bosib olishiga qanday omillar qo'l keldi?
3. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi vakillari bu yerdag'i diniy-ma'rifiy vaziyatni qanday baholaganlar?

Vaqf mulki ustidan nazoratni kuchaytirish

1865-yil 6-avgustda qabul qilingan "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom"ga muvofiq harbiy va fuqarolik hokimiyyati harbiy gubernator qo'lida mujassamlashtiriladi.

1865-yilgi "Muvaqqat Nizom"ga muvofiq, Turkiston viloyati gubernatori "biy, manop, oqsoqol, rais va qozi lavozimidagi tub joy aholisi vakillarini egallab turgan lavozimiga tasdiqlash, bo'shatish, almashtirish vakolatiga ega bo'lgan".

O'rta Osiyo podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng, uning asosiy qismi Turkiston o'lkasi (1867-1917) nomi bilan atalib, tarkibida beshta oblast: Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettiuv, Zakaspiy bo'lgan.

O'lkada oliy hokimiyat general-gubernator qo'lida bo'lib, u bir vaqtning o'zida Turkiston harbiy okrugining bosh qo'mondoni ham bo'lgan.

Eski ma'muriyatdagi shayxul-islom, qozikalon, a'lam, rais kabi lavozimlar bekor qilingan. Masjid va madrasalar ustidan qat'iy nazorat o'rnatilib, yangi masjid yoki madrasa qurish, yangi vaqf yeri ajratish general-gubernatorning vakolatiga kiritilgan.

Turkiston tub aholisiga taalluqli sud ishlarini ko'ruchchi «xalq sudyalari»ning saylanishi va madrasa mudarrislarining tayinlanishi gubernatorlikning roziligi bilan amalga oshirilgan. Podsho hukumati tomonidan vaqf mulki ustidan nazoratni kuchaytirish va uni bosqichma-bosqich tortib olish siyosati yuritilgan.

Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom

1886-yili qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom"da mavjud vaqf mulklarini rasmiylashtirish uchun qisqa muddat (1887-yil 1-iyuliga qadar) berilib, hujjatlari rasmiylashtirib ulgurilmagan vaqf mulklari davlat ixtiyoriga o'tkazilgan.

Nizomning 266- va 267-moddalariga ko'ra, tan olingan vaqf mulkidan foydalanish oblast hokimlari tomonidan nazorat qilingan. Yangi vaqf mulki tashkil etish man etilib, favqulodda holatlarda, Turkiston general-governatorining vakolatiga kiritilgan. Oqibatda, asosan vaqf mulki daromadi hisobidan faoliyat yurituvchi va mahalliy aholi uchun ilm olish manbasi bo'lgan maktab va madrasalarning ahvoli yomonlashgan.


Turkiston general-governatori Kaufman o'lka musulmonlari ehtiyojlarini «pisand qilmaslik va rad etish» siyosatini yurgizgan. 1788-1789-yillarda Ufada Orenburg musulmonlar diniy yig'ini, 1831-yili Simferopolda Tavriya diniy boshqarmasi, 1872-yilda esa, Tiflis (hozirgi Tbilisi)da Kavkazorti diniy boshqarmasi tuzilgan bo'lsa-da, Turkiston musulmonlariga muftiyat tuzish man etilgan. Kaufman 1879-yilning dekabrida Chor Rossiyasi ichki ishlar vaziriga yuborgan 8509-sonli xatida Orenburg muftiyatinining Turkiston o'lkasi musulmonlari bilan aloqa qilishini «zararli» deb baholab, man etishni so'ragan. Rossiya ichki ishlar vazirligi xorijiy e'tiqodlar din ishlari departamenti (Департамент духовных дел иностранных исповеданий) ushbu talabni qondirib,



Registon (Samarqand)
maydoni.



"Mir Arab" (Buxoro)
madrasasi.



To'pga tutilgan
"Minorai kalon" (Buxoro)

Mustamlaka davri tarixidan

1868-yilda Turkistonda boshqaruv tizimi butunlay harbiylashtirilgan hokimiyat ixtiyoriga to'laligicha topshirilgan bo'lib, ularning qo'lida cheklanmagan va hech qanday insoniy huquqlarni tan olmaydigan tizim shakllantirilgan edi. "Bu joyda bizning umumiy dushmanimiz – musulmonlik va yovvoyilikdir", – deya harbiy vazir Milyutinga maktub yo'llagan general Kaufman, 1868-yil 22-yanvarda Toshkent jamoatchiligi vakillari oldida so'zlaydi va unda ruslarni Turkiston aholisining katta og'alari degan fikrni ilgari surdi.

1880-1890-yillarda mintaqaga ko‘chib kelganlar hisobiga o‘lkada ko‘plab pravoslav ja-moalari shakllanib, ular yashaydigan aholi punktlarida pravoslav cherkovlari qurilgan.

Orenburg muftiyatiga Turkiston o‘lkasi mahalliy aholisi va musulmon tashkilotlari bilan aloqa qilishni man etgan.

1887-yilda amalga kiritilgan “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom” ning 141-moddasida xristian diniga qarshi chiqqanlar jazoga tortilishi belgilangan.

Ko‘chirib kelingan kazaklar, rus va ukrain dehqonlarining ko‘pchiligi hozirgi Sirdaryo viloyati hududi – Mirzacho‘l vohasiga joylashgan. Pravoslavlari bilan bir qatorda “Eski udumchilar” (старообрядцы), “Molokanlar” va “Bichilganlar” (скопцы) kabi pravoslav sektalari vakillari ham Turkistonga ko‘chib kelganlar.

Ijodiy faoliyat

Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing.

Sho‘ro davrida o‘zbek millati tarixini buzib ko‘rsatishdan uni chalkashtirib yoritish-dan, bazi sahifalarini ko‘rsatmaslikdan maqsad nima edi? Chor Rossiyasining Skobelev de-gan generali o‘z imperatoriga murojaat qilib, shunday deb yozgan edi: “Mahalliy xalq biz o‘ylagandan ko‘ra madaniyatli ekan. Ularni bo‘ysundira olmayapmiz. Bu xalqning o‘tmishda yaratilgan barcha osori-atiqalarini, masjidu-madrasalarini, diniy kitoblarini yer bilan yakson qilibgina, ularning ma’naviyatini so‘ndiribgina, o‘z qanotimiz ostiga olishimiz mumkin”

Islom KARIMOV “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”

1. Matndan foydalanim davrga ta’rif bering.
2. Matndagi “*Mahalliy xalq biz o‘ylagandan ko‘ra madaniyatli ekan*”, jumlasida nimalar nazarda tutilmogda?
3. Ma’naviyatga ta’sir etadigan manbalarni sanang, ularni bilmaslik, esdan chiqarish qanday oqibatlarga olib keladi?
4. Matnni mavzuda berilgan suratlar bilan izohlashga harakat qiling.



Mustaqil o‘qish uchun

Otamdan qolgan dalalar (romandan parcha)

General Skobelev mo‘min-mazlumga amr etadi:

— Yotilsin! Yuzlar yerga qo‘yilsin! Quloqlar yopilsin! Namoz o‘qilsin!

Mo‘min-mazlum masjidga ruku etadi. Mo‘min-mazlum yer cho‘kkalaydi. Mo‘min-mazlum peshonasini yer qo‘yadi – misoli namoz o‘qimish bo‘ladi.

— Nog‘oralar chalinsin!

Nog‘orachilar bodratib-bodratib nog‘ora chaladi.

— Otilsin!

Uchta to‘p birvarakay otadi. Gumbur-gumbur otadi. Masjid quyuq-quyuq tutunda

qoladi.

— Turilsin!

Mo‘min-mazlum yerdan bosh oladi. Mo‘min-mazlum qo‘l qovushtirib-qo‘l qovushtirib turadi.

— Otishga shaylansin!

To‘plar jangir-jungur o‘qlanadi.

— Yotilsin!

Mo‘min-mazlum tag‘in peshonasini yer qo‘yadi. Mo‘min-mazlum tag‘in qulq-chakkasini ushlaydi.

— Otilsin!

Masjid qop-qora to‘pon bo‘ladi.

Nog‘orachilar bodratib-bodratib nog‘ora chaladi.

Shunda, bir nuroniyl chol mazlumni yorib-yorib oldinlaydi. Nuroniyl chol yo‘lida g‘ov bo‘lmish miltiq-tig‘larni qayrib-qayrib oldinlaydi.

Nuroniyl chol generalni ko‘zlab keladi. Nuroniyl chol general etigiga kaft qo‘yadi.

General Skobelev etigi bilan nuroniyl chol iyak-soqolidan itarib tashlaydi.

— Yo‘qol, sart-sobaka, etigimni harom etasan! — deydi general Skobelev. — Men, sen sart-sobakalarni etigim poshnasiga olmayman!

Nuroniyl chol dalbanglab-dalbanglab boradi-boradi — keti bilan o‘tirib qoladi.

...

— Eshon tugul, — deydi general Skobelev. — Muhamad Payg‘ambar bo‘lsayam, etigim poshnasiga olmayman! ...

So‘rangiz, qari sart-sobaka nima maqsadda etigimga osiladi?

— Ha-a, eshon? — deya zug‘umlaydi general. — Nima deysan?

Umarxon eshon qalt-qalt etadi. Umarxon eshon duduqlana-duduqlana aytadi:

— Taqsir... — deydi, — taqsir, men bir kam saksonda bo‘ldim...

...

— Ijozat, aytингиз!

— Taqsir... Siz to‘pga tutajak dargoh masjid...

— Masjid bo‘lsa nima bo‘pti?

— Masjid Xudoi taolo dargohidur, taqsir. Xudoi taolo dargohidur.

— Ol-a, eshon, ol-a! Islom dini Turkistonga VIII asrda keldi, VIII asrda! Islom Turkistonda o‘n asrdan ziyod hukmronlik qildi, o‘n asrdan ziyod! Bo‘ldi, yetar endi! Endi Ulug‘ O‘rusiya hukmronlik qiladi, Ulug‘ O‘rusiya! Ulug‘ O‘rusiya Moliya vaziri Vishnegorodskiy janoblari nuqtadonlik ila bashorat etganlariday, Turkiston — O‘rusiya tojidagi olyi qimmat dur bo‘ladi! XIX asr — Ulug‘ O‘rusiya asri bo‘ladi!

Tog‘ay Murod



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Qatag‘on qurbanlari deganda nimani yoki kimlarni tushunasiz?
2. Nima uchun sovet davrida aholining diniy-milliy qadriyatlarini yo‘q qilishga harakat qilingan?
3. Siz yashayotgan hududlardagi ziyoratgoh, masjid, cherkovlarning mustaqillikdan oldinga hamda hozirgi holatini taqqoslang.
4. Toshkentdagi “Shahidlar xotirasi” maydoni va “Qatag‘on qurbanlari” muzeyi haqida nimalarni bilasiz?

Sovet hukumatining dinga munosabati



**Imom Buxoriy
maqbarasi. XX asr.**

Tarixdan ma‘lumki, 1917-1991-yillar oraliq‘ida Yevroosiyo qit‘asining katta qismi Sovet Ittifoqi degan davlat hududiga kirar edi. Vatanimiz ham zo‘rlik bilan mazkur davlat hududiga qo‘shilgan edi. Sovet Ittifoqi g‘oyaviy sohada dinga nisbatan murosasizligi bilan ajralib turar edi.

XX asr insoniyat tarixida bir qator ijobiy va ayni damda salbiy xotiralarni qoldirdi. Fan, texnika, madaniyat taraqqiyoti bilan birga, bu asrda, insoniyat boshiga katta kulfatlar keltirgan natsizm, fashizm, kommunizm, terrorizm kabi buzg‘unchi g‘oyalalar rivojlandi.

Sovetlar hokimiyatni qo‘lga kiritganidan keyin Turkiston jamiyatining ma’naviy hayotiga halokatliz arbalar berildi. Marksizmga asoslangan sovet mafkurachilarasi islamning yuksak ilmiy-madaniy qimmatini inkor etdilar va ateizmga asoslangan turmush tarzini joriy eta boshladilar. Diniy ta’limotlar eskilik qoldig‘i va reaksiyon deb e’lon qilindi.

1918-yil noyabrda qator ko‘rsatmalar asosida masjidlar va madrasalar yoppasiga yopila boshladи. Barcha dinlarga, ulamolarga kuchli tazyiq o‘tkazildi. Haqorat va xo‘rlashlar avj oldirildi. 1928-yilda maxsus qaror bilan barcha vaqflar tugatildi. Bunday siyosat sobiq Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida ham sovet tuzumi o‘rnatalishi bilan qo‘llanila boshladи.

Xorazm Respublikasi tuzilishi bilan sovet hukumati xalq e’tiqodini haqorat qilib toptadi. Madaniy obida bo‘lgan xon saroyida soldatlar kazarmasi joylashdi, otlar bog‘landi. Madrasalar yopildi, vaqf mulklari musodara qilindi.

Buxoro shahriga hujum qilgan qizil armiya madaniy-tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ark va boshqa obidalarni vayron qildi. Mashhur Minorai kalon to‘plardan nishonga olindi va unga jiddiy zarar yetkazildi. Poytaxtda, viloyat va tumanlarda masjid, madrasalar buzildi yoki oxonalarga aylantirildi. Ulamolarning aholi orasidagi kuchli ta’sirini yo‘qqa chiqarish siyosati yuritildi.

1929-yil 8-aprelda sovet hukumatining cherkov va masjidlarning daromadini nazorat qilishni kuchaytirish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi. 22-mayda esa Sovet hukumati konstitutsiyaning 13-moddasiga tuzatish kirtildi. Unga ko‘ra, diniy madaniy qadriyatlarga erkinlik berish bilan birga, dinga qarshi tashviqot olib borishga ham ruxsat etildi.

Diniy targ‘ibot bora-bora “davlatga qarshi siyosat” deb baholana boshlandi. Dindorlar va diniy xizmatchilar hamda ularning oilalari fuqarolik huquqlaridan mahrum etildi. Ular savdo kartochkalaridan, tibbiy yordam olishdan, communal uy-joylardan mahrum etildi. Dindorlarning bolalari maktabga borish va oliy o‘quv yurtlarida o‘qishdan mahrum qilindi. Natijada ulamolarning farzandlari yashash va o‘qish uchun familiyalarini o‘zgartirishga majbur bo‘ldilar. Yuzlab cherkov va masjidlar, jumladan, tarixiy obidalar buzib tashlandi. Saqlanib qolgan cherkovlarning qo‘ng‘iroqlari sanoatga kerakligi bahonasida olib tashlandi.

Sovet hukumati “Din – xalq uchun afyundir” degan g‘oyaga amal qildi. Dindorlar ta’qib va taz‘yiq ostiga olindi. Diniy adabiyotlar “reaksiyon” deb e’lon qilindi. Diniy kitoblarni yo‘qotish bahonasida arab imlosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvidagi barcha kitoblar yo‘q qilindi. Masjid va madrasalar buzib tashlandi.

1929-1939-yillar orasida faqat birgina O‘zbekistonning o‘zida 14 000 masjid yopilib, buzib tashlangan. Shayxlar, imomlar va boshqa diniy arboblar jazoga tortilgan.





Cherkov qo‘ng‘irog‘i
metallolomga
topshirilmoqda.



1935-yilda Buxoro shahridagi Devonbegi madrasasiga Buxoro yodgorliklarini saqlash komissiyasining ish yuritish xonasi va ekskursiya bazasi joylashtirilgan. Ko‘kaldosh madrasasi va Devonbegi xonaqosida Buxoro shahar muzeyi bo‘limi joylashdi. Masjidi kalon g‘alla omboriga aylantirildi. Qo‘sh madrasada esa paxta saqlandi. Mir Arab madrasasi, Bahouddin Naqshband maqbarasi hamda masjidlar diniy markazlar sifatida qoralandi.

Sovet hokimiyati yillarida ruhoniylar vakillari ham kuchli ta‘qib ostiga olindi. Ayniqsa, 1925-1929-yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohoti davrida, so‘ngra 1930-1933-yillarda amalga oshirilgan kollektivlashtirish yillaridagi “qulqlar”ni sinf sifatida tugatish kompaniyasi davrida din xizmatchilarining mol-mulki tortib olindi. O‘zлari esa maxsus mehnat lagerlariga, qulq posyolkalariga surgun qilindi. Masjid va cherkovlar ommaviy ravishda yopib qo‘yildi.

Ruhoniylar sovet hukumati olib borgan sinfiy siyosat natijasida saylov huquqlaridan ham mahrum etildi.

Sovet hukumati 1937-yilda qabul qilgan “Antisovet elementlar to‘g‘risida”gi qarori keng ko‘lamli qatag‘on amaliyotini o‘tkazish uchun o‘ziga xos qurol vazifasini bajardi. Ana shu qaror asosida kamida 800 ming kishi xalq dushmani deb e’lon qilindi. Ulardan yarmi o‘lim jazosiga hukm etildi.

Sovet hukumatining din va dindorlarga nisbatan shafqatsiz munosabati boshqa din vakillarini ham chetlab o‘tmadi. 1920-yilda birinchi bo‘lib Rus pravoslav cherkoviga qarshi hujum boshlandi. Minglab pravoslav diniy ruhoniylari otildi, qamoqqa olindi va surgun qilindi. Diniy xizmatchi va rohiblar qattiq tazyiqqa uchradi. Ko‘plab ibodatxonalar yo‘q qilindi yoki yopildi. Katta miqdordagi ikonalar va cherkov kitoblari yondirildi.

1920-1930-yillarda deyarli barcha katolik ibodatxonalar yopildi. 1930-yilda SSSRda Lyuteran protestant

cherkovining faoliyatiga chek qo‘yildi. Xristian cherkoviga tegishli qadriyatlar toptaldi. Chunonchi, 1931-yilda XV asrga oid Gutenberg Bibliyasi sovet hukumati tomonidan londonlik auksionchiga sotib yuborildi. Ushbu Bibliya Iogann Gutenberg tomonidan 1450-yilda 180 nusxada chop etilgan bo‘lib, undan faqat 47 nusxasi saqlanib qolgan edi. 1929-yilga kelib buddaviy ruhoniylar – Lamalar eski tuzum unsurlari deb e’lon qilindi va fuqarolikdan mahrum etildi. Buddaviy diniy maktablar yopildi.

Yahudiylarga ham qarshi jiddiy qatag‘onlar boshlandi. Sinagogalar yopildi, ravvinlar qamoqqa olindi, diniy maktablar o‘z faoliyatini to‘xtatdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Germaniya va uning

II jahon urushi va g‘arb davlatlarining demokratik talablari

ittifoqchilariga qarshi “Antifashist davlatlar ittifoqini” tuzish chog‘ida G‘arb davlatlari Sovet hukumati oldiga bir qator demokratik talablarni qo‘ydilar. Shu talablar bajarilgan holdagina Sovet hukumati bilan harbiy siyosiy ittifoq tuzishga rozi bo‘lishlarini bildirdilar. Ulardan biri dindorlarga va dinga qarshi siyosatni tubdan o‘zgartirish talabi edi.

G‘arb davlatlari talabi va aholini urushga safarbar qilish zarurati hukumatni din va diniy tashkilotlarga nisbatan siyosatni vaqtincha bo‘lsa-da o‘zgartirishga majbur etdi. Mamlakatda communistlar mafkurasi o‘rnatilgan bo‘lishiga qaramay, aholining asosiy qismini dindorlar tashkil etgan. Diniy siyosatni o‘zgartirmay turib, ularni Germaniyaga qarshi kurashga jalb etish mumkin emasdi. Ushbu omillar sababli communistlar hukumati uchun diniy masala dolzarblashdi va diniy siyosat vaqtincha o‘zgartirildi.

Din va diniy tashkilotlarga nisbatan siyosatning vaqtincha o‘zgartirilganligi quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

1. Dindorlarni ta‘qib qilish va dinga qarshi targ‘ibot

1937-1938-yillar mo baynida O‘zbekiston bo‘yicha jami 100 ming kishi qatag‘onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlangan. Ulardan ko‘pchiligi dindorlar (imom, eshon, domla va boshqalar) edi.





Pravoslav cherkovi muqaddas suratlari – ikonalarni yoshiga taklifnomasi.



Adolat Kuchga bo‘ysungan yurt – vayron yurt.

Kuch Adolatga bo‘ysungan yurt – bo‘ston yurt.

O‘tkir Hoshimov



vaqtincha to‘xtatildi. Ayrim ruhoniylar qamoqdan ozod qilindi. Dinga qarshi faol targ‘ibot yuritayotgan “Jangovar xudosizlar ittifoqi” tugatildi va “Bezbojnik” (“Xudosiz”) jurnali yopildi;

2. Davlat nazorati ostida diniy tashkilotlar qayta tashkil qilindi va ularning faoliyati kengaytirildi.

1943-yilda Ichki ishlar vazirligi qoshida Rus pravoslav cherkovi ishlari vakilligi, 1944-yilda barcha dinlar uchun mas’ul “Din ishlari bo‘yicha vakillik” tashkil qilindi. Butun Rossiya bo‘ylab cherkov va ibodatxonalar Sinod (pravoslav cherkovining boshqaruv organi)ga qaytarildi.

1943-yil 20-oktyabrda Toshkent shahrida musulmon vakillari qurultoyi bo‘lib o’tdi. Unda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining ta’sis etilishi asosiy masala qilib qo‘yildi. Hay’at ta’sis qo‘mitasini tuzib, toshkentlik mashhur alloma Eshon Boboxon boshchiligidagi “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi” tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Eshon Boboxon 1943-yili O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasiga mufti etib saylandi.

Urushdagi sharoit o‘zgarib sovetlar hokimiyatining

Urushdan keyingi yillarda dinga munosabat

saqlanib qolishi aniq bo‘lib qolgach, hukumat yana dinga nisbatan siyosatini o‘zgartirdi. 1944-yil sentyabrda kommunistlar partiyasi markaziy qo‘mitasi yana dinga qarshi urush e’lon qiladi. Dindorlarni repressiyalar qilish va dinga qarshi targ‘ibot qayta tiklanadi. Qaytarib olingan hududlardagi dindorlar va ruhoniylar repressiya qilina boshladi.

“Din afyundir” degan g‘oya yana qayta tiklandi. Diniy kitoblar, shu jumladan, arab imlosida yozilgan barcha turdagи kitoblar “reaksion” deb e’lon qilindi. Uyidan arab yozuvidagi kitob chiqqan hamda namoz o‘qib, ro‘za tutganlarni ta’qib qilish davom ettirildi.

Dinga qarshi kurash niqbida xalqimizning qadimiy urf-odatlari, qadriyatlari yakson qilindi. Ming yillar davomida nishonlanib kelinayotgan “Navro‘z” diniy bayram sifatida butunlay taqiplandi.

1980-yillarga kelib “Sovet ittifoqi” deb atalgan ulkan imperiyaning qulashi aniq bo‘lib qolgach, hukumat yana dindorlarga hujum boshladi. Bu safar kurashning tig‘i asosan davlat idoralari va muassasalarida mas’ul lavozimlarda ishlayotgan partiya a’zolariga qaratildi. Ular ota-onasi yoki biror qarindoshi vafot etsa, janozaga borganliklari uchun ta’qib ostiga olindi.



Ijodiy faoliyat

Matnni o‘qing. Matn asosida mustamlaka davrida dinga nisbatan bo‘lgan siyosatga baho bering.

1984-yilda O‘zbekiston Kommunistik partiyasi markaziy komitetining XVI plenumida partiya a’zolari o‘z yaqinlarining dafn marosimida, janozalarida ishtirok etishi “siyosiy jihatdan zararli, sotsial jihatdan xatarli”, deb baholandi.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sovet Ittifoqi davrida din va dindorlarga nisbatan tazyiqlar qachondan boshlandi?
2. SSSRda diniy muassasalar va qadamjolarga munosabat qanday edi?
3. Dindorlar qanday huquqlardan mahrum qilingan edi?
4. Dindorlarga qarshi olib borilgan qatag‘onlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. SSSRda boshqa dinlarning ahvoli qanday edi?

VI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINGA MUNOSABAT

20-MAVZU


MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING TIKLANISHI



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?
2. Qadriyat nima? Ularga misollar keltiring.
3. Nima uchun davlat va din munosabati qonun asosiga qurilmog'i lozim?

Vijdon erkinligi huquqiy asoslarining yaratilishi



O'zbekiston mustamlaka bo'lgan davrda ham garchand bajarilishi ta'minlanmagan bo'lsa-da, fuqarolar uchun vijdon erkinligi e'lon qilingan edi. Amalda esa sobiq SSSRda denga qarshi muttasil kurash olib borildi. Fuqarolarni denga qarshi ruhda tarbiyalash siyosati yuritildi. Diniy tashkilotlar va din arboblarining faoliyati qattiq nazorat ostiga olindi.

Dunyoga mashhur daho olimlar va shoirlar, muhaddislarni tarbiyalab bergen islam madaniyati "reaksion" deb qoralandi.


Biroq, qancha urinmasinlar, mustamlakachilar jamiyatda dinning yo'q bo'lib ketishiga erisha olmadilar. XIV asrdan beri buyuk va hayotiy ta'limot bo'lib kelayotgan islam dini insonlar qalbidan tobora chuqurroq joy oldi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda vijdon erkinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub o'zgarishlar yuz berdi.

Birinchi navbatda, vijdon erkinligi hamda davlat va diniy tashkilotlar o'rta erkinlik shartida munosabatning mustahkam huquqiy negizi yaratildi. Bu huquqiy negiz – O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunidir.

1991-yil 14-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1998-yil 1-may kuni mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi



qonun 23 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida din va davlat, diniy tashkilotlar o'rta erkinlik shartida munosabatlarni tartibga soladi.

Qonunda O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgani, hech bir denga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biror-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qonunlarimizda din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, lekin jamiyatdan ajratilmaganiga alohida urg'u berildi. Chunki, din xalqimiz uchun nafaqat e'tiqod, balki qadriyat hamdir.

Diniy va milliy qadriyatlarning tiklanishi

Istiqlol yillarida o'zligimizni anglash yo'lida, ajdodlarimizdan qolgan diniy, milliy va madaniy merosni qayta tiklashga alohida e'tibor berildi.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq, islam dinining asosiy bayramlari – Ramazon va Qurbon hayitlari dam olish kunlari, deb e'lon qilindi. Qadamjolar tiklanib, musulmonlar uchun qulayliklar yaratildi. Yangi muhtasham masjidlar, cherkovlar qurildi, mavjudlari zamonaviy ko'renishi oldi.

Dindorlarning xohish, istaklari inobatga olingan holda, musulmon, xristian, yahudiylarning muqaddas yodgorliklari hisoblangan tarixiy obidalar (masjid, madrasa, cherkov, sinagogalar) diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazildi. Islam tarixida o'chmas iz goldirgan allomalarining nomlari tiklandi va xotiralari abadiylashtirildi.

1990-yilda hadis ilmining yirik namoyandalaridan biri Abu Iso Termiziyyning 1200 yilligi, 1993-yilda tasavvuf ilmining sultonasi, buyuk bobomiz Sayyid Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi, o'sha yili muhaddislarni sultonasi, ulug' bobomiz Imom Buxoriy tavalludining 1220 yilligi, 1998-yilda esa, 1225 yilligi nishonlandi.

Bu sanaga bag'ishlab ulug' alloma xotirasiga Samarqand viloyatining Poyariq tumanidagi Xartang

"Vijdon erkinligi – bu, fuqarolarning har qanday denga e'tiqod qilish yoki hech qanday denga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir".

Islom O'zbekistonda eng keng tarqalgan din hisoblanadi. Respublika aholisining qariyb 90 foizidan ortig'i islom diniga e'tiqod qiladi.

Mustaqillikka qadar respublikada jami 211 ta diniy tashkilot (149 ta islam, 51 ta xristian, 11 ta yahudi) bo'lgan bo'lsa, bugunga kelib masjidlarning o'zi 2000 dan oshib ketdi.



Samarqanddagi Imom Buxoriy maqbarasi.



Mustaqillik yillarida qayta ta'mirlangan Qarshi shahridagi Ko'kgumbaz jome masjidi.



“Xalqimizning tarixiy xotirasi ajoyib nomlarga boy. Ko‘pgina allomalarimiz ma’naviyati keng... siymlardir. Ular o‘zlarini haqiqatga tashna va o‘zi haqiqat bo‘lgan xalqqa bag‘ishladilar. Buyuk ajdodlarimizning ulug‘ nomlari xalq xotirasida... munosib davom etishga haqlidir”.

Islom KARIMOV



Samarqanddagi Imam Moturidiy maqbarasi.



Imam Buxoriy nomidagi Toshkent islam instituti.

qishlog‘ida ajoyib yodgorlik majmuasi bunyod etildi. Imam Buxoriy tavalludining 1225 yilligiga bag‘ishlangan tantanalarda qatnashish uchun Samarqandga jahonning 40 ga yaqin davlatidan va YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlardan mehmonlar kelishdi. Imam Buxoriyning “Al-Jomi assahih” (“Ishonarli to‘plam”) asari 1991-yilda 4 jildda, 2008-yilda ikki katta jildda, 2012-yildan boshlab “Oltin silsila” turkumida, shuningdek, “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) kitoblari o‘zbek tilida nashr etildi. 2000-yilda Marg‘ilon shahrida islom

huquqshunosligining ulkan namoyandası Burhoniddin Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi nishonlandi. Burhoniddin Marg‘inoniyning tabarruk nomini butun musulmon olami yuz yillar davomida e’zozlab kelmoqda. U zot Sharqda “Din va millatning hujjati” degan yuksak unvonga sazovar bo‘lgan.

Shu yilning o‘zida Samarqand shahrida islom olamida: “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor bo‘lgan, kalom ilmining sultonı, Imam Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi. Shu munosabat bilan bu ikki shaharda buyuk bobolarimiz xotirasiga bag‘ishlab tiklangan yodgorliklar majmuasi ochildi.

2003-yili Buxoroning G‘ijduvon tumanida Xoja Abdulkholiq G‘ijduvoniyning 900 yilligi munosabati bilan yana bir qadamjo qad rostladi.

Mustaqillik din arboblari uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyatini ham yaratib berdi. Markaziy telekanallarda haftaning juma kunlari “Hidayat sari”, ramazon oylarida “Amazon tuhfasi” ko‘rsatuvlarining namoyish etilishi, radio to‘lqinlari

orgali diniy-ma’rifiy dasturlarning uzatilishi yo‘lga qo‘yildi.

Islom dinining muqaddas manbasi bo‘lgan Qur’oni karim ma’nolari bir necha bor o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

Istiqlolga qadar muslimonlar haj va umra ibodatlarini amalga oshirish imkoniga ega emas edilar. Bugungi kunga kelib esa, har yili 5 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz haj, 6 mingdan ortig‘i esa umra ibodatlarini amalga oshirmoqdalar.

Din sohasidagi islohotlarning yana bir qirrasi diniy ta’lim sohasida aks etdi. Mustaqillikka qadar yurtimizda bor-yo‘g‘i 2 ta diniy ta’lim muassasasi bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga 9 ta madrasa, 1 ta institut, Rus pravoslav hamda “To‘liq injil xristianlari” cherkovlarida ta’lim muassasaları – seminariyalar faoliyat yuritmoqda.

2003-yil 22-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Din sohasidagi ma’naviy, ma’rifiy, ta’lim sharoitlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko‘mak va imtiyozlar berish to‘g‘risida”gi qarorga asosan, diniy ta’lim muassasalarining diplomlari, davlat ta’lim muassasalarining diplomlari bilan tenglashtirildi.

1999-yil 7-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasi huzurida Toshkent islam universitetini tashkil etish to‘g‘risida Farmoni e’lon qilindi.

Diniy va dunyoviy fanlarni uyg‘unlikda o‘rganish, din sohasida har tomonlama ilmiy tadqiqotlar olib borishga qodir yuqori malakali kadrlar tayyorlash Toshkent islam universiteti faoliyatining asosiy vazifasi qilib belgilandi. Universitet huzurida Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi, nashriyot, akademik litsey hamda “Ziyo” studiyasi faoliyat olib bormoqda.

Studiya ijodiy guruhi asosan talabalardan iborat bo‘lib, haftaning juma kunlari markaziy televideniya orgali xalqimizga diniy-ma’rifiy ko‘rsatuvlarni namoyish etmoqda.



Buxorodagi Abdulxoliqu G‘ijduvoni maqbarasi.



Mustaqillik yillarida nashr etilgan Qur’oni karim ma’nolarining o‘zbek tilidagi tarjima va tafsiri.



Toshkent islam universiteti.

Mustaqillikka qadar haj va umra ziyyaratiga sanoqli kishilargina borgan bo‘lsalar, bugungi kunga kelib yiliga 11 mingdan ortiq muslimonlar haj va umra ziyyaratini ado etmoqdalar.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sobiq SSSRda dingga qarshi kurash olib borilgan bo‘lishiga qaramay, nega jamiyat hayotidan din butkul chiqarib yuborilmagan?
2. Vijdon erkinligining mohiyati haqida so‘zlab bering.
3. Mustaqillik yillarda respublikamizda vijdon erkinligi, din va diniy tashkilotlarga munosabat masalasida qanday tub o‘zgarishlar ro‘y berdi?
4. Istiqlol yillarda diniy ta’lim sohasida qanday islohotlar amalga oshirildi?

Munozara uchun hikoya

Boshingga qilich kelsa ham yolg‘on gapirma

Aytishlaricha, Imam Buxoriy hazratlari bolalik yillarda ilm o‘rganish maqsadida uzoq safarga chiqibdilar. U kishining onalari to‘nining etagiga qirq tilla tangani yax-shilab tikib qo‘yibdi. Safar oldidan har qanday vaziyatda ham hech qachon yolg‘on so‘zlamaslikni tayinlabdi. Yo‘lda bola qo‘shilib ketayotgan karvonga qaroqchilar hu-jum qilibdi. Barchani talab bor-yo‘g‘ini batamom tortib olishibdi-da, bolaga uncha ham e‘tibor bermay so‘rashibdi:

- Sening nimang bor?
- Menda qirq tilla bor; – debdi bola.

Qaroqchilar bolani masxara qilishibdi. Qaroqchilar boshlig‘i bolani olib kelishni buyuribdi. Shunda ham bola to‘g‘risini gapirib, menda qirq tilla bor, deb turaveribdi va etagini yirtib, tangalarni qaroqchilar boshlig‘ining oldiga to‘kibdi. Shunda qaroqchilar boshlig‘i:

– Ey, nodon bola, sen bor narsangni aytmaganingda, tillalaring o‘zingda qolardi, hech kim bilmagan edi-ku! – debdi.

Shunda Imam Buxoriy hazratlari safar oldidan onalari hech qachon yolg‘on gapir-masliklari lozimligini ta‘kidlaganini va onalarining o‘gitiga amal qilganliklarini ayt-gan ekanlar.

Qaroqchilar boshlig‘i yosh Buxoriyning gapidan nihoyatda ta‘sirlanib, qaroqchilik, talon-taroj va zo‘ravonlikdan qaytib, nochor, faqir odamlardan zo‘ravonlik bilan tortib olgan narsalarini miskin, bechoralarga tarqatib tavba qilgan ekan.



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Siz yashayotgan hududda qaysi din vakillari yashaydilar?
2. Yurtimizda qadimda qaysi dinlar mayjud bo‘lgan?
3. “Bag‘rikenglik” deganda nimani tushunasiz?
4. “Birlashgan o‘zar” degan hikmatli iborani muhokama qiling.

Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik

Bag‘rikenglik O‘zbekistonda yashayotgan xalqlar uchun azaliy xislatdir.

Markaziy Osiyo mintaqasida azaldan turli urf-odat, madaniyat, til, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar yashagan.

Mintaqaning geografik nuqtai nazardan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani yerli xalqning diniy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Millati va diniy qarashidan qat‘i nazar insonni ardoqlash va o‘zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat va boshqalarni izzat qilish kabi tuyg‘ular Markaziy Osiyo xalqlariga xos yuksak fazilatdir.

Yurtimiz allomalarining asarlariда ham diniy bag‘rikenglikka oid fikrlarni ko‘plab topish mumkin.

O‘zga din vakillari bilan yonma-yon yashab kelgan xalqimizda diniy bag‘rikenglik faqat zarurat keltirib chiqargan ehtiyoj emas, balki hayot tarziga singib ketgan o‘ziga xos fazilat ekaniga ishonch hosil qilish mumkin.

“Dnlararo bag‘rikenglik” deb, turli din vakillarining o‘zaro hurmat asosida, olivjanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashiga aytildi.



“Musulmonlar

va xristianlarning O‘zbekiston zaminida birgalikda hamnafas bo‘lib yashashi diniy-ma’naviy totuvlikning nodir timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bag‘rikenglikning eng yaxshi namunasi deb hisoblanishiga arzigelikdir”.

Islom KARIMOV



O‘zini o‘z tabiiy mohiyatida munosib namoyon qilmoq komillik belgisi va deyarli ilohiy sifat belgisidir. Biz odatda o‘zligimizdan qochib, boshqacha odam bo‘lishga intilamiz va aslida nimalarga qodirligimizni bilolmay o‘tib ketamiz.

Monmen



Buni yurtimizda yahudiylilik, xristianlik va boshqa dinlarga bo‘lgan munosabatning tarixiy va zamonaviy holati ham tasdiqlaydi.

Vatanimiz tarixida bag‘rikenglik namunalarini

Tarixan Markaziy Osiyo turli madaniyatlarning o‘zaro uchrashuvni, ta’siri va boyishiga imkoniyat yaratgan hududlardan hisoblanadi. Sharqni G‘arb bilan birlashtirib turgan Buyuk ipak yo‘lining Markaziy Osiyodan o‘tgani buning uchun qulay sharoit yaratgan. Ko‘pchilik tadqiqotchilar yahudiylarning Markaziy Osiyoda paydo bo‘lish tarixini milodning birinchi asrida vujudga kelgan “Buyuk ipak yo‘li” bilan bog‘laydilar.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr mintaqasiga Erondan yahudiylar jamoalari ko‘chirib keltirilgan.


Mintaqa yahudiylari Buxoro amirligi hududlarida yashaganliklari tufayli “Buxoro yahudiylari” nomi bilan tanilgan bo‘lsalar-da, ularning asosiy qismi Samarqanda yashagan.

Markaziy Osiyo yahudiylari mintaqasi aholisi bilan shu darajada uyg‘unlashib ketganlarki, ular turkiy-forsiy shevada so‘zlashadilar. Shuningdek, ularning kiyimi, taomlari, urf-odatlari, musiqiy madaniyati va yashash tarzida mintaqasi aholisiga xos unsurlar seziladi.

Mustaqillikka erishilganidan so‘ng barcha dinlarga, shu jumladan, yahudiylar diniga erkin e’tiqod qilish uchun barcha sharoitlar yaratib berildi.

Hozirda respublikamizda Buxoro hamda Yevropa (ashkenazi) yahudiylarining milliy madaniy markazlari, sakkizta yahudiylar diniy jamoasi faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Markaziy Osiyoda xristianlik tarixi ilk havoriyalar davri bilan bog‘lanadi. Bu hududga Iso Masih o‘gitlarining kirib kelishi va mahalliy xalqlarning xristianlikka targ‘ib qilinishi apostol Fomaning “Hind



Buyuk ipak yo‘li.



Buxoroda qadimiy yahudi sinagogasi (ichki ko‘rinishi).



Marvdagi qadimiy cherkov qoldiqlari.

o‘lkalari” yo‘nalishi bo‘yicha qilgan safari davomida amalga oshirilgan.

X asrgacha Samarcand, Xorazm va Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo‘lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1056) Marvda pravoslav mitropoliyasi faoliyat ko‘rsatgan.

XV asr boshlarida Temur saroyida bo‘lgan Kastiliya elchisining guvohlik berishicha, Amir Temur Samarqandda turli din vakillarini yig‘ib, ularga iltifot ko‘rsatgan. Boshqa manbalarda keltirilishicha, xristianlarning muammolarini hal etish uchun mas’ul shaxs biriktirilgan.

Hukmdorlar bilan bir qatorda oddiy xalqning ham o‘zga din vakillariga bag‘rikenglarcha munosabatda bo‘lganini aniq tarixiy dalillar ham tasdiqlaydi. Misol uchun, XIX asrda Rossiyaning markaziy mintaqalaridan majburlab ko‘chirilgan dehqonlar nochor ahvolga tushib qolganlarida, musulmon aholi ularga har tomonlama yordam ko‘rsatgan. O‘scha davr voqealarini ko‘rgan ruhoniy Xariton “Mahalliy aholi nochor ko‘chmanchilarga rahmdillik bilan munosabatda bo‘limganida, ularning aksariyati ochlik va muhtojlikdan o‘lib ketgan bo‘lar edilar”, deb guvohlik bergen.

Istiqlol yillarda din sohasida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e’tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an‘analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1995-yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida “Bir samo ostida” shiori ostida xalqaro musulmon-xristian konferensiyasi o‘tkazildi. Turli dinlarning yurtimizga kirib kelishi yubileyları nishonlandi.

2016-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra,



Toshkentdaggi pravoslav cherkovi.



Toshkentdaggi arman apostol cherkovi.



Toshkentdaggi Rim katolik cherkovi.



**Toshkentdagi
Buddha ibodatxonasi.**

Hasad shunday
adolatliki, u avval
hasadgo‘yning o‘zini
yondiradi.

Alisher Navoiy



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yurtimizda bag‘rikenglikning qaror topishiga qanday ijtimoiy-tarixiy omillar sabab bo‘lgan?
2. Markaziy Osiyoga yahudiylilik dini qachon kirib kelgan?
3. Vatanimizga xristianlikning kirib kelish tarixi haqida so‘zlab bering.
4. Ajodolarimizning bag‘rikengligiga oid qanday tarixiy dalillarni bilib oldingiz?



Halol va harom

Ba’zilar “halol va harom” deganda “yeb-ichish mumkin bo‘lgan va yeb-ichish mumkin bo‘lmagan” narsani anglaydilar... Yuzaki tushuncha! Aslida bu – “qilish mumkin bo‘lgan va qilish mumkin bo‘lmagan” amallar degani hamdir.

Bilasiz non eng tabarruk ne’mat. Biroq noplak yo‘l bilan topilgan non ham harom! “Noningni hallolab, ye” degan gap bejiz aytilmagan.

O’tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”

respublikamizda 16 dingga mansub 2223 ta diniy tashkilot, jumladan, 2049 ta islomiy hamda 174 ta noislomiy diniy tashkilot faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda islomdan boshqa quyidagi konfessiyalar rasman ro‘yxatga olingan: Rus pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Nemislyuteran cherkovi, Arman-apostol cherkovi, To‘liq injil xristianlari, Yevangel-xristian baptistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Yettinchi kun adventistlari, “Golos bojiy”, Iegovo shohidlari, Koreys protestant cherkovlari, Yahudiylilik, Bahoiylilik, Krishnani anglash jamiyati va Buddaviyilik.

Bugun ular bir osmon ostida tinchlik va totuvlikda hayot kechirmoqdalar.

22-MAVZU

TOSHKENT – ISLOM MADANIYATI POYTAXTI



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Toshkent shahrining qadimgi nomlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Toshkent shahrining 2200 yilligi qachon nishonlandi?
3. Toshkent shahridagi qaysi obidalarni bilasiz?
4. Mustaqillik maydoni va “Ezgulik arkasi”ning ahamiyati haqida fikringizni bayon eting.

Toshkent ilm-fan markazlaridan biri

2007-yilda Islom Konferensiyasi Tashkiloti qoshidagi Fan, ta’lim va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi (AYSESKO) tomonidan poytaxtimiz Toshkent shahri “Islom madaniyatining poytaxti” deb e’lon qilindi.

Poytaxtimizga berilgan bu g‘oyatda yuksak va faxrli maqom(unvon) butun O‘zbekistonda aynan shu yo‘nalishda amalga oshirilgan ulkan o‘zgarishlarning e’tirofidir.

Toshkent qadimdan ilm-fan, madaniyat markazi bo‘lib kelgan. Ushbu hududda o‘rta asrlarda turli fan sohalari bo‘yicha 100 dan ortiq olimlar faoliyat yuritgan.

“Hazrati Imom” deb ulug‘langan Abu Bakr Qaffol Shoshiy (903-976), ishonchli muhaddis sifatida tanilgan Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy (vaf. 947-y.) hamda “Faxr ul-islam”, “al-Imom al-kabir” nomlariga sazovor bo‘lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Shoshiy (1038-1114) nomlarini alohida qayd etish mumkin.

Toshkent vohasida Qaffol Shoshiy, Zangi Ota, Shayx Xovandi Tohur, Xoja Alambardor, Yunusxon maqbaralari, Mo‘yi Muborak, Baroqxon, Abulqosim va Ko‘kaldosh madrasalari hamda Tilla Shayx, Namozgoh, Xoja Ahror Valiy, Shayx Zayniddin nomlari bilan bog‘liq islom madaniyatining ko‘plab tarixiy obidalari mavjud.

Chor Rossiyasi va sovetlar davrida ham Toshkent siyosiy, madaniy va diniy-ma’rifiy markaz hisoblangan. Ushbu davrda mintaqada bo‘lib o‘tgan asosiy tarixiy voqealar Toshkent bilan bevosita bog‘liq.



Hazrati Imom majmuasi.



**Toshkentdagi
Qaffol Shoshiy maqbarasi.**



Insonning qalbi va aqli ham xuddi ona tili kabi Vatan timsolidir.

Fransua de Laroshfuko



Toshkent viloyatidagi
“Zangi Ota” majmuasi.



Toshkentdagi Shayx
Xovand Tohur maqbarasi.



Toshkentdagi Shayx
Zayniddin masjidi.



Toshkentdagi
Yunusxon maqbarasi.

Afsuski, sovet hukumatining ajdodlarimiz qadamjo va ziyyoratgohlariga nisbatan ateistik munosabatlari natijasida bunday maskanlar e’tibordan chetda qoldi. Lekin har bir yurtdoshimiz qalbida o‘zi tug‘ilib o‘sgan joy nomlari tarixi, urf-odatlari va madaniyatiga bo‘lgan mehr, qiziqish so‘nmadi. Istiqlol ajdodlarimiz qadamjolarini obod etish bilan birga, ularning faoliyati va ilmiy merosi bo‘yicha izlanishlar olib borishga keng yo‘l ochib berdi.

Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy tafakkur rivojida muhim o‘rin tutgan shaxslardan biri Xoja Ubaydulloh Ahrordir.

Xoja Ubaydulloh Ahror naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasigi, ayni paytda, ushbu tariqatning “Dil ba yoru, dast ba kor” (“Qalbing Allohdha, qo‘ling mehnatda bo‘lsin”) degan purhikmat shiorini amalda yuksak maqomga ko‘tarib, butun islom olamida shuhrat qozongan. U o‘z davrida ulamolar o‘rtasida katta nufuzga ega bo‘lib “valiy” (“avliyo”) sifatida tanildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa va Sharq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar Turkistonga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsata boshladi. Xalqqa ziyo tarqatish, uning madaniy taraqqiyotini ko‘tarishda ma’rifatparvarlik harakati katta rol o‘ynadi.

Bu jarayonlarda Toshkent ma’rifatparvarlari ham faol ishtirok etdilar. Munavvarqori Abdurashidxonov birinchilardan bo‘lib, Toshkentda usuli jadid maktabini ochgan va “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi darsliklar yaratgan. Ayni paytda u “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Kengash” va boshqa gazeta-jurnallarning tashkilotchi ijodkorlaridan bo‘lgan.

Abdulla Avloniy ma’rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, davlat va jamoat arbobi sifatida qator xayrli ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, uning qalamiga mansub “Turkiy guliston yoxud axloq” asari darslik sifatida o‘qitilgan.

Ubaydulla Asadullaxo‘jaev yetuk huquqshunos bo‘lib, o‘z davrida u Lev Tolstoy bilan huquqiy madaniyat masalalari bo‘yicha xatlar yozishgan. O‘lka ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotida toshkentlik ma’rifatparvarlarning hissasi katta bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida Toshkent poytaxt sifatida butun dunyoga tanildi. Poytaxtdagi islom madaniyatni obidalarining aksariyati, jumladan, Ko‘kaldosh, Abulqosim madrasalari, Xoja Ahror Valiy, Shayx Zayniddin masjidlari, ayniqsa, Hazrati Imom (Hastimom) mavzesidagi tarixiy-madaniy yodgorliklar o‘zining ikkinchi hayotini boshladi. Ular qayta ta’mirlanib, o‘zining ilgarigi mahobatli manzarasini tikladi. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan qo‘s sh gumbaz, qo‘s sh minorali “Hazrati Imom” jome masjidining barpo etilishi majmuadagi ansamblarni yanada boyitdi.

Hozirgi kunda poytaxtimizning eng ko‘hna go‘sasida O‘zbekiston musulmonlari idorasasi yonida joylashgan Qaffol Shoshiy – Hazrati Imom maqbarasi fayzli tarixiy maskanlardan biri sanaladi.

Toshkent shahrida ham dunyoviy, ham diniy sohalarda bilim beruvchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti, O‘zbekiston musulmonlari idorasining Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Xadichai Kubro va Ko‘kaldosh o‘rta maxsus islom bilim yurtlari joylashgan. Ular shaharning respublika ilmiy, diniy, ma’rifiy, madaniy hayotida tutgan yuksak maqomini belgilaydi.

Madaniy merosimiz durdonalari – qo‘lyozma manbalarning aksariyati aynan Toshkent shahridagi qo‘lyozmalar fondlarida, jumladan, Sharq qo‘lyozmlari markazi, Adabiyot muzeyi, O‘zbekiston musulmonlari idorasasi kutubxonalari va Toshkent islom universiteti manbalar xazinasida jamlangan.

Qur’onning eng qadimiy qo‘lyozma nusxasi “Usmon Mus’hafi” ham aynan Toshkentda saqlanadi.




Toshkentdagi
Ko‘kaldosh madrasasi



Toshkentdagi
Baroqxon madrasasi.



Chorsudagi
Xoja Ahror Valiy masjidi.



Toshkentdagi
Usmon Mus’hafi.



Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston milliy
kutubxonasi.



Tashkent islam universiteti
Manbalar xazinasi.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Toshkent shahrining mamlakatimiz hayotidagi o‘rnı haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Qachon va qaysi tashkilot tomonidan Toshkent shahriga “Islom madaniyati poytaxti” unvoni berildi?
3. Toshkent shahrida joylashgan mashhur qadamjolarni sanang?
4. Toshkentdagи ilk yangi usul (usuli jadid) maktablarini kim ochgan edi?
5. “Hazrati Imom” majmuasi haqida gapirib bering.



Luqmoni Hakim aytadiki, odam uchun dunyoda bilimdan yaxshiroq yor yo‘q va bilim xazinadan ham yaxshiroqdir. Chunki sen xazinani ehtiyoj qilishing kerak. Bilim esa seni qutqaradi va muhofaza qiladi.

Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asaridan

Milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san’ati qadimdan rivojlangan Toshkent hozirgi kunda ham bu sohada yuksak salohiyatini saqlab qolgan.

16 diniy konfessiya vakillari emin-erkin istiqomat qilayotgan yurtimiz poytaxti Toshkent tom ma’noda islam madaniyatining poytaxti bo‘lishga loyiq azim shahardir.

TAKRORLASH UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

- 1. Muhammad (s.a.v.)ning Madinaga qilgan hijratlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang?**
 - a) 620-yil
 - b) 622-yil
 - c) 632-yil
 - d) 621-yil
- 2. Muhammad (s.a.v.)ga nisbat beriluvchi hadislar qanday lug‘aviy ma’noga ega?**
 - a) so‘z
 - b) fikr
 - c) tush
 - d) xayol
- 3. Quyidagilardan qaysi biri Moturidiya mazhabи asoschisi hisoblanadi?**
 - a) Abu Iso Moturidiy
 - b) Abu Mansur Moturidiy
 - c) Abu Turob Samargandiy
 - d) Abu Hanifa
- 4. Qaysi bandda fiqhiy mazhablar to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
 - a) hanafiy, shofe’iy, moturidiy, ash’ariy
 - b) hanafiy, hanbaliy, shofe’iy, shia
 - c) hanafiy, molikiy, hanbaliy, shofe’iy
 - d) hanafiy, shia, molikiy, ash’ariy.
- 5. Islom asoslari to‘g‘ri ko‘rsatilgan bandni tanlang?**
 - a) imon, namoz, ro‘za, zakot, haj
 - b) imon, ro‘za, zakot, namoz, tavba
 - c) imon, namoz, umra, ro‘za, haj
 - d) imon, islam, namoz, ro‘za, zakot
- 6. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri necha moddadan iborat?**
 - a) 19 ta
 - b) 21 ta
 - c) 23 ta
 - d) 25 ta
- 7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida vijdon erkinligi kafolatlanadi?**
 - a) 31-modda
 - b) 22-modda
 - c) 18-modda
 - d) 29-modda
- 8. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?**
 - a) 1998-yil mayda
 - b) 1991-yil iyunda
 - c) 1994-yil avgustda
 - d) 1993-yil aprelda

9. Qur’oni karim necha yil mobaynida nozil bo‘lgan?

- a) 15 yil
- b) 20 yil
- c) 18 yil
- d) 23 yil

10. Toshkent nechanchi yilda va qaysi tashkilot tomonidan “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilindi?

- a) 2008-yil, BMT
- b) 2007-yil, YUNESCO
- c) 2007-yil, AYSESCO
- d) 2008-yil, AYSESCO

11. O’zbekistonda nechta konfessiya rasman faoliyat olib boradi?

- a) 15 ta
- b) 16 ta
- c) 17 ta
- d) 18 ta

12. Imam Buxoriyning 1225 yillik yubileyi qachon nishonlandi?

- a) 2000-yilda
- b) 1998-yilda
- c) 2002-yilda
- d) 1993-yilda

13. Mamlakat taraqqiyoti birinchi navbatda qaysi omil bilan bog‘liq?

- a) tinchlik
- b) boylik
- c) geografik joylashuv
- d) ma’naviyat

14. Mustaqillikka qadar va istiqboldan keyin (2016 yil holati) respublikada diniy tashkilotlar sonidagi o‘zgarish to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.

- a) 211-3000
- b) 176-3000
- c) 189-2223
- d) 211-2223

15. Qaysi buyuk vatandoshimizga “Hadis ilmining sultonii” unvoni berilgan?

- a) Imam Dorimiya
- b) Burhoniddin Marg‘inoniya
- c) Imam Buxoriya
- d) Alisher Navoiya

VII. TINCHLIK VA BARQARORLIKKA TAHDIDLAR

23-MAVZU

**DINIY FUNDAMENTALIZMNING
YUZAGA KELISHI**



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. “Fundamentalizm” deganda nimani tushunasiz?
2. Ekstremizm va terrorizmning tahdidi haqida nimalarni bilasiz?
3. Sizningcha ekstremizm va terrorizmni din bilan bog‘lash to‘g‘rimi?
4. Darslikdan oлган bilimlaringizga tayanib terrorchilik, fundamentalizm, buzg‘unchi g‘oyalarni islom dini bilan bog‘lashga munosabat bildiring?

Fundamentalizmning mohiyati

Davlatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yoldayoq, BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida ekstremizm, terrorizm haqida: “O’zbekiston ekstremizmni, terrorizmni har qanday ko‘rinishdagi diniy fanatizm va aqidaparastlikni qat’yan qoralaydi”, deb ta’kidlagan edi. Islom Karimov dunyo xalqlari minbaridan turib, jahon hamjamiyatini bunday mojarolar kuchayishining oldini olish maqsadida befarq kuzatuvchi roldan faol tinchlikparvar nuqtai nazarga o’tishga da’vat etgan edi.

So‘nggi o’n yilliklarda dunyo bo‘ylab terrorchilik harakatlari o‘choqlarining ko‘payishi Islom Karimovning haq bo‘lganini tasdiqladi.

Bugungi kunda bir qator buzg‘unchi diniy oqimlar o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga erishish maqsadida dinni niqob qilib olishlari kuzatilmoqda.

Bugun ular minglab begunoh odamlarning hayotiga, sog‘ligiga zomin bo‘lmoqdalar. Ular kirib borgan hududlarda millionlab bolalar yaqinlaridan judo bo‘lmoqdalar. Mazkur oqimlar fundamentalizm, mutaassiblik, ekstremizm va terrorizm kabi g‘oyalarni ilgari surmoqdalar.

Fundamentalizm iborasi ilk bor birinchi jahon urushi

“Fundamentalizm” – (lotincha - “asos”) ma’lum bir dinning vujudga kelgan ilk davriga qaytish orqali zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin, degan g‘oyani ilgari surish.

“Mutaassiblik” – (arab. – “chuqur ketish”) muayyan g‘oyalarning mutlaq to‘g‘ri ekaniga qattiq ishonish, “o‘zgalar” va “o‘zgacha” qarash hamda g‘oyalarga murosasiz munosabatda bo‘lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etish.



Mutaassib oqimlar va killari tomonidan ko'plab tarixiy yodgorliklar yo'q qilindi.

"Ekstremizm" – (lotincha – “aql bovar qilmas darajada”, “haddan oshish”) jamiyatda qabul qi-lingan qonun-qoidalarga zid bo'lgan qarash va harakatlarni anglatadi. Bunday harakatlarga diniy tus berish din niqobidagi ekstremizmga olib keladi.

arafasida xristian oqimlari orasida vujudga kelgan. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib, 1919-yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasi tashkil etildi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshladi. Islom dini doirasida “fundamentalizm” “salafiylik” g'oyasida aks etadi.

Fundamentalizm zamonaviy taraqqiyotni inkor etadi, diniy fanlardan boshqalarini o'rganishni taqiqlash lozim, deb hisoblaydi va fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni gunoh, deb qaraydi.

Boshqa dinlarga taalluqli bo'lgan qadimiy obidalarni vayron qilishga urinish mutaassiblikning bugungi ko'rinishlaridan birdir. Zero, islom dini bunga buyurmaydi. Agar shunday bo'lganida ilk musulmonlarning o'zları ularni vayron qilgan va Misr ehromlari, Iroq, Suriya, Iordaniyadagi qadimiy cherkovlar, butxonalar, Buddha haykallari bizgacha yetib kelmagan bo'lar edi.

Mutaassiblikning ziddi bag'rikenglikdir. Barcha dinlar, shu jumladan, islom dinida ham mutaassiblik qoralanadi va bag'rikeng bo'lishga chaqiriladi. Jumladan, hech qachon, hatto o'rta asrlarda ham kishilar xristian yoki yahudiy bo'lgani uchun o'ldirilmagan, cherkovlar, sinagogalar va butxonalar vayron qilinmagan. Kishilar majburlab islom diniga kiritilmagan.

Terrorizm haqida

“Din niqobidagi ekstremizm” – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishni anglatadi.

Terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

Ekstremizm va terrorizm din tanlamaydi. Misol

uchun, o'rta asrlarda butun Yevropani larzaga solgan katolik inkvizitsiyasi, yuz minglab musulmonlar va yahudiylarni qirib tashlanishiga sabab bo'lgan salib yurishlari, XVI-XVII asrlarda protestantlar va katoliklar o'rtasidagi diniy toqatsizlikka asoslangan qonli to'qnashuvlar, 1865-yilda AQShda tashkil etilgan irqchilikka asoslangan Kuk-luks-klan, buddaviylik doirasida 1987-yilda Yaponiyada tashkil etilgan Aum-Senrikyo kabi yuzlab ekstremistik va terroristik oqimlarni sanab o'tish mumkin.

Islom dini doirasida yuzaga kelgan mutaassib oqimlar

O'tgan asrning so'nggi yillarda muayyan ko'rinishdagi ekstremistik va terroristik oqimlar O'zbekistonga ham kirib keldi.

O'n to'rt asrdan buyon e'tiqodida mustahкам bo'lgan xalqni noto'g'ri yo'lga boshlash samarasiz kechishi turgan gap. Din-diyonatimizga shunchalar imkoniyatlar berilib turgan bir paytda bu kabi toifalar dinga faqat zarar keltirmoqda.

Birinchi bo'lib “vahhobiy”lar nomi bilan ma'lum bo'lgan jamoa tomonidan 1989-yili Namangan shahrida, 1989–1990-yillarda Qo'qon va Andijon shaharlarida paydo bo'ldi. 1990-yilning o'talarida ular tomonidan Farg'ona vodiysida, 1999, 2004-yillarda Toshkentda, 2001-yili Toshkent hamda Surxondaryo viloyatlarida, 2005-yili esa, Andijon shahrida xunrezliklar amalga oshirildi. Natijada yuzlab begunoh kishilar halok bo'ldilar.



“Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdomiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'yamaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz”.

Islom KARIMOV

“Terror” – (lotincha – “qo'rqtish”, “vahimaga solish”) aholining keng qatlamlarida dahshat va qo'rquv uyg'otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallah maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.




“Sizlarga salom bergen kishiga:
«Sen mo‘min emassan!» demanglar”

“Niso” surasi 93-oyat

“Kim qasddan bir mo‘minni o‘ldirsa, uning jazosi jahannam bo‘lib, o‘sha joyda abadiy qolajak”.

“Niso” surasi 94-oyat



Agar o‘qisang-u, o‘ylamasasang – chalkashib qolasan. Agar o‘ylasang-u, o‘qimasang – shubhagumonlar tagida qolib ketasan.

Konfutsiy

Ekstremistik guruhlarning bosh maqsadi “xalifalik” davlati tuzish shiori ostida hokimiyatni egallashdir.

Hozirgi kunda ko‘proq “Turkiston islom harakati”, “Hizbut-tahrir”, “Akromiylar”, “Nurchilar” va “Tablig‘chilar”, “IShID” kabi ekstremistik va terrorchi guruhlarning faoliyati kuzatilmoqda.

“Turkiston islom harakati” 1996-yilda tashkil topgan bo‘lib, u jahonning qator mamlakatlarida terrorchilik tashkiloti, deb tan olingan. Mazkur guruh 1999-yili Toshkent shahri va viloyatida, 2000-yili Toshkent va Surxonaryo viloyatlariда terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etgan.

“Hizbut-tahrir” – (“Islom ozodlik partiyasi”) tashkiloti 1953-yili Falastinda tuzilgan. “Hizbut-tahrir”ning maqsadi ham boshqa diniy ekstremistik tashkilotlar kabi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlab, yettingchi asrdagi xalifalik davlatini qayta tiklashdir. Bu maqsad yo‘lida terrorchilik uslubidan foydalanadi. Tashkilot faoliyati dunyoning aksar mamlakatlarida rasman taqilangan.

“Akromiylar” guruhি 1996-yilda Andijonda yuzaga kelgan, uning asoschisi avval “Hizbut-tahrir” a’zosi bo‘lgan. Barcha mutaassib aqidaparastlar qatori akromiylarning ham fojiasi shundaki, ular imon, e’tiqod, tuyg‘u, tushunchalarining, qalb va aql, ma’naviyat bilan ma’rifat, din va falsafaning mohiyatini o‘zlarining g‘arazli fikrlari doirasida talqin etadilar.

“Tablig‘chilar” jamoasi Hindistonda yuzaga kelgan bo‘lib, ular ilgari surayotgan g‘oyalalar hanafiylik mazhabiga ziddir. Barcha aqidaparast guruhlarning g‘oyalari singari ular ham mutaassiblikni targ‘ib qiladi.

“Nurchilar” tashkiloti Turkiyada yuzaga kelgan bo‘lib, asl maqsadi – mayjud hokimiyatga qarshi chiquvchi mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat. “Nurchilik” harakati saflarining asosini yoshlар tashkil etadi. Bu oqimning yurtimizga kirib kelishi 1992-yildan

boshlab kuzatilgan.

“Iraq va Shom islom davlati” (IShID) 2013-yil aprel oyida Iroqda tashkil etilgan. Tashkilotning bosh maqsadi islom davlatini qurish bahonasida dunyo xalqlari boshiga kulfat keltirish, noqonuniy yo‘llar bilan neft, gaz, arxeologik yodgorliklar, hatto odam savdosi orqali boylik orttirishdan iborat. Islomiy shiorlar esa, niqob vazifasini bajaradi, xolos.

Tashkilot tomonidan so‘nggi yillarda 10 mingdan ziyod terrorchilik harakatlari sodir etildi. Ayniqsa, IShIDning Suriya, Iroq, Afg‘oniston, Liviya, Nigeriya, Somali, Turkiya, Misr kabi davlatlarda amalga oshirayotgan terrochilik jinoyatlari natijasida minglab begunoh odamlar halok bo‘lmoqda.



Qachon qora bayroqlarni ko‘rsangiz, uyin-gizdan jilmang. Qo‘llaringiz va oyoqlaringizni qimirlatmang. So‘ng zaif bir qavm chiqadi. Ular e’tiborga sazovor emaslar. Ularning qalblari temirning zangiga o‘xshaydi. Ular mol-mulk sohiblaridir. Ahdga ham, va’daga ham vafo qilmaslar. Haqqa chaqirurlar, lekin o‘zları haq ahlidan emaslar. Ismlari laqablardan iborat. Nisbatlari esa qishloq va shaharlargadir. Sochlari ayollarining sochiga o‘xshab osilib turadi. Ular oxiri borib, o‘zaro ixtilof qiladilar va haqiqat qaror topadi.

hazrat Ali ibn Abu Tolib



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Din niqobidagi ekstremizm va terrorchilik nima?
2. 1-, 2-, 3- va 4-rasmlar asosida ekstremizm va terrorizmga ta’rif bering?
3. 1-, 2-, 3- va 4-rasmlardagi ayollar va bolalarni shu ahvolga solgan insonlarni dinsizlar, deb atash mumkinmi? Fikringizni izohlang.
4. Ana shunday holatlarni oldini olish uchun nimalarga e’tibor berish kerak? Sizdan nima talab etiladi?

IShID terrorchi tashkiloti IShID g‘oyalarni ma’qullamagan ulamolarni qatl etishgacha bordi. Masalan, 2014-yil 14-iyun kuni IShIDchilar jinoiy ishlarini ma’qullamagan 12 nafar ulamoni Mosul shahridagi “al-Isro” masjididi yonida namoyishkorona qatl etishdi.



1



2



3



4

DIN NIQOBIDAGI EKSTREMIZM VA TERRORIZM – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm kirib borgan hududlardagi (Afg'oniston, Iraq, Suriya) ahvol haqida so'zlab bering.
2. Nima sababdan ba'zi yoshlar terrorchilariga aldovlariga uchib qolmoqdalar?
3. Qur'on va hadislarda begunoh kishilarni o'ldirish, buzg'unchilik qilish haqida nima deyilgan?
4. O'zbekiston qonunlarida terrorchilik uchun qanday jazo choralari belgilanganini bilasizmi?

Yoshlar ongini egallash uchun kurash


Hozirgi vaqtida ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikasiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkurlar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda".

Islom KARIMOV

Bugungi kunda din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash eng dolzarb masalaga aylandi. Bizning yurtimizda ham buzg'unchilik ishlarini amalga oshirmoqchi bo'lganlarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda. Yoshlarimizning turli oqimlar domiga tushib qolishlarining asosiy sababi – bu, "jaholat"dir.

Xo'sh, jaholatning o'zi nima? U qanday ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda?

Bugungi kunda jaholat turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Masalan, terrorchi tashkilotlar islam dinidagi "hijrat", "jihod" kabi atamalardan o'z g'araz maqsadlarida foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Aslida, "hijrat" deb payg'ambar Muhammad (s.a.v) boschchiliklaridagi bir guruh musulmonlarning dushmanlar tazyiqidan jonlarini saqlash maqsadida Makkadan Madinaga ko'chib o'tishlariga aytildi.

Aqidaparastlar esa, hijratdan yoshlarni avrash, ularning islam diyori bo'lgan, azon aytiladigan, juma va hayit namozlari o'qiladigan, umuman, islamning besh arkonlari emin-erkin ado etilib, musulmonchilikka hech qanday tazyiq bo'lmasan, fuqarolar tinchlik-xotirjamlikda hayot kechirayotgan Vatanni tark etishlari uchun olib borayotgan targ'ibotlarida foydalanmoqdalar.

Vaholanki, o'z yurtini tashlab, o'zga yurtlarda sarson-sargardon yurish, manqurt shaxslar bilan birlashib, kindik qoni to'kilgan yurtiga qarshi quroq ko'tarish islam ta'limotiga zid ishdir. Insonlarni tinch va osoyishta diyordan din nomidan qotilliklar oshkora qilinayotgan fitna makonlariga chorlashdek qabih ish hech qachon "hijrat" bo'la olmaydi.

Islam dini Vatanga xiyonat, qotillik, buzg'unchilik, o'zini o'zi o'ldirish, o'zgalarga zulm qilish, ota-onaga oq bo'lish kabilardan qaytaradi.

"Jihod" – bu, o'z dinini, vatanini, oilasini, obro'sini va mol-mulkini shariat ruxsat bergen yo'llar bilan himoya qilish demakdir.

Shuningdek, kishining o'z Vatanini bosqinchilardan, isyonkorlardan himoya qilishi jihodga misol bo'ladi. Hadisda insonning o'z nafsining yomonliklariga qarshi turishi, yaxshiliklarga intilishi katta jihod ekani ta'kidlanadi.

Ekstremizm keltirib chiqaradigan oqibatlar

Din niqobidagi ekstremizm dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid solib kelmoqda.

Ekstremistik oqim tarkibiga kirib qolgan shaxs:

- oilasi, qarindosh-urug'lari va yaqin insonlaridan mahrum bo'ladi;

- jamiyatdagи ijtimoiy mavqeyini yo'qotadi, chuqur ilm olish, yaxshi kasb egasi bo'lish va hayotda munosib o'rin egallash imkoniyatlaridan ayrıladı;

- umri qamoqda yoki o'zga yurtlarda xor-zor va sargardonlikda o'tadi, ota-onasi, tur mush o'rtog'i va farzandlari oldidagi insoniy majburiyatlarini bajara olmaydi.

Ekstremistik g'oya va yot diniy qarashlarning jamiyatga zararli ta'siri quyidagilarda aks etadi:

- oilalarda parokandalik yuzaga keladi, farzandlar

"Hijrat" – lug'atda "ko'chish, biron narsadan ajrash, tark etish" ma'nolarini anglatadi.

Jaholat – arabcha "jahila" fe'lining o'zagi bo'lib, bilmaslik ma'nosini anglatadi.

"Jihod" – lug'atda kishining maqsadga erishish yo'lida bor imkoniyatini ishga solib, qattiq harakat qilishi ma'nosini anglatadi.


Haqiqiy muhoni Alloh va rasiuli qaytargan narsadan hijrat qilgan (qaytgan) musulmondir.

Hadis



Bugungi kun-da yer yuzida 60 milliondan ortiq kishi o'z yurtidagi notinchlik sababli qochoqlikda yashamoqda.



tarbiyasisiz, oilalar esa boquvchisiz qoladi;

- jamiyatda an'anaviy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatish tizimi va tadrijiy rivojlanish jarayoni buziladi. Mazkur jamiyatda asrlar osha muhim o'rinn tutgan milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlar ahamiyatini yo'qotishi oqibatida ma'naviyat pasayadi;

- odamlar qotillik, qyinoq, bosqinchilik, garovga olish, qulchilik kabi jinoyatlarga ko'nikib qoladi. Ayni chog'da, ushbu yovuzliklar jamiyatning muayyan qismida vahima uyg'otadi, qochoqlar oqimi paydo bo'ladi;

- jamiyatda jinoyatchilikning avj olishiga xizmat qiladi;

- jamiyatga iqtisodiy jihatdan katta zarar yetkazadi. Oqibatda ishsizlik oshadi, ijtimoiy muhofazaga yo'naltirilgan loyihalar bajarilmay qoladi, aholining turmush darajasi pasayadi.

Mazkur tahdidlarning oldini olish maqsadida O'zbekistonda qonuniy asoslar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi va Jinoyat kodekslariga tegishli moddalar kiritilgan.

Ijodiy faoliyat

Mazkur rasmlardagi jarayonlarni quyidagi so'zlar bilan solishtiring.

"Urushda g'olib bo'lish mumkin, ammo baxtlilar bo'lmaydi. Negaki urush odamni, odam o'ldirishga majbur qiladi. Odam o'ldirganlar esa hech qachon baxtli bo'lmaydi."



"Faoliyati taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarning faoliyatida qatnashishga undash – eng kam ish haqining 50-100 baravari miqdorida jarima to'lash yoki 15 sutka qamoq jazosi bilan jazolanadi".

*O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi,
202-modda*



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ayrim kimsalarning ekstremistik va terrorchi tashkilotlar safiga qo'shilib qolayotganining asosiy sababi nimada?
2. Bugungi kunda terrorchilar asosan qaysi islomiy g'oyalarni buzib talqin qilmoqdalar?
3. Terrorchilikning jamiyatga tahdidi nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Respublikamizda ekstremistik yoki terrorchilik jinoyatini sodir etganlik uchun qanday jazo choralar qo'llaniladi?

Ijodiy faoliyat

Jumlanli o'qing. Undagi "Fitna" so'zini qaday tushundingiz, mazkur tushunchaga munosabatingizni bildiring.

"Fitna (aldash) o'ldirishdan-da kattaroq gunohdir".

Qur'onimiz, "Baqara" surasi 217-oyat

122-betda berilgan rasmlar asosida fundamentalizm, ekstremizm, terrorizm kabi illatlarga munosabat bildiring.



Milliy, irqiylig, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish

Milliy, irqiylig, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, – eng kam oylik ish haqining olti yuz baravariga cha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Milliy, irqiylig, etnik yoki diniy mansubligiga qarab, aholi guruhlariga nisbatan adovat, murossasizlik yoki nifoq keltirib chiqarish maqsadida milliy sha'n-sharaf va qadr-qimmatni kamshitishga, diniy e'tiqodiga yoki daxriyligiga qarab, fuqarolarning his-tuyg'ularini haqoratlashga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar, shuningdek, milliy, irqiylig, etnik mansubligi yoki dinga munosabatiga qarab, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklash yoxud ularga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish, – besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

- a) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli usulda;
- b) badanga og'ir shikast yetkazgan holda;
- v) fuqarolarni doimiy yashash joyidan zo'rlik ishlatib ko'chirgan holda;
- g) mas'ul mansabdor shaxs tomonidan;
- d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, – besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 156-moddasidan

**Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar**

1. "Missionerlik" deganda nimani tushunasiz? "Prozelitizm" degan atama haqida eshitganmisiz?
2. Ota-onangiz yoki ustozlaringiz "Ko'cha-ko'yda biror odam sizlarni suhbatga chorlab, abadiy hayot yoki muammolardan qutulish – najot yo'lini taklif qiladiganlarni gaplariga uchib yurmang", deb ogohlantirganimilar?
3. Nima uchun missionerlik va prozelitizm salbiy faoliyat hisoblanadi?



Qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o'z maqsadlariga erishish uchun, avvalo, zabit etmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongini o'ziga qaram qilishga intildi.

Islom KARIMOV

Missionerlarning asosiy maqsadi – o'z diniy ta'lilotlarini targ'ib qilish yo'li bilan jamiyatda o'zlariga xayrixoh bo'lgan guruhlarni shakllantirish va tarafdarlar sonini ko'paytirish orqali muayyan mamlakat va hudud ustidan nazorat o'rnatishdan iborat.



"Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar".

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni, 5-modda

Bugungi kunda missionerlik faoliyati bilan shug'ullanishga harakat qilayotganlar orasida

bahoiylar, krishnachilar va ko'plab diniy sektalar bor. Ammo, ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini xristian missionerlari tashkil etmoqda. Ayniqsa, protestantlik zamонави missionerlikning asosiy homiysi bo'lib qolmoqda.

Missionerlik usul va vositalari

Missionerlar o'z maqsadlariga erishish uchun xilmalil va turli davrlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqqanlar. Masalan, xristian missionerlari buddaviylik, konfutsiylik, hinduiylik, islam, sintoiylik va daochilik dirlari keng tarqalgan hududlarga alohida e'tibor bilan qaraydilar. Ushbu dinlar tarqalgan hududlarning aksariyat qismida ulkan neft va gaz zaxiralari mavjudligi missionerlikdan ko'zlanayotgan g'arazli geosiyosiy maqsadlarning asl mohiyatini teranroq anglashga xizmat qiladi.

Belgilangan maqsadlariga erishish uchun missionerlar faoliyat olib boradigan mamlakatlarining o'ziga xos xususiyatlari, aholisining diniy qarashlari, turmush tarzi haqida batafsil ma'lumotlar to'plashga va ularga asoslanib ish olib borishga harakat qiladilar.

Missionerlik tashkilotlari tibbiyot va ta'lim sohalarida faoliyat olib borish, xayriya yordamlari ko'rsatish, uyma-uy yurib tashviqot olib borish, mahalliy tillarda xristianlikni targ'ib qiluvchi adabiyotlar, gazeta va jurnallar chop etib, tarqatish, radio va teledasturlar tayyorlash, kino mahsulotlari ishlab chiqarish orqali o'z qarashlarini targ'ib qilishga alohida e'tibor bermoqdalar.


Ular bugungi kunda ko'proq odamlarni o'z saflariга jalb qilish va g'ayriqonuniy faoliyatlarini yashirish maqsadida "halqa-halqa" bo'lib faoliyat ko'rsatish, maxfiy yig'ilishlar o'tkazish, o'z tarafdarlarini sayohatchilar bayrog'i ostida ekskursiyalarga olib chiqish va o'sha yerda o'z yig'ilishlarini tashkil etishga intilmoqdalar.

So'nggi vaqtarda missionerlar ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olib, ular bilan maqsadli ishlashga

Sekta – bu, faqat o'zini "haq din", insonlarni "najotga yetkazuvchi" deb da'vo qiladigan, aslida esa, muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan guruhdir.



1



2



3

Ijodiy faoliyat

1 va 2-rasmlarni missionerlik faoliyati bilan, 3-rasmni prozelitizm bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiling.

Missionerlar bolalar, yoshlar, ayollar, pensionerlar va nogironlarning onqlarini zaharlashga alohida e'tibor bilan qaramoqdalar.



harakat qilmoqdalar. Jumladan, ular asosiy e'tiborni aralash millat vakillaridan iborat oilalarning a'zolari, ilgari hech bir dinga e'tiqod qilmagan, og'ir xastalikka, judolikka uchragan, moddiy va ma'naviy ko'makka muhtoj kishilarga qaratmoqdalar.

Missionerlik va prozelitizmning oqibatlari

Missionerlik va prozelitizm juda jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Masalan, bizga qo'shni bo'lgan ayrim davlatlarda missionerlar ta'siriga tushib qolib dinini o'zgartirgan kishilar vafot etganda jasadni qabristonga qo'yish bilan bog'liq muammolar kelib chiqmoqda.

Mayitning musulmon qarindoshlari o'z jigarlarini musulmonlar mozoriga dafn etishni xohlaganlari, musulmonlar esa boshqa din vakilini o'z qabristonlariga kiritishni istamaganliklari natijasida kelishmovchiliklar yuzaga kelmoqda.

Boshqa dinni qabul qilgan kishi o'z o'g'lini xatna qildirishni xohlamagani, uning otasi esa, nabirasini musulmon urf-odatlariga ko'ra xatna qildirishni istagani



Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish

Nolegal diniy faoliyat bilan shug'ullanish, diniy tashkilotlar rahbarlari ning mazkur tashkilotlar ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortishi, ruhoniylar va diniy tashkilotlar a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'ilishlari, shuningdek, diniy marosimiga aloqasi bo'lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to'garaklar hamda guruhlarni tashkil etish va o'tkazish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llaniganidan keyin sodir etilgan bo'lsa – eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llaniganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, – eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 216'-moddasi

tufayli ota-bola o'ttasida janjallar kelib chiqqani ham ma'lum. Xristian yoki boshqa dinni qabul qilgan qizning tur mushga chiqishi ham muammoga aylanmoqda...

Bu kabi misollarni yana davom ettirish mumkin. Ammo shularning o'zi ham missionerlik va prozelitizm harakatlari boshqa dinni qabul qilgan millat vakillari oilalarida nizo va janjallarning avj olishiga zamin yaratishini ko'rsatadi.

Din milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi, millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bir tilda gaplashadigan, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo'lgan, ammo turli dinlarga yoki diniy yo'naliшlarga e'tiqod qiladigan millatlar hamon ichki milliy birlikni ta'minlay olmayotgani, kichkina bir sabab qayta-qayta nizoli vaziyatlar va fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Missionerlik va prozelitizm g'ayriqonuniy harakat ekan, unga nisbatan tegishli jazo choralar qo'llanishi tabiiydir.

Respublikamizning Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat kodekslarida bu faoliyat bilan shug'ullanish uchun tegishli jazo choralar belgilangan. Missionerlik harakatlari ortida diniy asosda millatni ichidan bo'lib tashlashga qaratilgan g'arazli maqsadlar yotadi.



“...bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi”.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 240-modda.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Missionerlik haqida nimalarni bilib oldingiz va qanday omillar missionerlikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda?
2. Nima uchun O'zbekistonda missionerlik qonun bilan taqilangan?
3. Nega O'zbekiston fuqarolari missionerlikdan ogoh bo'lishlari lozim?
4. Respublikamizda missionerlik bilan shug'ullanish uchun qanday jazo choralar belgilangan?
5. Nima uchun sektalarning tuzog'iga ilinib qolmaslik kerak?



Faollashtirish uchun savol va topshiriqlar

1. Siz kuniga qancha vaqtingizni internet tarmog‘ida o‘tkazasiz?
2. Internet tarmog‘ida asosan qaysi saytlardan foydalanasiz?
3. Ijtimoiy tarmoqlar yoki mobil messengerlarida guruhlar, botlar va kanallarga a‘zo bo‘lganmisiz?
4. Yaqinlaringiz sizning mobil telefon, kompyuter, planshetlaringizni nazorat qilib turishadimi?



Internet asri

 Kishi uchun eng foydali va dilni yorituvchi narsa qanoatdir. Eng zararli va nafratlari narsa xirs va g‘azabdir.

Ziyovuddin Rahimning “Bola odobi bilan aziz” kitobidan

Biz yashayotgan davr ko‘p manbalarda “internet asri” deb atalmoqda. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari, xususan, internet kirib bormagan soha, hududni topish juda qiyin. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda dunyo aholisining 3,4 milliardi internet tarmog‘idan foydalanadi. O‘zbekistonda bu raqam 10,2 millionni tashkil etadi.

2000-yildan 2015-yil oxiriga qadar dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 7 barobarga oshib, ular dunyo aholisining 43 foizini tashkil qildi.

Internetning foydalari juda ko‘p. U masofalarni yaqinlashtiradi, ma’lumotlarni tez va sifatli olishga xizmat

qiladi. U ilm manbai vazifasini ham bajaradi. Afsuski, g‘araz niyatli insonlarning qo‘lida internet buzg‘unchilik, jaholat, axloqsizlikni tarqatish quroliga aylanmoqda. Jahan veb-auditoriyasining 45 % ni 25 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etishi hisobga olinsa, internetdagi tahdidlarning asosan bolalar, o‘smlar va yoshlarga qaratilgani ayon bo‘ladi.

Masalan, bugungi kunda yer yuzida 42 % bolalar va o‘smlar behayo saytlarga qaram bo‘lib qolgani, 38 % bolalar zo‘ravonlik ruhidagi, 26 % bolalar esa millatchilikni targ‘ib qiluvchi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borayotgani haqidagi ma’lumotlar kishini tashvishga solmay qo‘ymaydi.

Internet va diniy tashkilotlar

Internet tarmog‘idan turli diniy tashkilotlar ham foydalanmoqdalar. Biroq, ularning barchasi ham internetdan faqat xayrli maqsadlarda foydalanayotgani yo‘q.

Afsuski, internet tarmog‘idan turli ekstremistik, terroristik, missionerlik bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar ham foydalanmoqdalar. So‘nggi yillarda terroristik tashkilotlar g‘oyalarini targ‘ib-tashviq qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga o‘sdi. 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanayotgan saytlar soni esa 10 000 dan ortdi. Missionerlarning esa minglab saytlari mayjud.

Bunday internet saytlar to‘satdan paydo bo‘ladi, bir oz vaqt o‘tgach esa yo‘qoladi. Ayni paytda, mazmunini o‘zgartirmagan holda, nomlanishini tez-tez o‘zgartirib turadi.


Terrorchilar uchun internetning qulay jihatlari nimada?

1. Internetga kirishning osonligi.
2. Foydalanuvchilar sonining ko‘pligi.
3. Aloqaning sirliligi.



 Bugungi kunda insoniyat qo‘lida mayjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar yer kurassini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zammadagi eng katta xavf – insonlarning ongi va qalbini egallash uchun uzuksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir.

Islom KARIMOV





Tana va nafsga erk berma, bo‘yin egma uning istaklari ermak va o‘yin, u alam va qayg‘u keltiradi.

**Ziyovuddin Rahimning
“Bola odobi bilan aziz”
kitobidan**

Onasini behurmat qilgan odam qo‘shni kampirni yaxshi ko‘raman desa, ishonmayman. O‘z xalqining tilini, madaniyatni, tarixini hurmat qilmagan odam boshqa xalqlarning tilini, madaniyatini, tarixini hurmat qilaman, desa ishonmayman.

O‘tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”

4. Tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklanganligi.
5. Axborotlar qisqa muddatda keng makonda tarqalishi.
6. Sarf-xarajatlarning bir necha bor kamligi.

Terrorchilarning internetdagi maqsadlari

Terrorchilarning internetdagi maqsadlari quyidagilardan iborat:

- targ‘ibot va tashviqot maqsadida ma’lumot tarqatish;
- tarmoq va shahobchalarini tashkil etish;
- a’zolik va xayriya badallarini yig‘ish hamda ulardan foydalanish;
- ytangi a’zolarni yollash;
- terrorchilarni o‘qitish va ko‘rsatmalar berish;
- yangi terrorchilik harakatlarini rejalashtirish va boshqarish.

Mazkur imkoniyatlar terrorchi tashkilotlarning internetdagi faoliyatlarini kuchaytirishlariga sabab bo‘lmoqda.

Terrorchilarning internetda targ‘ibot olib borish uslublari

Ma’lumotlarga ko‘ra, “IShID”, “al-Qoida” kabi yirik terrorchi tashkilotlar o‘z targ‘ibotining 90 foizini internet tarmog‘i orqali amalga oshirmoqda.

- Bunda ular asosan 3 xil uslubdan foydalanishmoqda:
1. O‘z g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi saytlar ochish;
 2. Ijtimoiy tarmoqlarda (facebook.com, odnoklassniki.ru, twitter.com, instagram.com, vkontakte.ru) barcha tillarda diniy sahifalar, guruhlar tashkil qilish;

3. Mobil messenjerlarda (Telegram, WhatsApp, Viber, IMO) o‘ziga jalb qiladigan diniy nomlardagi guruhlar, botlar, kanallar tuzish.

Mazkur saytlar, sahifalar (profillar), guruhlar (gruppalar), botlar va kanallarga jozibali diniy nomlar berilib, bir qarashda ularning ekstremistik oqimlarga oid ekanini payqash qiyin.

Tavsiya etilmaydigan saytlarning umumiy belgilari:

1. “.uz” domenidan boshqa domendagi (“.com”, “.org”, “.net”, “.info”, “.biz”, “.tv”) barcha diniy-islomiy mazmundagi saytlar;
2. O‘zbekiston Respublikasida faoliyati taqiqlangan barcha diniy-ekstremistik tashkilotlarga tegishli va ularga moyillik bildiruvchi saytlar;
3. “Jihod”, “shahidlik”, “hijrat”, “kufr” kabi tushunchalarga ko‘p urg‘u beruvchi saytlar;
4. Yurtimizda kechayotgan barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy jarayonlarni keskin va noxolis talqin qiluvchi saytlar;
5. Yuklab olish mumkin bo‘lgan, ammo ekstremistik mazmunga ega turli audio, video va elektron shakldagi kitoblarni saqlovchi saytlar;
6. Ko‘rinishdan beozor, biroq hanafiy mazhabiga zid targ‘ibot ishlarini olib boruvchi yoki unga raddiya beruvchi saytlar.

Afsuski, bugungi kunda yigit-qizlarimiz orasida internet tarmog‘idagi puch da’vatlar ta’siriga tushib qolganlar kuzatilmoqda. Ba’zi yoshlarimiz internet orqali o‘zini “Islam davlati” deb atayotgan terrorchi tashkilot aqidaparast guruhlari ta’siriga tushib qolishi, mutaassib shaxslarning ma’ruzalarini diskda yoki qo‘l telefonni xotirasida saqlab, tinglab yurish holatlari mayjud. Ayniqsa, so‘nggi vaqtida hatto o‘smir yoshdagisi bolalar Suriya, Iroq kabi mamlakatlardagi jangarilarning faoliyatini targ‘ib qiluvchi materiallarni telefonda qo‘lma-qo‘l qilayotganlari sir emas.

Mavjud qonunchiligidan binoan bunday holatlar huquqbazarlik hisoblanadi.





“...diniy mazmunda
dagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash,
saqlash, olib kirish yoki tarqatish eng kam ish haqining 50-100 barobari miqdorida jarima to’lash bilan jazolanadi”.

O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 184-modda

Shunday ekan, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mobil messenjerlardan foydalanayotganda quyidagi qoidalarga amal qilish muhim hisoblanadi:

- faqat “.uz” domenidagi diniy-ma’rifiy saytlarga kirish;
- ijtimoiy tarmoqlarda, mobil messenjerlarda manbasi ma’lum bo’lmagan diniy guruhlar, sahifalar, O’zbekistondan tashqarida bo’lgan soxta “ulamolar”ning shaxsiy sahifalariga a’zo bo’lmaslik;
- ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish kishilar bilan tanishmaslik, ularga shaxsiy ma’lumotlarni, telefon raqamlarni, uy-manzilini bermaslik;
- ijtimoiy tarmoqlar, mobil messenjerlar, YouTube kabi saytlardan manbasi noma’lum bo’lgan diniy ma’ruzalar, qo’shiqlar (nashidalar), diniy ruhdagi roliklar, ayniqsa, jangarilar tomonidan amalga oshirilayotgan jang-u jadal, xunrezliklar aks etgan video va audio materiallarni yuklab olmaslik;
- tarmoqdan foydalanish jarayonida yuzaga kelgan savol va muammolar bo’yicha darhol ustozlarga murojaat qilish.



“...diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish agar ma’muriy jazodan so’ng sodir etilgan bo’lsa, eng kam ish haqining 100-200 barobari miqdorida jarima to’lash yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi”.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 244-modda, 3-band

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan biz yashayotgan davr “Internet asri” deb atalmoqda?
2. O’zbekistonda qancha odam internet tarmog’idan foydalanadi?
3. Terrorchi tashkilotlar internetdagi asosan qaysi vositalar orqali targ’ibot olib bormoqdalar?
4. Tavsiya etilmaydigan saytlarning umumiyligi belgilari qanday?



5. Internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mobil messenjerlardan foydalanayotganda qanday qoidalarga amal qilish muhim hisoblanadi?

6. Internetning terrorchilar uchun qulay jihatlari nimalardan iborat?

7. Terrorchi va aqidaparast kuchlar internetdan qanday maqsadlarda foydalanmoqdalar?



Terrorizm

Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo’rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biror-bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo’rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug’diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mayjud bo’lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishini ta’minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliya-tiga ko’maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirot etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag’-vositalar va resurslar berish yoki yig’ishga, boshqa xizmatlar ko’rsatishga qaratilgan faoliyat – sakkiz yildan o’n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta’sir ko’rsatish yoxud siyosiy yoki boshqa ijtimoiy faoliyatga to’sqinlik qilish maqsadida davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish – o’n yildan o’n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

- a) odam o’lishiga;
- b) boshqa og’ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo’lsa, – o’n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

Terrorizmn tayyorlashda ishtirot etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o’z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og’ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko’maklashgan bo’lsa, basharti bu shaxsnинг harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo’lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 155-modda

TAKRORLASH UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalari vijdon erkinligi masalalariga bag‘ishlangan?

2. Din niqobidagi ekstremizm deganda nimani tushunasiz?

- a) diniy yo‘nalishdagi keskin harakat yoki faoliyat
b) keskin harakatlar majmuasi

c) diniy niqob ostida sodir etiladigan jinoyat
d) to‘g‘ri javob yo‘q

3. Nega terrorizm “asr vabosi” deb ataladi?

- a) katta talofatlar keltirgani uchun c) uni oldindan bartaraf etish imkonini
bo‘lmasligani uchun
b) bu illatga qarshi hozirda hech qanday d) to‘g‘ri javob yo‘q
choralar ijobjiy samara bermayotgani uchun

4. Terrorizm va ekstremizm o‘rtasida qanday farq bor?

- a) hech qanday farq yo‘q
b) birinchisi natija, ikkinchisi tayyorgarlik
c) birinchisi harakat, ikkinchisi oqibat
d) birinchisi mafkura, ikkinchisi jinoyat

5. Xristianlikda ekstremistik faoliyat mavjudmi?

- a) mavjud
b) faqat turli konfessional ziddiyatlar
c) mavjud emas
d) to‘g‘ri javob yo‘q

6. Missionerlik nima?

- a) bir dindan ikkinchisiga og‘dirib olishi
 - c) bir konfessiyadagilarni boshqa dinni qabul qilishga undash
 - b) fuqarolarni dinga targ‘ib qilishlari
 - d) fuqarolarni diniy yo‘nalishdagi faoliyatni

7. Nurchilik ekstremistik tashkiloti qayerda tashkil etilgan?

8. O'zbekistonda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?

- a) 2000-yil 15-dekabrda
b) 1999-yil 8-dekabrda
c) 2004-yil 6-iyulda
d) 1999-yil 16-fevralda

9. 1999-yilda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari kim tomonidan sodir etilgan?

- a) Hizbut-tahrir
b) yahhobiyalar va Nurchilar
c) Turkiston islom harakati
d) barcha javoblar to‘g‘ri

10. 2005-yilda Andijonda sodir etilgan terrorchilik harakatlarini qaysi tashkilot sodir etган?

11. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning qaysi moddasida missionerlik faoliyatiga taqiblanishi qayd etilgan?

12. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish agar ma'muriy jazodan so'ng sodir etilgan bo'lsa, qanday javobgarlikka asos bo'ladi?

13. “Bir ...ga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati, shunday harakatlar uchun ... qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, – eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”, nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘g‘ri qo‘ying.

- a) konfessiya, ma'muriy jazo
 - b) fuqarolik, ma'muriy jazo
 - c) din, jinoiy javobgarlik
 - d) millat, ma'muriy jazo

YURTIMIZDA MUSTAQILLIK DAVRIDA AMALGA OSHIRILGAN DINIY-MA'RIFIY ISHLAR SOLNOMASI

1991-yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan Ramazon va Qurbon hayitlari dam olish kuni deb e'lon qilindi va bu an'ana muntazam ravishda davom etib kelmoqda.

Ilk bora 350 nafar O'zbekiston fuqarosi haj ibodatini ado etishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich yildan yilga ortib borib, hozirgi kunda yiliga 5000 dan ortiq ziyoratchilarimiz haj ibodatini, qariyb 6000 ziyoratchi umra ibodatini ado etib kelmoqdalar.

1992-yil

29-30-aprel – Toshkent shahrida Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasining ikkinchi yeparxial qurultoyi bo'lib o'tdi.

Sentyabr – O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi "Jo'ybori Kalon" (Buxoro shahri), "Xoja Buxoriy" (Qashqadaryo viloyati), "Sayyid Muhyiddin Maxdum" (Andijon viloyati) va "Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy" (Nukus shahri) islam o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsata boshladi.

1993-yil

2-may – Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi nemislarning diniy ehtiyojlarini to'liq ta'minlash maqsadida nemis Yevangel-lyuteran cherkovi Kirxasini "Vidergebut" Nemis madaniyat markaziga maqsadga muvofiq tarzda ishlatish uchun berish" haqidagi 138-F-sonli farmoyishi qabul qilindi.

16-18-sentyabr – Buxoroda Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yillik tantanalari nishonlandi.

30-oktyabr – Toshkentda Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-ma'rifiy anjuman bo'lib o'tdi.

22-noyabr – O'zbekiston musulmonlari idorasining 96-qarori bilan "Xadichai Kubro" (Toshkent shahri) nomli ayol-qizlar islam o'rta maxsus bilim yurti faoliyat ko'rsata boshladi.

1994-yil

18-noyabr – Samarqand shahrida Xoja Ahror Valiy tavalludining 590 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

1995-yil

Noyabr – Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmuddin Kubroning 850 yillik yubileyлari o'tkazildi.

1996-yil

10-12-oktyabr – Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasining tashabbusi bilan "Bir samo ostida" musulmon-xristian muloqoti Toshkent shahrida o'tkazildi.

17-dekabr – Nemis Yevangel-lyuteranlar cherkovining O'zbekistondagi ilk cherkovi (Kirxasi)ning 100 yilligi Toshkent shahrida nishonlandi.

1998-yil

1-may – O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunining yangi tahriri Oliy Majlisning o'n birinchi sessiyasida qabul qilindi.

23-oktyabr – Samarqand shahrida Imom Buxoriyning 1225 yilligi tantanalari va xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.

1999-yil

7-aprel – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent islam universitetini tashkil etish to'g'risida" PF-2282-sonli Farmoni qabul qilindi.

3-dekabr – Vazirlar Mahkamasining "Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 517-sonli qarori qabul qilindi.

2000-yil

14-16-sentyabr – YUNESKO "Jahon dinlari: tinchlik madaniyati yo'lida" xalqaro konferensiysi Toshkentda bo'lib o'tdi.

Noyabr – Imom Moturidiyning 1130 yilligi va Burhonuddin Marg'inoniyning 910 yilligi tavalludi tantanalari nishonlandi.

2001-yil

30-mart – O'zbekiston Bibliya kitob jamiyati tomonidan amalga oshirilgan "Sulaymonning hikmatlari kitobi"ning o'zbekcha tarjimasi taqdimot marosimi o'tkazildi.

2-may – "Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi" Abdulaziz Mansur tomonidan tayyorlandi va nashr etildi.

25-26-noyabr – Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasining 130 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish va ilmiy anjuman o'tkazildi.

2003-yil

27-28-noyabr – Buxoro shahrida "Abduxoliq G'ijduvoniy va tasavvuf" nomli ilmiy anjuman bo'lib o'tdi.

2004-yil

21 dekabr – O‘zbekiston musulmonlari idorasida ko‘zi ojizlar uchun Brayl yozuvida 8 jildlik Qur’oni karim nashr etildi.

2007-yil

Yanvar – Islom Hamkorlik tashkiloti tarkibidagi muassasalardan biri – Ta’lim, fan va madaniyat bo‘yicha xalqaro Islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Toshkent shahri islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilindi. Ushbu munosabat bilan xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi.

8-iyun – Hazrati Imom majmuasining ochilishi bo‘lib o‘tdi.

2008-yil

Sentyabr – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

2012-yil

13-14-aprel – Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘zbekiston yeparxiyasi tashabbusi bilan o‘zbekistonlik fuqarolarning Isroil davlatidagi muqaddas qadamjolarga ziyyorati tashkil etildi.

2014-yil

16-may – Samarqandda “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

1-oktyabr – Toshkent shahrida Minor jome masjidi ochildi.

ATAMALARING IZOHLI LUG‘ATI

Apostol (yunoncha – “elchi”) – xristian ta’limotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiyлари 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isioni sotgan havoriy), Mattiy (Iudadan so‘ng uning o‘rnini egallagan).

Arafot (arab. “tanimoq, bilmoq” fe’lidan) – Makka shahrining sharq tomonidagi tepalik. Rivoyatlarga ko‘ra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havvo yerda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar. Shuning uchun ham uni “Arafot” – “Tanishuv” deb ataganlar.

Bibliya (yunoncha – “kitoblar”) – yahudiylik va xristianlik dirlarining asosiy muqaddas manbasi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan Bibliya “Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd”dan iborat bo‘lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

Faqih – fiqh ilmining bilimdoni.

Farz – islom dini ta’limotiga ko‘ra, inkor qilib bo‘lmaydigan darajada qat’iy dalil bilan bajarilishi talab etiladigan amallar.

Fiqh – (arab. “tushunish”) shariat qonun-qoidalalarini o‘rganuvchi fan.

Hadis – (arab. “yangi; so‘z”) Muhammad payg‘ambarning aytgan so‘zлari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.

Hajarul asvat – (arab. “qora tosh”) Ka’baning janubiy-sharqiyl burchagida yerdan 1,5 m. balandlikda o‘rnatilgan muqaddas tosh.

Harom – islom ta’limotiga ko‘ra, inkor qilib bo‘lmaydigan darajada qat’iy dalillar bilan bajarilishi taqiqlangan amal.

Ijtihad – islomda yangi paydo bo‘lgan diniy muammolarni hal qilishning o‘ziga xos usuli.

Ikona – xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar. Ular cherkovlarda ibodat buyumi bo‘lib xizmat qiladi.

Injil – (yunon. – “Evangelie”) “Yangi Ahd”dagi Mark, Matto, Luqo va Yuhannolardan rivoyat qilingan kitoblar nazarda tutiladi. Ularda Iso Masihning hayot yo‘li va mo‘jizalarini bayon qilingan.

Jabroil – Alloh bilan payg‘ambarlar o‘rtasida elchi vazifasini bajaruvchi farishta.

Ka’ba – (arab. “kub”) Makka shahrida hozirgi davrda Baytul Harom (Muqaddas Masjid) ichida joylashgan islom dinining qibłasi hisoblanmish bino. Islom ta’limotiga binoan, uni buyuk to‘fondan so‘ng Ibrohim payg‘ambar o‘g‘li Ismoil bilan qayta tiklagan.

Kardinallar kollegiyasi – Rim katolik cherkovidagi oliy kengash. Papa o‘rnini bo‘shab qolganda uning vazifasini bajarish va yangi Papani saylash vazifalarini bajaradi.

Kasta – (portug. “irq, qavm, tabaqa”) muayyan kasb bilan shug‘ullanadigan, o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari, tartib-qoidalari va h.k. bilan o‘zgalaridan ajratilgan ijtimoiy guruh.

Kirxa (nemischa – “cherkov”) – lyuteran cherkovlarining nomi.

Konfessiya – (lot. “e’tirof, e’tiqod”) din, diniy e’tiqod.

Kostel (polyak., chek. – “cherkov”) – Rim katolik cherkoviga qarashli ibodatxonalarga nisbatan ishlatiladigan atama. Ushbu atama pravoslav yoki protestant cherkovlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Maxayana – (sanskr. “katta arava”) buddaviylikdagi yo‘nalish.

Mazhab – (arab. “yo‘l”) islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo‘nalishi.

Meditasiya – (lot. “fikrlash, o‘ylash”) shaxsning ruhiy faoliyatga chuqur berilish holati.

Mitropolit – (qad. yunon. “bosh shahar, poytaxt, mitropoliya odami”) pravoslav cherkovining poytaxt shaharlardagi oliy ruhoniylilik unvoni.

Muboh – islom shariati qilish yoki qilmaslikni kishilar ixtiyoriga qo‘ygan amallar.

Muhaddis – (arab. “hadis so‘zlovchi”) hadislар bilan shug‘ullanuvchi olim.

Muqaddas rivoyatlar – Bibliya tarkibiga kirmagan, cherkov avliyolari tomonidan qabul qilingan hujjatlar va nomalar.

Muqaddas Ruh – xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri. Muqaddas Ruh dunyoning yaralishida ishtirok etgan, Bibi Maryam ham u orqali Isoga homilador bo‘lgan hisoblanadi.

Nirvana – (sanskr. “so‘lish”) buddaviylik va jaynizm diniy falsafalariga ko‘ra, ruhning sansara kishanlaridan to‘la ozod bo‘lishi va oliy maqomga erishishi.

Nizomulmulk – Saljuqiylar davlatining mashhur vaziri. U 1017-1092 yillarda yashagan va faoliyat ko‘rsatgan. Davlat boshqaruviga oid “Siyosatnoma” asarini yozgan.

Ota Xudo – xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri va asosiysi. Ota Xudo dunyonni yaratgan bo‘lib, uchlikning qolgan ko‘rinishlari (O‘g‘il Xudo va Muqaddas Ruh) undan kelib chiqqan deb ishoniladi.

Pastor (lotincha – cho‘pon) – protestantlikdagi cherkov rahbari. Pastorlar ommaviy ibodatlarda ma’ruzalar o‘qish va cherkovning ichki faoliyatini boshqarish bilan shug‘ullanadi.

Patriarx – (qad. yunon. “ota, asos soluvchi”) Pravoslav cherkovidagi oliy diniy martaba bo‘lib, undagi avtokefal – mustaqil cherkovlar boshliqlari shu nom bilan ataladilar.

Qadimgi Ahd – Bibliyaning qismlaridan biri. “Tavrot” (Musoning 5 kitobi), “Zabur” va boshqa kitoblardan iborat, jami 39 kitobni o‘z ichiga oladi.

Qiyomat – (arab. “tik turish”) ma’nolarni anglatsa, o‘liklarning qayta tirilishi va

o‘rnidan turishi ma’nosida ishlatiladi.

Ravvin – yahudiy din arbobi. U yahudiy jamoasida diniy va oilaviy masalalarida hakamlik qiladi.

Safo – Makka shahrida Ka’ba yaqinidagi tepalik. Haj va Umra qiluvchilar Safo va Marva tepaliklari orasida yetti bor yugurishlari lozim.

Sahih hadis – (arab. “sog‘lom; to‘g‘ri”) olimlar tarafidan ishonzhli, to‘g‘ri deb topilgan hadis.

Sahobiy – Rasululloh alayhis-salomni imon keltirgan holda ko‘rgan va shu musulmonlik holida vafot etgan kishi.

Sinagoga – yahudiylar ibodatxonasi.

Sunna – islomda “Payg‘ambar yo‘li”.

Tafsir – (arab. “bayon qilish”) Qur’on oyatlariga o‘ziga xos ravishda ma’no berish.

Tavof – Ka’baning atrofini aylanish.

Tavrot, Tora – (ivritcha – “ta’limot, qonun”) yahudiylik va xristianlik dinlarida tan olinadigan va “Bibliya” tarkibiga kiruvchi muqaddas manba. “Tavrot”ning muallif sifatida Muso payg‘ambar ko‘rsatiladi. “Tavrot” besh kitob: “Ibtido”, “Chiqish”, “Levit”, “Sonlar” va “Ikkinchi qonun”dan iborat.

Tripitaka – (sanskr. “uch savat donolik”) buddaviylikning muqaddas kitobi.

Vahiy – ilohiyot bilan insonlarning payg‘ambarlar orqali muloqot yo‘li.

Vedalar (véda – “bilim”, “ta’limot”) – hinduiylik dinining sanskrit tilida yozilgan qadimiy muqaddas yozuvlari to‘plami.

Yangi Ahd – “Bibliya” qismlaridan biri. To‘rt “Injil”, Havoriylar faoliyati kitobi, 21 ta havoriyning nomalari va Yuhannoning “Vahiynomasi” ni o‘z ichiga olgan, 27 kitobdan iborat.

Zabur – Dovud payg‘ambarga tushirilgan kitob. “Qadimgi Ahd” tarkibiga kiritilgan bo‘lib, turli qo‘shiq va madhiyalaridan iborat.

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	3
----------------	---

I. Dinning paydo bo‘lishi, uning jamiyatdagi o‘rnı

1-mavzu. Din va uning mohiyati.....	5
2-mavzu. Din va jamiyat.....	8
3-mavzu. Dastlabki diniy tasavvurlar.....	12

II. Markaziy Osiyo dinlari

4-mavzu. Zardushtiylik.....	18
5-mavzu. Tangrichilik.....	22

III. Milliy dinlar

6-mavzu. Yahudiylik.....	27
7-mavzu. Hinduiylik, jayniylik, sikxiylik.....	31
8-mavzu. Konfutsiylik, daochilik, sintoiylik.....	36
Takrorlash uchun test topshiriqlari.....	40

IV. Jahon dinlari

9-mavzu. Buddaviylik.....	41
10-mavzu. Buddaviylik ta’limoti va an’analari.....	46
Takrorlash uchun test topshiriqlari.....	50
11-mavzu. Xristianlik tarixi va ta’limoti.....	51
12-mavzu. Xristianlik yo‘nalishlari.....	57
Takrorlash uchun test topshiriqlari.....	62
13-mavzu. Islom dini tarixi va ta’limoti.....	63
14-mavzu. Islom dini manbalari.....	69
15-mavzu. Islomdagi mazhablar va yo‘nalishlar.....	74
16-mavzu. Islom dini va ilm-fan, san’at taraqqiyoti.....	78
17-mavzu. Islom madaniyati va ma’naviyati.....	86

V. Rossiya imperiyasi va sovetlar davrida dinga munosabat

18-mavzu. Rossiya imperiyasining din va dindorlarga nisbatan mustamlakachilik siyosati.....	90
19-mavzu. Sovet davrida dinga munosabat.....	94

VI. O‘zbekiston Respublikasida dinga munosabat

20-mavzu. Mustaqillik yillarda milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi.....	100
21-mavzu. O‘zbekiston – bag‘rikenglik diyori.....	105
22-mavzu. Toshkent – islom madaniyati poytaxti.....	109
Takrorlash uchun test topshiriqlari.....	113

VII. Tinchlik va barqarorlikka tahdidlar

23-mavzu. Diniy fundamentalizmning yuzaga kelishi.....	115
24-mavzu. Din niqobidagi ekstremizm va terrorizm – jamiyat barqarorligiga tahdid.....	120
25-mavzu. Missionerlik va uning oqibatlari.....	124
26-mavzu. Internet va din.....	128
Takrorlash uchun test topshiriqlari.....	134
Yurtimizda mustaqillik davrida amalga oshirilgan diniy-ma’rifiy ishlar solnomasi	136
Atamalarning izohli lug‘ati.....	139

MUALLIFLAR

Durbek Obidjonovich Rahimjonov,
Jasur Xotamjonovich Najmiddinov,
Usmon Toshpo‘latovich Jo‘raev,
Akbarjon Turg‘unovich Zamonov

Metodist

Nargiza Kamaritdinovna Ismatova

DUNYO DINLARI TARIXI

9-sinf uchun darslik

o‘zbek tilida
birinchi nashri

Muharrirlar:

Badiiy miharrir:

Texnik muharrir:

Bosh dizayner:

Sahifalovchi:

Nashriyot guvohnoma raqami AI № ... 2016 yil
Bosishga ruxsat etildi 00.00.2016. Bichimi 70x90 1/16 Shartli b.t., Offset bosma usulida
bosildi. Offset qog‘ozi..... garniturasi. Kegli 11, 10 shponli. bosma t..... Shartli b/t.
Nashr t., 217 000 nushada bosildi. Buyurtma № _____.
Bahosi kelishilgan narxda.
«“O‘qituvchi” - nashriyot matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
.... Toshkent - 129, Navoiy ko‘chasi, 30 // Toshkent, Yunusobod dahasi,
Yangishahar ko‘chasi, 1-uy.
Shartnomma №...»